- adabiy til me‘yorlari va nutq uslublariga doir adabiyotlarni puxta o‘zlashtirgan bo‘lsa;
- nutqning kommunikativ sifatlari, adabiy til me‘yorlari, nutq uslublari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha berilgan savollarga to‘g‘ri, batafsil javob bersa, bunda izchillik va mantiqiylik kuzatilsa;
- nutq sifatlarini yuzaga keltiruvchi omillar va nutqni nazorat qilish haqidagi savollarga javob yozishda magistrning mustaqil yondashuvi sezilib tursa;

- fanga doir istiloh va atamalarni qo‘llashda xatoliklar bo‘lmasa;
- yozilgan matn imloviy xatolar va uslubiy g‘alizliklardan xoli bo‘lsa.

22-25 ball uchun magistrning bilim darajasi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- adabiy til me‘yorlari va nutq uslublariga doir adabiyotlarni o‘zlashtirgan va ularning mazmunidan yaxshi xabardor bo‘lsa;

- nutqning kommunikativ sifatlari, adabiy til me‘yorlari, nutq uslublari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha berilgan savollarga to‘g‘ri, yetarli darajada javob bersa;

- nutq sifatlarini yuzaga keltiruvchi omillar va nutqni nazorat qilish haqidagi savollar magistr tomonidan atroflicha va mustaqil yoritilgan bo‘lsa;

- magistr savollarga javob yozishda mavzuga doir istiloh va atamalarni to‘g‘ri qo‘llay bilsa;

- yozma ishlarda juz‘iy imlo va jumla xatolariga yo‘l qo‘ysa.

17-21 ball uchun magistrning bilim darajasi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- adabiy til me‘yorlari va nutq uslublariga doir adabiyotlarni yaxshi o‘zlashtirmagan bo‘lsa;

- nutqning kommunikativ sifatlari, adabiy til me‘yorlari, nutq uslublari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha yozgan nazorat ishlarida savollarga javob to‘liq bo‘lmasa;

- nutq sifatlarini yuzaga keltiruvchi omillar va nutqni nazorat qilish haqidagi savollarga qisman javob berilgan bo‘lsa;

- savollarga javob yozishda mavzuga doir istiloh va atamalarni to‘g‘ri qo‘llashda kamchilik bo‘lsa;

- yozilgan matnda imloviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘ysa.

0-16 ball bilan quyidagi hollarda magistrning yakuniy nazorat ishlari baholanadi:

- mavzu yoritilmagan bo‘lsa;
- imloviy va uslubiy xatolar ko‘p kuzatilsa;
- yozilgan matn nazorat talablariga javob bermasa.

Yakuniy nazoratni baholash mezonlari

26-30 ball uchun magistrning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- “Nutq madaniyati” fanining asosiy nazariy masalalari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lsa;

- nutqning kommunikativ sifatlari, adabiy til me‘yorlari, nutq uslublari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha berilgan savollarga nazorat ishida to‘liq yoritilgan bo‘lsa;

- nutq sifatlari va ularni yuzaga keltiruvchi omillar, nutqni nazorat qilish haqidagi savollarga javob yozishda magistrning mustaqil yondashuvi sezilib tursa;

- berilgan savollarga javob yozishda izchillik va mantiqiylik kuzatilsa;
- istiloh va atamalarni qo‘llashda xatoliklar bo‘lmasa;

- yozilgan matn imlo xatolari va uslubiy g'alizliklarga ega bo'lmasa.

22-25 ball uchun magistrning bilim darajasi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- "Nutq madaniyati" fanining asosiy nazariy masalalari bo'yicha puxta bilimga ega bo'lsa;

- nutqning kommunikativ sifatlari, adabiy til me'yorlari, nutq uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha berilgan savollar nazorat ishida atroflicha yoritilgan bo'lsa;

- magistr savollarga javob yozishda mavzuga doir istiloh va atamalarni to'g'ri qo'llay bilsa;

- mavzuga doir adabiyotlar bilan tanish bo'lsa;

- yozilgan matnda juz'iy bo'lmagan ba'zi imloviy xatolar bo'lsa.

17-21 ball uchun magistrning bilim darajasi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- "Nutq madaniyati" fanining asosiy nazariy masalalari bo'yicha bir qadar tushunchaga ega bo'lsa;

- nutqning kommunikativ sifatlari, adabiy til me'yorlari, nutq uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha berilgan savollar nazorat ishida qisman yoritilgan bo'lsa;

- mavzuga doir istiloh va atamalarni to'g'ri qo'llashda nuqsonlar uchrasa;

- mavzuga doir adabiyotlar bilan tanish bo'lsa;

- yozilgan matnda imloviy va uslubiy xatolar kuzatilsa.

0-16 ball bilan quyidagi hollarda magistrning yakuniy nazorat ishlari baholanadi:

- "Nutq madaniyati" fani bo'yicha zarur adabiyotlarni o'zlashtirmagan bo'lsa;

- mavzu yoritilmagan bo'lsa;

- imloviy va uslubiy xatolar ko'p uchrasa;

- yozilgan matn nazorat talablariga javob bermasa.

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bulib, («case» - aniq vaziyat, hodisa, «stadi» - o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921- yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), qachon (When), qaerda (Where), Nima uchun (Why), qanday/ qanaqa (How), Nima-natija (What).

Metod bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	S yakka tartibdagi audio-vizual ish; S keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); S axborotni umumlashtirish; S axborot tahlili; S muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshiriqni belgilash	Individual va guruhda ishlash; Muammolarning dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; S asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, xal etish yo‘llarini ishlab chiqish	S individual va guruhda ishlash; S muqobil yechim usullarini ishlab chiqish; S har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; S muqobil yechimlarni tanlash S muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	S yakka va guruhda ishlash; S muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; S ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; S yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Dinamik massivlar bilan ishlaydigan dastur tuzildi. Dastur vazifasi massiv elementlarini siklik ravishda chapga n ta surish. Dastur ishlashi natijasida xatolik kelib chiqdi. Ya’ni ilova xatolik haqida xabar berdi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Dastur to'g'ri ishlashi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

1. "Assesment" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

2. "Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarning mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi hakida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
1- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

“Nutq madaniyati va notqlik tushunchasi. Nutq shakllari va turlari”

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	<p>1.“Nutqi madaniyati” kursining o‘rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari.</p> <p>2.Nutq madaniyati tarixidan.</p> <p>3.“Nutq madaniyati” muammosining asoslanishi.</p> <p>4.Xulosa.</p>
Mashg'ulot maqsadi:	Nutq madaniyati, notqlik, nutq shakllari va turlari haqida ma'lumot berish
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>1.“Nutqi madaniyati” kursining o‘rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish.</p> <p>2.Nutq madaniyati tarixiga “ekskursiya”.</p> <p>3.“Nutq madaniyati” muammosi asoslanishi haqida ma'lumot berish.</p>	<p>O‘quv faoliyati natijalari:</p> <p>1.“Nutqi madaniyati” kursining o‘rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot egallanadi.</p> <p>2.Nutq madaniyati tarixi haqida tasavvurlar boyiydi.</p> <p>3.“Nutq madaniyati” muammosi asoslanishi haqida ma'lumot olinadi.</p>
Ta'lim berish usullari	Aqliy hujum
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

2- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati: tarixi va buguni

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	
Mashg'ulot maqsadi:	Nutq madaniyati haqida tasavvur hosil qilish va rivojlantirish
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • 1. Afinada notiqlik san'atining rivoj topishi haqida ma'lumot berish. • 2. Gorgiy va Litsiyning notiqlik faoliyati haqida ma'lumot berish. • 3. Aristotelning notiqlik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot berish. • 4. Sezar va Sitseronning ilhombaxsh nutqlari haqida ma'lumot berish. 	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • 1. Afinada notiqlik san'atining rivoj topishi haqida bilimga ega bo'linadi. • 2. Gorgiy va Litsiyning notiqlik faoliyati haqida bilimga ega bo'linadi. • 3. Aristotelning notiqlik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida bilimga ega bo'linadi. • 4. Sezar va Sitseronning ilhombaxsh nutqlari haqida bilimga ega bo'linadi.
Ta'lim berish usullari	Aqliy hujum
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

3- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI
 “Adabiy til normasi va madaniy nutq me'yorlari”

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	1. Adabiy til me'yorlari haqida. 2. Leksik-semantik me'yor. 3. Fonetik, orfografik va orfoepik me'yor. 4. Aksentologik va grammatik me'yor. 5. Punktuation va uslubiy me'yor.
Mashg'ulot maqsadi:	Adabiy va madaniy nutq me'yorlari haqida ma'lumot berish
Pedagogik vazifalar: 1. Adabiy til me'yorlari haqida ma'lumot berish. 2. Leksik-semantik me'yor haqida ma'lumot berish. 3. Fonetik, orfografik va orfoepik me'yor haqida ma'lumot berish. 4. Aksentologik va grammatik me'yor haqida ma'lumot berish. 5. Punktuation va uslubiy me'yor haqida ma'lumot berish.	O'quv faoliyati natijalari: 1. Adabiy til me'yorlari haqida bilim hosil qilinadi. 2. Leksik-semantik me'yor bilim hosil qilinadi. 3. Fonetik, orfografik va orfoepik me'yor bilim hosil qilinadi. 4. Aksentologik va grammatik me'yor bilim hosil qilinadi. 5. Punktuation va uslubiy me'yor bilim hosil qilinadi.
Ta'lim berish usullari	Toifali jadval
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

4- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI
 “Nutq uslublari”

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	1.Uslubiyat va nutq madaniyati masalalari. 2.Morfologik uslubiyat va nutq madaniyati. 3.Sintaktik uslubiyat va nutq madaniyati. 4.Nutqni ifodalashda uslubiyatning o'рни.
Mashg'ulot maqsadi:	Nutq uslublari haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish va bilimlarni o'stirish
Pedagogik vazifalar: 1.Uslubiyat va nutq madaniyati masalalari haqida ma'lumot berish. 2.Morfologik uslubiyat va nutq madaniyati haqida ma'lumot berish. 3.Sintaktik uslubiyat va nutq madaniyati haqida ma'lumot berish. 4.Nutqni ifodalashda uslubiyatning o'рни haqida ma'lumot berish.	O'quv faoliyati natijalari: 1.Uslubiyat va nutq madaniyati masalalari bo'yicha bilim hosil qilinadi. 2.Morfologik uslubiyat va nutq madaniyati bo'yicha bilim hosil qilinadi. 3.Sintaktik uslubiyat va nutq madaniyati bo'yicha bilim hosil qilinadi. 4.Nutqni ifodalashda uslubiyatning o'рни bo'yicha bilim hosil qilinadi.
Ta'lim berish usullari	Toifali jadval
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

5- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

“Nutqning to‘g‘riligi va aniqligi”

Mashg‘ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg‘ulot shakli	Ma'ruza
Mashg‘ulot rejasi	1.Nutqning kommunikativ sifatlari. 2.Nutqning to‘g‘riligi. 3.Nutqning aniqligi.
Mashg‘ulot maqsadi:	Nutqning to‘g‘riligi va aniqligi mohiyatini ochib berish
Pedagogik vazifalar: 1.Nutqning kommunikativ sifatlari haqida ma'lumot berish. 2.Nutqning to‘g‘riligi haqida ma'lumot berish. 3.Nutqning aniqligi haqida ma'lumot berish.	O‘quv faoliyati natijalari: 1.Nutqning kommunikativ sifatlari haqida bilim hosil qilinadi. 2.Nutqning to‘g‘riligi haqida bilim hosil qilinadi. 3.Nutqning aniqligi haqida bilim hosil qilinadi.
Ta'lim berish usullari	Klasterlash usuli
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

6- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI
Nutqning sofliqi, boyligi va ifodaliligi

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	1.Nutqning sofliqi. 2.Nutqning boyligi. 3.Nutqning ifodaliligi.
Mashg'ulot maqsadi:	Nutqning sofliqi, boyligi va ifodaliligi haqida BKM hosil qilish.
Pedagogik vazifalar: 1.Nutqning sofligini tushuntirish va rivojlantirish. 2.Nutqning boyligini tushuntirish va rivojlantirish. 3.Nutqning ifodaliligini tushuntirish va rivojlantirish.	O'quv faoliyati natijalari: 1.Nutqning sofliqi bo'yicha BKM hosil qilinadi. 2.Nutqning boyligi bo'yicha BKM hosil qilinadi. 3.Nutqning ifodaliligi bo'yicha BKM hosil qilinadi.
Ta'lim berish usullari	Intervyu usuli
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

7- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

“Nutqning jo‘yaliligi, mantiqiyliqi, qisqaligi”

Mashg‘ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg‘ulot shakli	Ma'ruza
Mashg‘ulot rejasi	1.Nutqning jo‘yaliligi. 2.Nutqning mantiqiyliqi. 3.Nutqning qisqaligi.
Mashg‘ulot maqsadi:	Nutqning jo‘yaliligi, mantiqiyliqi, qisqaligi haqida ilmiy asosli tasavvur hosil qilish
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari:
1.Nutqning jo‘yaliligi haqida bilim berish.	1.Nutqning jo‘yaliligi bo‘yicha BKM hosil qilish.
2.Nutqning mantiqiyliqi haqida bilim berish.	2.Nutqning mantiqiyliqi bo‘yicha BKM hosil qilish.
3.Nutqning qisqaligi haqida bilim berish.	3.Nutqning qisqaligi bo‘yicha BKM hosil qilish.
Ta'lim berish usullari	Bumerang usuli
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

8- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI
“Ixtisoslik nutqi madaniyati”

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	1. Til madaniyati va nutq madaniyati. 2. Muomala madaniyatini o'rganish. 3. Salomlashish va so'zlashish odobi.
Mashg'ulot maqsadi:	Ixtisoslik nutq madaniyati haqida ma'lumot berish
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
1.Til madaniyati va nutq madaniyati haqida bilim berish. 2.Muomala madaniyatini o'rganish haqida bilim berish. 3.Salomlashish va so'zlashish odobi haqida bilim berish.	1.Til madaniyati va nutq madaniyati bo'yicha BKM hosil qilish. 2.Muomala madaniyatini o'rganish bo'yicha BKM hosil qilish. 3.Salomlashish va so'zlashish odobi bo'yicha BKM hosil qilish.
Ta'lim berish usullari	Aqliy hujum
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

9- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI
Madaniy nutqning etnik va sotsial xoslanganligi

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	1. Tilshunoslikda inson omili tushunchasi. 2. Tilda sotsial rollar haqida. 3. Gender rollar xususiyatlari.
Mashg'ulot maqsadi:	Madaniy nutqning etnik va sotsial xoslanganligi haqidagi ma'lumotlarni izchillashtirish
Pedagogik vazifalar: 1. Tilshunoslikda inson omili tushunchasi haqida ma'lumot berish. 2. Tilda sotsial rollar haqida ma'lumot berish. 3. Gender rollar xususiyatlari haqida ma'lumot berish.	O'quv faoliyati natijalari: 1. Tilshunoslikda inson omili tushunchasi bo'yicha bilim hosil qilish. 2. Tilda sotsial rollar bo'yicha bilim hosil qilish. 3. Gender rollar xususiyatlari bo'yicha bilim hosil qilish.
Ta'lim berish usullari	Aqliy hujum
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

10- MA'RUZANING TA'LIM TEXNOLOGIYASI
 "Nutq madaniyati va ish yuritish uslubi"

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 65 nafar
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Rasmiy nutq uslubi haqida. 2. Ish yuritish tarixi. 3. Ish yuritish hujjatlari tili. 4. Ish yuritish hujjatlari uslubi. 5. Ish yuritish hujjatlarining turlari.
Mashg'ulot maqsadi:	Hosila semema haqida ma'lumot berish
Pedagogik vazifalar: <ol style="list-style-type: none"> 1. Rasmiy nutq uslubi haqidagi bilimlarni boyitish va chuqurlashtirish. 2. Ish yuritish tarixi haqida ma'lumot berish. 3. Ish yuritish hujjatlari tili haqidagi tasavvurlarni kengaytirish. 4. Ish yuritish hujjatlari uslubi bilan tanishtirish. 5. Ish yuritish hujjatlarining turlari haqidagi bilimlarni izchillashtirish. 	O'quv faoliyati natijalari: <ol style="list-style-type: none"> 1. Rasmiy nutq uslubi haqida BKM kengayadi. 2. Ish yuritish tarixi haqida ma'lumot egallanadi. 3. Ish yuritish hujjatlari tili haqida bilim egallanadi. 4. Ish yuritish hujjatlari uslubi bo'yicha BKM chuqurlashadi. 5. Ish yuritish hujjatlarining turlari haqidagi tasavvurlar kengayadi.
Ta'lim berish usullari	Aqliy hujum
Ta'lim berish shakllari	Ma'ruza
Ta'lim berish vositalari	Darslik, ilmiy adabiyotlar, doska, taqdimot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

MASHG'ULOTLARNING TEXNOLOGIK XARITASI

MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorlov bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> • Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. • Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. • Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. 	
1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)	<p>1.1.Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2.O'tilgan mavzu bo'yicha mustahkamlash savollarini beradi</p> <p>1.3.Yangi mashg'ulot bo'yicha tayyorlov savollarini beradi.</p>	<p>Tinglaydi.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)	<p>2.1.Mavzu mazmunini bandma-band bayon qiladi.</p> <p>2.2.Har bir band oxirida savollar so'raladi.</p> <p>2.3.Savollarga javob beriladi.</p> <p>2.4.Har bir band oxirida savollar beriladi.</p> <p>2.5.Javoblar to'ldiriladi.</p>	<p>2.1.Tinglaydi.</p> <p>2.2.Savol beradi.</p> <p>2.3.Tinglaydi.</p> <p>2.4.Javob beradi.</p> <p>2.5.Tinglaydi.</p>
3.Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	<p>3.1.Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar beriladi.</p> <p>3.2.O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3.Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Berilgan topshiriq va mashqlarni bajarish.</p>	<p>Tinglaydi.</p>

**2.AMALIY MASHG‘ULOTLARNING
TeXNOLOGIK XARITASI**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorlov bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> • Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. • Mavzu bo'yicha mashg'ulot ishlanmasini yaratadi. • Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. • Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. • Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)	<p>1.1.Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2.Uyga berilgan topshiriqlarning bajarilishini tekshiradi.</p>	<p>1.Tinglaydi.</p> <p>2.Topshiriqlarning bajarilishini ko'rsatadi</p>
2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)	<p>2.1.Yangi mashq va topshiriqlarni e'lon qiladi.</p> <p>2.2.Mashqlarning bajarilishini tashkil qiladi.</p> <p>2.3.Bajarilgan ishlarni tekshiradi.</p> <p>2.4.Savollar beradi.</p> <p>2.5.Har bir mashq oxirida munozara tashkil qiladi.</p> <p>2.5.Javoblarni to'ldiradi yoki tuzatadi.</p>	<p>2.1.Tinglaydi.</p> <p>2.2.Bajaradi.</p> <p>2.3.Taqdim qiladi.</p> <p>2.4.Ishtirok etadi.</p> <p>2.5.Tinglaydi.</p>
3.Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	<p>3.1.Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar beriladi.</p> <p>3.2.O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3.Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: navbatdagi amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish.</p>	Tinglaydi.

MA'RUZA MATERIALLARI

1-mavzu: Nutq madaniyati va notiqlik tushunchasi. Nutq shakllari va turlari

Reja:

1. "Nutqi madaniyati" kursining o'rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari.
2. Nutq madaniyati tarixidan.
3. "Nutq madaniyati" muammosining asoslanishi.
4. Xulosa.

Tayanch tushunchalar

nutq madaniyati tushunchasi, nutq madaniyati muammosi, nutq madaniyati tushunchasining ilmiy asoslanishi, til madaniyati, nutq odobi, notiqlik san'ati, voizlik san'ati, til didi, Rus tilshunoslik maktabi, Praga lingvistik to'garagi

Kishilar nutqida uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutqni madaniylashtirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslar emas, balki jumhuriyatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e'tibor berishlari maqsadga muvofiq. Chunki nutq madaniyati umumxalq madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, kishilarning yuksak madaniyatli bo'lishlarini belgilovchi omillardan biridir.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Ossuriyada, Vavilion va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan.

Qadimda notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Bu ikki san'atni mukammal egallagan kishilargina yuqori lavozimlarga saylanganlar. Umuman, yetuk inson bo'lish uchun, albatta, notiqlik san'atini egallash shart qilib qo'yilgan. Grek notig'i Demosfen va Rim notiqi Sitseron, Aristotel kabi nazariyotchilarning hayotlari bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratdilar. Sitseronning «Notiqlik haqida», «Notiq» asarlari, Aristotelning «Ritorika» kabi asarlari ham qadimgi Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi rivojlanganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqyega ega. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda yashab ijod qilgan shoiru fuzalolar tomonidan notiqlik, voizlik, ya'ni va'zxonlik, «Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinli foydalanish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, «Nutq odobi», «Muomala madaniyati» nomlari bilan yuritilib kelgan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga jiddiy e'tibor berishdi, ular tilshunoslikka, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid ko'plab asarlar yozdilar.

Buyuk olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi hayotdagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kuchliligi haqida shunday deydi: «..ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...»

Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib namunalaridan hisoblangan «Qobusnoma»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning 6-7 boblari so'z odobi haqida. Muallif farzandiga qilgan nasihatlarini orqali o'quvchini o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So'zlaganda o'ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko'z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi kamtar bo'lishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko'p gapirish donolik belgisi emasligi qayd etadi: «Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil.. Ko'p bil-u, oz so'zla, kam bilsang, ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi. Deganlarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqlli odam bo'lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...»

Ulug' shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XP asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo'lgan «Qutadg'u bilig» asarida so'zlarni to'g'ri qo'llash haqida: «Bilib so'zlsa, so'z bilig sanalur» deb yozadi. Qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida esa quyidagilarni bayon qiladi: «So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla. Tuman (ming) tugunini shu bir so'z bilan yech. Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqyealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan, yetkazishdan iborat». Shunday ekan, nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiylikiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XP-XSh) ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

O'quv so'zla so'zni eva so'zlama, So'zning kizla, kedin, boshing kizlama.

(So'zni o'qib so'zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so'zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma).

O'rta Osiyo notiqlikining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avvalo o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san'ati ustalarining nadimlar, qissago'ylar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini to'g'ri anglovchi sog'lom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to'g'ri tushunib kelganlar.

Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. O'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan buyuk shoir Alisher Navoiy turkiy tilda ham badiiy barkamol asarlar yaratish mumkinligi namoyish qildi. Shoir o'zining «Muhokamatul lug'atayn» asarida

har bir tilning ijobiy va salbiy tomonlari borligini eslatib o'tdi. A.Navoiyning «*Muhokamatul lug'atayn*», «*Mahbubul qulub*», «*Nazmul javohir*» asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga, bu tilning yuksalishiga ham katta hissa bo'lib qo'shildi.

Alisher Navoiy to'g'ri, lo'nda, mantiqli, aniq va ta'sirli nutq haqida o'zining «*Arbain*» asarida, shuningdek, «*Xamsa*» asaridagi besh dostonning har birida ham ajoyib fikrlarni aytib o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek nutqi madaniyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimdan bu sohaga «Nutq odobi» nomi ostida keng e'tibor berildi. Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli g'apirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamachilikni qoralash va boshqalar haqida fikr yuritildi.

Nutq madaniyati yoki nutq odobi hodisasini ushbu tushunchaning ilmiy muammo sifatida o'rta qo'yilishi bilan aralashmaslik lozim. Bu sohaning ilmiy muammo sifatida o'rta qo'yilishi va uning o'z o'rganish ob'ektiga ega bo'lgan alohida ta'limot sifatida shakllanishi alohida masala hisoblanadi.

Nutq madaniyati muammosining paydo bo'lishi o'zining dastlabki davrida 2 lingvistik maktab bilan aloqador. Bular: Rus tilshunosligi maktabi. 2. Praga lingvistik maktabi.

Rus tilshunosligida nutq madaniyati sohasining ilmiy muammo sifatida asoslanishi G.O.Vinokur nomi bilan bog'liq. G.O.Vinokur asarlarida til madaniyati tushunchasining mohiyati, til madaniyatining adabiy tilga munosabati, «nutq didi», til madaniyatiga erishishning usullari, «til siyosati» kabi masalalarni tahlil qilishga urindi. Uning ta'limoticha, «bizning nutqimiz ma'lum qoidalar asosida so'zlanmog'i kerak. Bunday nutq madaniy intilishlar evaziga erishiluvchi turtki- choralarga muhtojdir».¹

Praga lingvistik to'garagi tilshunoslikda birinchi bo'lib adabiy tilni me'yorlashtirish masalasiga ilmiy yondashuvni shakllantirdi.² Bu to'garak adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. To'garakning bu masalaga oid qarashlari 1929 yili e'lon qilingan «Praga lingvistik to'garagi tezislari» ilmiy dasturida asoslab berildi. To'garak adabiy til me'yorini belgilashning quyidagi 3 tamoyilini ishlab chiqdi: 1. Adabiy til me'yorini belgilashda tilning hozirgi holati hisobga olinishi kerak. 2. Adabiy til me'yorini belgilashda ziyolilar ommasining til malakasi ko'zda tutilmog'i kerak. 3. Mahalliy kolorit va argotizmlarni nazardan soqit qilgan holda og'zaki til amaliyoti ko'zda tutilgani ma'qul.³ Xullas, Praga lingvistik maktabi til madaniyati masalasini adabiy tilni me'yorlash bilan bog'liq holda izohladi.

O'zbek tilshunosligida esa nutq madaniyati masalasi 70-yillarning oxirlarida tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida maxsus o'rganila boshlandi. O'zbek tilshunos olimlaridan A. g'ulomov, B.O'rinboev, R. Qo'ng'urov, T. Qudratov, S. Inomxo'jaev, Yo. Tojiev, E.Begmatov, I. Ibrohimov, A. Ahmedov, A.Boboeva, M.Asomiddinova, B. Umurqulov, H. Jalilov, N.Hasanovalarning bu yo'nalishdagi ishlari o'zbek nutqi

¹ Винокур Г.О. Культура языка // Печать и революция. 1923. №5. –С.100-105.

² Каранг. Н.А.Кондратов. Пражская лингвистическая школа// Русский язык в школе. 1968. №2. –С.5-13.

³ Каранг. Тезисы пражского лингвистического кружка//Пражский лингвистический кружок. –М.: Прогресс. 1967. –С.395-396.

madaniyati masalalari bilan bog'liq muammolarning yechimiga muhim hissa bo'lib qushildi.

Hozirda «Nutq madaniyati» fani o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy sohasi sifatida o'quv dasturlaridan o'rin olgan. Bu fan tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda to'g'ri, aniq, mantiqli, ifodali nutq tuzish yo'llarini o'rganadi.

«Nutq madaniyati» kursi adabiy til me'yorlari, nutq, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq uslublari, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

«Nutq madaniyati» kursi fan sifatida o'z tekshirish ob'ekti, maqsad va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlari va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli) fazilatlaridir. Nutq madaniyatining asosiy tekshirish ob'ekti adabiy til me'yorlari, asosiy vazifasi esa ushbu me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etishdir.

«Nutq madaniyati» fani adabiy til me'yorlarini, uning taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi unsurlarning eskirishi, ular o'rnida yangi me'yoriy unsurlarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy me'yorlarni yaratmaydi, ba'zi hodisalarni me'yor sifatida majburan kiritmaydi, balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, ob'ektiv qonunlarni kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi.

«Nutq madaniyati» to'g'risida so'zlashdan oldin, nutqning o'zi nima, u tildan qanday farqlanadi, til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalari nimani anglatadi degan savollarga javob topishimiz kerak.

Til va nutq bir - biriga bog'liq hodisalardir. Til nutq uchun moddiy material, bu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo'ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud bo'lib, so'zning kishilar xotirasidagi obrazlari ruhiy material, nutq yaratish jarayonida qo'llaniladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy material hisoblanadi. Tilning ruhiy hodisa ekanligi uning ongda saqlanishi bo'lsa, moddiy hodisaligi undagi til vositalari orqali belgilanadi.

Nutq - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq harakatdagi til bo'lib, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi va so'z shakllari, so'z birikmalar va gaplardan tashkil topadi.

Nutq madaniyati, madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalq tillarida qadimdan mavjud hodisadir. Bu tushuncha ma'lum lingvistik me'yorlar, etikaviy va estetikaviy talablar bilan aloqador bo'lgan tushuncha hisoblanadi.

Hozirda nutq madaniyati atamasi bilan yuritiladigan hodisa va ilmiy muammo ancha keng mazmunga ega. Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me'yorlashga qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko'tarish, odamlarga ma'lum «til didi»ni («языковoy vkus») tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati atamasi hozirgi zamon tilshunoslik talqinida uch xil hodisaning nomi sifatida qo'llanmoqda. Bular: 1) madaniy nutqning, ya'ni nutqiy hodisaning nomi; 2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi

ilmiy muammoning nomi; 3) nutq madaniyati muammosini o'rganish bilan maxsus shug'ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo'limining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har birini bir-biri bilan qorishtirib yubormaslik lozim.

Nutq madaniyati tushunchasini tushunish va ta'riflashda tilshunoslikda quyidagi qarashlar ko'zga tashlanadi:

1. Nutq madaniyati- adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biri. (Praga lingvistik maktabi).

2. Nutq madaniyati (til madaniyati) – bu adabiy til me'yorlarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir. (Praga lingvistik maktabi).

3. Nutq madaniyati tilni ravshan, ifodali tuza olish mahoratidir. (A.Gurevich)

4. Nutq madaniyati kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir. (B.N.Golovin)

5. Nutq madaniyati faqat to'g'ri nutqgina emas, balki nutqiy chechanlik hamdir. (G.O.Vinokur)

6. Nutq madaniyati til vositalaridan o'rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir. (A.N.yefimov)

7. Nutq madaniyati bu avvalo fikrlash madaniyatidir. (D.E.Rozental)

8. Milliy, o'ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir. (M.Agafanova).

Ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati - tilni, aloqa-aralashuv qurolini, ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob quroldan foydalanishga bo'lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, nutq madaniyati ham yuqori saviyada bo'ladi, aks holda, nutq madaniyati ham past saviyada bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimda qaerda shakllangan?

2.Sharqda nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullangan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?

3.Tilshunoslikda nutq madaniyati tushunchasi qachon ilmiy muammo sifatida asoslab berildi?

4.Rus tilshunoslik maktabida nutq madaniyati masalalariga oid qanday ishlar amalga oshirildi?

5.Tilshunoslik ilmida Praga lingvistik to'garagining xizmatlari nima bilan belgilanadi?

6.«Nutq madaniyati» kursini o'qitishdan maqsad nima?

7.Nutq madaniyati tushunchasi nimani anglatadi?

8.Til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalari qanday farqlanadi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – Toshkent: Navro‘z, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
4. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: Adolat, 2004.
11. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
12. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho‘lpon, 2012.
15. Jumaxo‘ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.
16. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B. 224.
17. Tojiev Yo., Mallaboev M.. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.
18. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
19. Rahmatullaev Sh.. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. –B. 53.
20. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: Universitet, 1996, 39- b.
21. Inomxo‘jaev S. O‘tmish sharq notiqligi. – Toshkent: Bilim, 1972.
22. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet ma'lumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.thinsan.com
25. www.uforum.uz
26. www.literature.uz

2-mavzu: Nutq madaniyati va notiqlik san'ati: tarixi va buguni

Reja

1. Afinada notiqlik san'atining rivoj topishi.
2. Gorgiy va Litsiyning notiqlik faoliyati.
3. Aristotelning notiqlik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.
4. Sezar va Sitseronning ilhombaxsh nutqlari.

Tayanch tushunchalar

sud notiqligi, ritorika, nutq madaniyati, notiqlik san'ati, poetika, logografiya, psixologiya, da'vogar, ritor, logograf, va'z va voizlik

Ma'lumki, jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim jihatlari xalq nutqi madaniyati hamda notiqlik san'atiga borib taqaladi. Shunday ekan, ushbu ma'ruzamida dastlabki o'rinda madaniy nutqning va notiqlik san'atining shakllanish tarixini o'rganishga bel bog'ladik. Buning uchun qadimgi madaniyat va sivilizatsiya o'choqlaridan bo'lgan Yunoniston hamda Rimdagi notiqlik tarixiga murojaat qildik. Chunki notiqlikning nazariy asoslari ham aynan mana shu mamlakatlar nomi bilan bog'liq.

Qadim zamonlardan beri jamoat oldida so'zga chiqib, odamlarga o'z fikrini tushuntirish, ular ongiga ta'sir etib, o'z ortidan ergashtirish, biror narsa, voqeya, hodisa haqida gapirganda ishontirish va isbotlab berishga intilish, insonlar orasidan so'zamol notiqlarning chiqishiga zarurat tug'dirgan hamda notiqlik san'atining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Buning uchun esa, avvalo, ma'lum ijtimoiy sharoit va muhit bo'lishi zarur edi. Qadimgi Yunonistonda demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida xalq yig'inlarida, davlat ishlarida mamlakatning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan. Davlat ishlarini boshqarish va lashkarboshilikni xohlagan har bir shaxs uchun chiroyli va ta'sirchan nutq so'zlash san'atini egallash majburiy bir ehtiyojga aylangan. Ular orasidan so'zga chechanlari xalqni ishontira olganlar va obro'-martaba orttirganlar. Shu tariqa qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik san'ati degan alohida bir ilmiy-nazariy yo'nalish paydo bo'lgan⁴.

Afinada notiqlik san'atining keng rivoj topishiga sud-tartibot qoidalarining ham ta'siri kuchli bo'lgan. O'sha davr sud majlislarida sudlanuvchi yoki davogar o'z fikrlarini ishonarli tarzda asoslab berishi uchun to'g'ri va ravon gapira olishi lozim bo'lgan. Biroq har bir sudlanayotgan yoki guvohlik berayotgan shaxs ham notiqlik mahoratiga ega bo'lavermagan. Shuning uchun oddiy xalqda ularga maslahat berib ko'maklashadigan, yo'l-yo'riq ko'rsatadigan, fikrlarini to'g'rilab qog'ozga tushirib bera oladigan zukko va bilimdon shaxslarga ehtiyoj paydo bo'lgan. Natijada qadimgi yunon tilida "logograf"lar deb ataladigan, tajribali, qonunni yaxshi biladigan dastlabki notiq-advokatlar vujudga kelgan. Logograflar sudda qatnashayotgan ayblanuvchi va da'vogarlarga nimani gapirish lozimligini yozib berganlar va mehnatlari evaziga haq olganlar. Logografiyaning tirikchilik vositasiga

⁴Нотиклик санъати хакида тўларок маълумот олиш учун қаранг: Жалолов Х, Нотиклик санъати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979; Иномхўжаев С. Нотиклик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982; Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиклик маҳорати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984 ва б.

aylanishi notiqlik san'atining rivojida muhim rol o'ynaydi. Dastlab siyosiy va sud notiqligi yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik buning zamirida notiqlik san'ati va, tabiiyki, ulug' zotlarni, yashab turgan maskanini madh etuvchi notiqalar maydonga keldi.

Bu san'atni ilk bor adabiy janr darajasiga ko'targan hamda notiqlikka ilmiy yondashgan kishilar sofistlar hisoblangan. Ular notiqlik mahoratiga ega bo'lganlarning " ritor " deb atashgan. Ritorlar davralarda voizlik qilishdan tashqari, o'quvchilarga notiqlik yo'l-yo'riqlari bo'yicha saboq ham berganlar.

Sitsiliya oroli ritorikaning asl vatani hisoblanadi. U joylarda V asr o'rtalariga kelib demokratiyaning yo'lga qo'yilishi, notiqlikning taraqqiyoti uchun omil bo'ldi. Bu yerda Gorgiy ismi bilan tanilgan sofist taxminan 427 yilda o'z shahri Leontina uchun harbiy yordam so'rab maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida so'zlagan nutqi bilan Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi. Shundan keyin davlat rahbarlari taklifi bilan Gorgiy Afinaga butunlay ko'chib keladi va shu yerda Ritorika maktabi ochadi. U o'z shogirdlariga so'z san'ati va boshqa fanlarni o'rgatish bilan birga voizlik bilan ham shug'ullanadi. Gorgiy asosan mifologik ma'ruzalarda tantanali nutq so'zlagan, uning nomi ostida bizga qadar "yelena" va "Palimed" sarlavhali ikkita yozma asar yetib kelgan⁵. Gorgiyning e'tirof etishicha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishonтира olish, uni maftun etish va o'ziga nisbatan iliq munosabat tug'dirishdan iborat. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi va shu maqsad bilan o'z asarlarida go'zal uslub namunalarini namoyish qiladi. Darhaqiqat, notiqning bizga qadar yetib kelgan asarlarida tantanali epitetlar (jonlantirish), metaforalar (o'xshatish), majoziy ifodalar nihoyatda ko'p uchraydi. Shuning uchun bo'lsa kerak qadimgi yunonlar Gorgiyning usulini "jimjimador uslub" deb ataganlar.

Qadimgi Yunonistonning mashhur logograflaridan yana biri miloddan avvalgi taxminan 459-380 yillarda yashab ijod etgan Litsiy sanaladi. Litsiy logograflik kasbi davomida unga ishi tushib kelgan kishilarning hojatini bitirishdan oldin, ularning dunyoqarashini, psixologiyasini o'rgangan. O'sha paytlarda Afina sudida ishtirok etuvchi kishilarning ko'p qismi savodsiz, omi bo'lgan., til va qonunlardagi murakkabliklarni tushunib yetmaganlar. Shu saba,li so'zga chechan kishilarning sudni aldab ketishlaridan cho'chishib, ilmoqdor va balandparvoz gaplarga gumonsirab qaraganlar. Ammo Litsiy logograflikda mohirlik kursisini egallagan notiqlardan biri bo'lganligi sababli, buyurtmachilar orasida o'ziga bino qo'ygan shaxsmi, tiyinni-tiyinga urib sotaman degan hasis olibsotarmi, xotining izmidan yuradigan laqma ermi, yoki shallaqi ayolmi, ayyormi, maqtanchoqmi yoxud sodda omi insonmi, kim bo'lishidan qat'i nazar – Litsiy ularning har birining zarakter xususiyatiga, tabiatiga, bilimi va jamiyatdagi mavqeiga mos keladigan nutqlari bilan tinglovchilarni ishotira oladigan uslubni topadi. Litsiydagi bu mahorat, ya'ni har kimni o'z tabiatiga mos ravishda gapirtira olish yunon tarixida o'tgan logograflarning birontasida uchramaydigan hodisa. Litsiy tomonidan bitilgan har bir nutq sud minbaridan turib gapiriladigan oddiy safsata emas, balki mohir notiq qalamiga mansub bir asar sifatida ahamiyatlidir. Uni ijro etayotgan odam go'yo sud

⁵ Бу тўғрида Интернетнинг [www//http.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru) сайтидан маълумот олиш мумкин.

minbari sahnasida rol ijro etayotgan aktyorni eslatib, tinglovchilar ongiga hikoyasini singdirib, ular qalbini junbushga keltiradi.

Yunonlarda notiqlik san'atining quloch yoyishi sud notiqligidan so'ng harbiy notiqlik va siyosiy notiqlik kabi turlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu tariqa chiroyli so'zlash san'ati asta-sekin rivojlanib borib, badiiy adabiyotning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Eng muhimi, notiqlik san'atining rivoji tragediya, komediya kabi janrlarning tug'ilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi hamda notiqlik nazariyasi bo'lmish Ritorikaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Qadimgi Yunoniston madaniyati xususida so'z yuritilar ekan, o'zining falsafa, mantiq, she'riyat va notiqlik san'atiga bag'ishlangan mashhur asarlari bilan butun dunyoga dovrug' tarqatgan olim Aristotelning nomini tilga olish o'rinlidir. Ma'lumki, Aristotel yashagan davrda (mil. av.384-322y.) Afinada chiroyli so'zlashga qiziqish kuchaygan edi. Natijada qator falsafiy-pedagogik maktablar bilan bir qatorda notiqlik maktablari ham ochilgan. Keyinchalik chiroyli so'zlash madaniyatiga bag'ishlangan qo'llanmalar yuzaga kela boshladi. Shunday asarlardan biri Aristotelning "Ritorika" asari edi. Buyuk olim uni mashhur "Poetika" asaridan so'ng, ya'ni miloddan avvalgi 330 yillarda, ya'ni Afinaga so'nggi marta kelganida yozgan edi. "Ritorika" uch kitobdan iborat bo'lib, asarning birinchi va ikkinchi kitoblari asosan chiroyli so'zlash, odamlarni mahv qilish va ishontirish uslublaridan iborat bo'lgan mulohazalardan tashkil topgan. Uchinchi ktobda esa nutq mantiqiga juda katta ahamiyat beriladi. Olimning fikricha, notiq tilidagi turli qorishmalar, ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffuz qilinishi, jumalarning mantiqan har xil tuzilishi so'zlovchining katta xatosidir. Har bir aytilgan noto'g'ri gap insonning boshiga yetishi mumkinligini qayd etadi.

Aristotel notiqlik san'atini 5 qismga ajratadi. Bular quyidagilardir:

1. Materialni kashf etish (qiziqarli matn topa bilish).
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi).
3. Materialni eslab qolish (o'zlashtirish).
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri ifodalash.
5. Materialni to'liq tasvirlash.
6. Materialni to'g'ri talaffuz qilish⁶.

Shunisi e'tiborliki, Aristotelning ushbu fikr-mulohazalari hozirgi kunga qadar ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Qadimgi yunon notiq va faylasuf olimlari orasida Rim yaqinidagi Arpina shahrida dunyoga kelgan Sitseron (mil.av.103-43) ham alohida o'rin tutadi. Otasi farzandiga yaxshi tarbiya berish maqsadida Rimga ko'chib o'tadi. Sitseron u yerda yunon murabbiylari qo'lida tahsil oladi. Bo'lajak notiq ayni vaqtda falsafa ilmi bilan ham shug'ullanadi. Lekin uni ko'proq notiqlik san'ati qiziqtiradi. Sitseron notiqlarning turli mimika va harakatlar bilan so'zlayotganliklarini ko'rib, notiq bo'lish uchun aktyorlikdan ham xabardor bo'lish kerak ekan, degan xulosaga keladi. Sitseronuzoq tayyorgarlikdan so'ng, 25 yoshida birinchi marotaba xalq odida nutq so'zlashga jur'at etadi. U dastlab fuqarolik, so'ngra jinoiy ish jarayoni bo'yicha nutq so'zlaydi. Biroq uning bu nutqi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi; davlat boshliqlari

⁶ Бу ҳақда қаранг: Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. – Тошкент: Шарк нашриёт-матбаа акционерлик компанияси бош таҳририяти, 2002. – Б. 520.

unga qarshi chiqishadi. Shundan so‘ng u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq bilim olishga kirishadi. Mashhur so‘z ustalaridan tajriba olish maqsadida, Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi. Sezar hukmronligi davrida Sitseron mashhur notiq va davlat siyosatchisi sifatida ulug‘ martabalarga erishadi. Notqlik sirlarini o‘rganib, Osiyo sayohatidan qaytgach u konsullik lavozimiga saylanadi. U sudlarda o‘zi yaratigan nutq uslublaridan foydalanib butun mahoratini ishga soladi. Ko‘p yillik tajribalari asosida Sitseron “Brut” hamda “Notiq” deb nomlangan asarlarini yaratadi. “Kimki jo‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqyealar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam so‘z san‘atining chinakam ustasi bo‘ladi”, deya qayd etadi u.

Sezar vafotidan so‘ng davlatni uning nabiasi Oktavian boshqaradi. U o‘z davlatini mustahkamlash maqsadmida Sitseronning Senat oldidagi mavqeyi va obro‘sidan foydalanmoqchi bo‘ladi. Biroq Sitseron Oktavianga ishonmaydi. Sitseronning dushmanlari yangi hukmdorni o‘zlariga og‘dirib olgach, undan buyuk notiqni qatl etishni talab qiladilar. Shunday qilib so‘z san‘atining mohir ustasi shafqatsiz jazoga hukm etiladi.

Sitseronni butun insoniyat oldida ulug‘lab, obro‘sini oshirgan narsa uning ajoyib, takrorlanmas nutqlari bo‘ladi. Uyg‘onish davrida Italiya, Fransiya va Olmoniyaning insonparvar olimlari Sitseronning ilhombaxsh nutqlarini sevib o‘rgandilar.

Rimda bir qancha vaqtgacha notqlik san‘ati rivojlanishdan to‘xtab qoldi. O‘rta asrlarga kelib esa notqlikning diniy va sxolastik tomonlari avj olib ketdi. O‘rta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab “universitet notiqligi” deb nomlangan yo‘nalish rivojlandi.

XVI asrda burjuaziyaning tug‘ilishi bilan yangi – insonparvarlik dunyoqarashi shakllana boshladi. Uning xarakterli xususiyatlaridan biri insonning kuch-quvvatiga, aql zakovatiga ishonch hamda antik dunyo madaniyatiga katta qiziqish uyg‘otish edi. Insonparvarlar xalq yaratgan madaniy boyliklarni ko‘z qorachig‘idek saqlashni targ‘ib qiladilar. Shuning uchun ham ko‘p vaqtlargacha “uyg‘onish” atamasi “gumanizm” atamasi bilan bab-barobar qo‘llanib keldi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Qadimgi Yunonistonda va Rimda notqlik qanday paydo bo‘lgan?
2. Afinada notqlik san‘atining keng rivoj topishiga sud-tartibot qoidalarining ta'siri haqida nimalari bilasiz?
3. Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimda qaerda shakllangan?
4. Logografiya tushunchasini izohlab bering.
5. Afinadagi notqlik maktablari haqida so‘zlab bering.
6. Aristotelning “Ritorika” asarida nutq madaniyati va notqlik san‘atiga doir qanday qimmatli fikrlar bildirilgan?
7. Aristotel notqlik malakasini qanday qismlarga ajratadi?
8. Sitseron notqlik va aktyorlik sohalari o‘rtasida qanday bog‘liqlikni aniqlaydi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – Toshkent: Navro'z, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: Adolat, 2004.
11. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
12. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho'lpon, 2012.
15. Jumaxo'ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.
16. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B. 224.
17. Tojiev Yo., Mallaboev M.. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.
18. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
19. Rahmatullaev Sh.. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. –B. 53.
20. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: Universitet, 1996, 39- b.
21. Inomxo'jaev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: Bilim, 1972.
22. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet ma'lumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.thinsan.com
25. www.uforum.uz
26. www.literature.uz

3-mavzu: Adabiy til normasi va madaniy nutq me'yorlari

Reja

1. Adabiy til me'yorlari haqida.
2. Leksik-semantik me'yor.
3. Fonetik, orfografik va orfoepik me'yor.
4. Aksentologik va grammatik me'yor.
5. Punktuation va uslubiy me'yor.

Tayanch tushunchalar

adabiy til me'yorlari: leksik-semantik me'yor, orfoepik me'yor, orfografik me'yor, fonetik me'yor, aksentologik me'yor, grammatik me'yor, so'z yasash me'yori, imloviy me'yor, uslubiy me'yor, punktuation me'yor, nutq me'yorlari va adabiy nutq mezonlari.

«Nutq madaniyati» tushunchasi to'g'risida gap borganda, ko'p hollarda, nutqda o'rinli va o'rinsiz so'zlarning qo'llanishi xususida bahs boradi. Til birligining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanganligini belgilashda ma'lum bir o'lchovga (mezonga) asoslaniladi. Mana shu o'lchov tilshunoslikda **adabiy til me'yori** deb yuritiladi.

Adabiy til me'yori, uning shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari nutq madaniyati sohasining tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Nutq madaniyati sohasining adabiy til me'yoriga munosabati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) nutq madaniyati adabiy me'yordagi o'zgarib, buzilib turuvchi, nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topadi, ularni bartaraf etishga intiladi;

b) nutq madaniyati adabiy til me'yorini doimiy rivojlanib, o'zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshiradi va til me'yori tizimidagi yangi holatlarni, o'zgarayotgan, o'zgargan holatlarni shuningdek, «o'lgan», iste'moldan chiqqan holatlarni hisobga oladi;

v) nutq madaniyati til me'yori tizimidagi qarama-qarshi holatlarni belgilaydi hamda uni tilning barcha yaruslari bo'yicha tekshiradi.

Nutq madaniyati adabiy me'yorni ma'lum maqsad asosida, ya'ni madaniy nutqning chegarasi va vositalarini aniqlash maqsadida o'rganadi. Shu sababli nutq madaniyati sohasi adabiy til va uning me'yoriy tizimini baholaydi va nazorat qiladi. Nutq madaniyati sohasi adabiy til rivojiga ongli aralashadi.

Adabiy tilni me'yorlashtirish haqida gapirishdan avval adabiy tilning o'zi nima degan savolga javob topish lozim bo'ladi.

Adabiy til haqida gap borganda, avvalo, adabiy til – xalq tilining, milliy tilning oliy shakli deyilgan ta'riflarga duch kelinadi. Darhaqiqat, adabiy til xalq tili negizida shakllanadi. Adabiy tilni yaratishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir.

Adabiy til ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy hayotning barcha sohalarida aloqa quroli darajasiga ko'tariladi. Adabiy til vazifasining kengayishi undagi til vositalarining rivoj topishini, imkoniyatlarining kengayishini taqozo qiladi.

Adabiy tilning lug'at tarkibi, grammatik tuzilishi muayyan qonun-qoidalarga bo'ysunadi, ular saralangan, ishlangan, me'yorlashtirilgan bo'ladi. Demak, adabiy til me'yorlashtirilgan til bo'lib, bu uning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Adabiy tilni me'yorlashtirish deganda tilning ko'pchilikka ma'qul bo'lgan ko'rinishlarini tavsiya etish va shu asosda tilning fonetik, orfoepik, orfografik, leksik, grammatik qonun-qoidalarini ishlab chiqish va ularni tartibga solish tushuniladi.

Ilmiy manbalarda adabiy tilni me'yorlashtirishning quyidagi shartlari qayd etiladi: a) tilning ifoda vositalari tanlanadi; b) umum tomonidan qabul qilinadi va mustahkamlanadi; v) qoidalashtiriladi, lug'at va grammatikalarda tavsiya etiladi; g) shu til vakillarining hammasi uchun majburiy hisoblanadi.⁷

Hozirgi kunda tilshunosligimizda o'zbek adabiy tilining me'yori quyidagicha tasniflanadi: 1. Leksik-semantik me'yor. 2. Orfoepik (talaffuz) me'yor. 3. Yozuv (grafik) me'yori. 4. Fonetik me'yor. 5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor. 6. Grammatik me'yor (morfologik va sintaktik). 7. So'z yasash me'yori. 8. Imloviy me'yor. 9. Punktuation me'yor. 10. Uslubiy me'yor.

Leksik-semantik me'yor. Bu me'yor so'z tanlash va uni nutqda o'rinli qo'llash qoidalarini bilan ish ko'radi. So'z qo'llash me'yoriga ko'ra umumxalq tilida mavjud bo'lgan lug'aviy birliklardan eng ma'quli me'yor sifatida tanlab olinadi hamda ulardan foydalanish tartibi belgilab beriladi.

Hozirgi kunda o'zbek adabiy tilining lug'aviy me'yori ancha tartibga solingan. Shunga qaramay, ba'zan nutqda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolar ham uchrab turadi. Masalan: *Mana, yo'l o'rtasida tovushqon ko'rib, Pomeshchikning ovchisi quvdi shu mahal.* (Zulfiya.)

Berilgan she'riy parchada qo'llangan *tovushqon* so'zi shevaga xos bo'lib, uning qo'llanishi leksik me'yorga xilof.

Ba'zan nutqda paronimlarni noto'g'ri qo'llash, (*archish-artish, o'tkazish-o'tkazish* kabilar) dubletlarning farqiga bormaslik (*poeziya-nazm, tolib-talaba*), sinonim so'zlarni o'z o'rnida qo'llamaslik (*aft- chehra-turq-oraz*) holatlari ham adabiy til leksik me'yoringa buzilishiga olib keladi.

Orfoepik me'yor. Orfoepik me'yor, ya'ni talaffuz me'yori til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til me'yoriga muvofiq kelishi masalasi bilan ish ko'radi. Adabiy tilning bu me'yori ishlab chiqilgan bo'lsa-da, orfoepik lug'atlar tuzilganligiga qaramay,⁸

nutqiy jarayonda hanuzgacha ayrim til birliklarining talaffuzida xatolik ko'zga tashlanadi. Masalan, ruscha yoki rus tili orqali o'zlashgan so'zlarning talaffuzidagi nomuvofiqliklar, so'zni yozilgandek talaffuz etish, qabul qilingan so'zni o'zbekcha aksent bilan talaffuz etish kabi masalalar bo'yicha kamchiliklar mavjud.

Yozuv (grafik) me'yori. Adabiy tilning grafik me'yori ayni til uchun tanlangan yozuv shakli bilan ish ko'radi, shu til uchun muayyan yozuv turini belgilab beradi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi o'z tarixi davomida turli yozuv shakllaridan foydalanib kelgan. Bular: arabcha-o'zbekcha, lotincha-o'zbekcha va kirillcha-o'zbekcha yozuvlardir. Adabiy tilning grafik me'yorida o'zbek tilida mana shu yozuv turlaridan qaysi birini qo'llash, yozuvda qanday qoidalarga rioya qilish masalasiga aniqlik kiritiladi.

⁷ Ё.Тожиёв ва бошқалар. Ўзбек нутки маданияти ва услубият асослари. –Тошкент. 1994. –Б. 98.

⁸ Содикова М., Усмонова Х. Ўзбек тилининг орфоэпик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи. 1977; Асомиддинова И., ва бошқалар. Ўзбек адабий талаффуз луғати. –Тошкент: Фан, 1984.

Fonetik me'yor. Fonetik me'yor deganda nutq tovushlarining qo'llanishi bilan bog'liq qonun-qoidalar majmui tushuniladi. Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tili uchun 6 ta unli, 25 ta undosh tovushning qo'llanishi me'yor hisoblanadi. Ammo yangi va amaldagi alifbodagi ayrim tovushlarning aks etishi bilan bog'liq nomuvofiqliklar fonetik me'yorning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Masalan: qorishiq va sirg'aluvchi j uchun bir harfning berilishi, ng tovushi uchun kirillcha alifboda harfning yo'qligi nutq madaniyatiga salbiy ko'rsatishi tayin.

Aksentologik me'yor. Aksentologik me'yor urg'uni to'g'ri qo'llash bilan bog'liq me'yordir. Adabiy tilning aksentologik me'yorida har bir so'zda urg'uning qo'llanish o'rni qat'iy tarzda belgilab beriladi.

Ma'lumki, so'zdagi urg'u ma'no farqlash xususiyatiga ega. Urg'u yordamida yozuvda farqlanmaydigan so'zlar o'zaro farqlanadi. Buni quyidagi so'zlar misolida ham kuzatish mumkin: *atlas-atlas, fizik-fizik, bosma-bosma, hozir-hozir*.

Anglashiladiki, urg'uning o'zgarishi so'z ma'nosining o'zgarishiga olib keladi. Shu sababli har bir so'zdagi urg'uni o'z o'rnida qo'llash maqsadga muvofiq.

Grammatik me'yor (morfologik va sintaktik me'yor). Grammatik me'yor morfologik va sintaktik me'yornlarni qamrab oladi. Adabiy tilning bu me'yori so'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalari va gapning qurilish me'yori bilan ish ko'radi.

O'zbek tilida morfologik me'yor asosida qo'shimchalarning turlovchi, tuslovchi va so'z yasovchi turlari qabul qilingan. Biroq nutqda qo'shimchalar bilan bog'liq me'yorga har doim ham amal qilinavermaydi. Ko'p hollarda *-ning* va *-ni*, *-ga* va *-da* kelishik qo'shimchalarini qo'llashda yoki *-li* va *-lik* qo'shimchalarini farqlashda, *-kaz* va *-qaz* qo'shimchalarining qo'llanishida xatolikka yo'l qo'yiladi. Bunday holat ba'zan sintaktik sath birliklarining qo'llanishida ham kuzatiladi. Masalan: *Otadek farzandiga kim kuyar axir, O naqadar og'ir farzandning dog'i.* (Shukrullo.)

Berilgan gapda so'zlar tartibiga rioya qilinmaganligi, ya'ni *otadek* va *farzandiga* so'zlarining noto'g'ri o'rinlashuvi sintaktik me'yorning buzilishiga olib kelgan.⁹

So'z yasash me'yori. Bu me'yor tilda yangi so'z yasash usullarini belgilab beradi, so'z yasash qonuniyatlarini tekshiradi.

Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi yangi so'z yasash hisobiga ham boyib boradi. So'z yasash o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi. Har bir tilda so'z yasashning o'z ichki qonuniyatlari mavjud. O'zbek tilida ham so'z yasashning o'ziga xos usullari (fonetik, semantik, leksik, morfologik, sintaktik, kompozitsiya usullar) bo'lib, so'z yasashda ularga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Imloviy me'yor. Imloviy me'yor yozma nutqning madaniylik darajasini belgilovchi muhim omildir. Bu me'yor til birliklarini to'g'ri yozish qonun-qoidalariga asoslanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ikki yozuv turiga asoslangan imlo qoidalari bilan ish ko'rilmoqda. Bular: 1. Kirillcha-o'zbekcha yozuvga asoslangan imlo qoidasi.¹⁰ Bu qoida 1956 yil 4 aprelda tasdiqlangan bo'lib, 72 paragrafdan iborat qonun-qoidalarni qamrab oladi. 2. Lotincha -o'zbekcha yozuvga asoslangan imlo qoidasi.¹¹ Bu qoida 1995 yil 24 avgustda tasdiqlangan, unda 82 ta imlo qoidasi berilgan.

⁹ Бу ҳақда қаранг. Ф.Исҳоқов. Эътиқодимиз ҳам бор, эътирозимиз ҳам //Нутқ маданиятига оид масалалар тўплами. –Тошкент: Фан, 1973. –Б. 112-119.

¹⁰ Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. –Тошкент: Фан, 1956.

¹¹ Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

Har ikki imlo qoidalari ham hozirgi kunda amalda bo'lib, imloviy me'yorlarni tartibga keltirishga, uni mukammallashtirishga xizmat qilmoqda.

Punktuatsion me'yor. Bu me'yor yozma nutqqa xos bo'lib, yozuvda tinish belgilarining qo'llanish qoidalarini belgilab beradi.

Ma'lumki, tinish belgilari yozma nutqning aniq, ifodali, to'g'ri tuzilishiga yordam beradi. Tinish belgilarining noto'g'ri qo'llanishi nafaqat jumlaning sintaktik tuzilishiga, balki uning mazmuniga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yozma nutqning maqsadga muvofiq tarzda tuzilishida tinish belgilari muhim ahamiyatga ega. Qiyoslang: *Yigitlar, yetib kelishdi // Yigitlar yetib kelishdi.*

Birinchi holatda *yigitlar* so'zidan so'ng vergulning qo'yilishi natijasida bu so'z undalmaga aylanib, gap bir tarkibli murakkablashgan sodda gap shakliga ega bo'ladi. Agar gapdan vergul olib tashlansa, *yigitlar* so'zi ega vazifasida qo'llanadi hamda gap ikki tarkibli sodda gap tuzilishiga ega bo'ladi.

Uslubiy me'yor. Adabiy tilning uslubiy me'yori nutq vaziyati, so'zlovchining kommunikativ niyati asosida til birliklaridan eng ma'qulini qo'llash zaruratidan vujudga keladi. Uslubiy me'yorlar quyidagilarga asoslanadi: a) tavsiya etilgan til birliklari hamma uchun yagona va mushtarak bo'lishi lozim; b) til birliklari uzoq vaqt barqaror qo'llanib kelingan hamda tilning hamma sohaları bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak.

Anglashiladiki, uslubiy me'yorni til birliklarini ishlatishdan ko'zda tutilgan maqsad va nutq vaziyati belgilab beradi.

Uslubiy me'yor nutq ko'rinishlarini belgilashda ham ahamiyatli. Nutqning turli-tuman vazifaviy uslublarida (ilmiy, so'zlashuv, publitsistik, badiiy, rasmiy) til birliklarining o'ziga xos tarzda qo'llanishi ularda uslubiy me'yorning amal qilishini ko'rsatadi.

Nutqda ko'pincha til birliklarining, xususan, so'zning noo'rin takror qo'llanishi yoki noaniq ishlatish uslubiy me'yorning buzilishiga olib keladi. Masalan, «*Otning jilovini siltab, tezlashni qistadi*» (M.Hakim. «Uchrashuv») gapi noaniq tarzda ishlatilgan. Bu gapning o'rnida «*Otni jadallatdi*» jumlasining qo'llanishi so'zlovchining ifodadagi maqsadini aniqroq tushunishga yordam beradi.

Xullas, adabiy til me'yorlari ayni tilning hamma uchun mushtarak, yagona ekanligini, uning umumga tushunarli bo'lishini ta'minlovchi bosh mezon hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Adabiy til me'yori qanday o'lchovlarga asoslanadi?
2. Nutqiy malakaga qanday erishish mumkin?
3. Nutq uslublari, asosan, necha ko'rinishga ega?
4. Nutq uslublari o'zaro qanday farqlanadi?
5. Adabiy nutq me'yorlari deganda nimani tushunasiz?
6. Grammatik me'yorlar buzilganda, nutq qanday ko'rinishga ega bo'ladi?
7. Nutqdagi fonetik me'yorlar nimalardan iborat?
8. Leksik-semantik me'yorning buzilishiga misollar keltiring.
9. Nutqda aksentologik me'yorga amal qilish qanday ahamiyat kasb etadi?
10. Uslubiy me'yorlar nimalarga asoslanadi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – Toshkent: Navro'z, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: Adolat, 2004.
11. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
12. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho'lpon, 2012.
15. Jumaxo'ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.
16. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B. 224.
17. Tojiev Yo., Mallaboev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.
18. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
19. Rahmatullaev Sh.. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. –B. 53.
20. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: Universitet, 1996, 39- b.
21. Inomxo'jaev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: Bilim, 1972.
22. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet ma'lumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.thinsan.com
25. www.uforum.uz
26. www.literature.uz

4-mavzu: NUTQ USLUBLARI

Reja

1. Uslubiyat va nutq madaniyati masalalari.
2. Morfologik uslubiyat va nutq madaniyati.
3. Sintaktik uslubiyat va nutq madaniyati.
4. Nutqni ifodalashda uslubiyatning o'rnini.

Tayanch tushunchalar:

uslubshunoslik, adabiy til uslubi, qo'shimcha, pleonastik shakl, ta'sirchanlik, ekspressivlik, morfologik uslubiyat, sintaktik uslubiyat

Kishilarning til birliklaridan ya'ni fonetik, grammatik, lug'aviy va fozologik vositalardan foydalanishda doimo o'ziga xoslik mavjud bo'lib bu narsa so'zlovchining o'ziga xos uslubini keltirib chiqaradi.

Stil – ya'niy uslub atamasi juda qadim zamonlardan buyon ishlatilib kelinayotgan bo'lib u turli davrlarda turli sohalaeda turlicha tushunildi va izohlandi. Til uslublarining harakatga olinishi, aniq amalgam oshirilishi nutq uslubi deb yuritiladi. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqining harakteri nutqning qanday muhitda, qanday maqsadga bajarilayotganligi bog'liq. Albatta bunday holatda ham tinglovchilarga fikr tushunarli buladi. Chunki u oldin aytilgan fikrlarning mantiliy davomi buladi. Masalan, qorami? Ko'kmi? tipidagi bir paytda birgalikda beriladigan savolni ikki sharoitda olib kuraylik. Agar biz uni uy bekasi tilidan eshitsak, sora noy damlay-mi? yoki kuk noy damlaymi? degan ma'noda tushunishimiz mumkin. Xuddi shu savollarni birgalikda magazin sotuvchisy tilidan eshitsak, sora noy olasizmi? yoki kuk noy sotib olasimisiz? ma'nosida tushunishimiz ham mumkin.

Ikkinchidai, so'zlashuv nutqida til birliklari uzining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi. Masalan, ulgurmaymiz deyishdan kura ulgurib bupmiz, ulgurmots sayotsda, ulgurib buldik kabi javob qaytarish birmuncha tabiiy va ekspressiv bo'lib chiqadi.

Uchinchidan, bu uslubda ohangning ahamiyati nihoyatda kattadir. Nutriy ohang ogzaki nutqning amalga oshuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita bulib, nuh- ning tezligi pauza, ton, melodiya, tovush tembri, mantiliy urgu va suz urgusi kabi intonatsiyaning kurinishlari ma'noni farqlashda, uning qirralarini ajratib kursatishda, qaya- jonni kuchaytirishda katta xizmat qiladi.

So'zlashuv uslubi fonetik, leksik, grammatik uziga xosliklarga ham ega.

Nutqda tovushlarning uygunlashuvi (assimilyasiya), bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (dissimilyasiya), tovushlarning o'rnini almashishi (metateza), tovushlarning orttirilishi (proteza, epenteza, epiteza) yoki tushirilib qoldirilishi (prokopa, sinkopa, apakopa, reduksiya) kabi fonetik hodisalar eng avvalo suzlashuv usulida namoyon buladi. Ularga ayrim misollar keltirish bilan chegaralanamiz: assimilyasiya — ketti, ottan, yigichcha; assimilyasiya — zaril, bironta; metateza — turpots, aynalmots; proteza — uramol, u raza; epenteza — fikir, dakalad; epiteza — kioska, otpuska, banka; prokopa — agach, irik; sinkopa — direktir, tiraktir; apakopa — gazet, reduksiya — burni, egni kabilar.

Barcha vazifaviy uslublar uchun umumiy bo'lgan adabiy xolis lug'aviy qatlam so'zlashuv nutqi uchun ham xosdir. Shu bilan birga, suzlashuv uslubi lugaviy qatlamiga davdat Filipisa, unda ikki qatlam, ayniqsa, kuzga tashlanib turadi. Birinchi qatlam — bu kundalik turmush muomalasida faol qatlaniladigan, uy-ruzgor buyumlari bilan bog'liq suzlar. Bundan taphari «... siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika kuplab ishlatiladi».

Ammo pijama, xalat, kaltacha, mastava, sirgi, rapida, mizg'ib olmoq, qatqlamoq kabi so'z va iboralar ham borki, ularda og'zaki nutqda xos buyoq sezilib turadi. Bu buyoq kontekstual shartlangan uslubiy buyovdir. Ikkinchi qatlam ekspressiv buyovda ega bulgan og'zaki so'zlashuvga xos so'zlardir. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: kichkina (bolagina) yiqildi (yig'ladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (yig'loqi) kabi.

Bu uslub o'ziga xos frazeologizmlar, ideomatizmlarga ham boy: burnini kutarmots, burnining tagidagi narsani kurmaslik, kuzini yor bosmoq, sulii kaltalik silmots kabi.

So'zlashuv uslubining yana bir xususiyati shundaki, unda ikki yoki uch so'zdan tashkil topgan nomlar birgina so'z bilan, hatto ba'zan birgina bugin bilan almashtiriladi, ayrim holatlarda qo'shimchalar tushirilib qoldiriladi. Masalan: Abdurahmon — Rahmon yoki Abdi, Alibek — Bek, zachet knijkasi — zachetka, Zulayho — Zuli, Tamara—Tamar kabi.

So'zlarni metonimik qo'llash va bu stilda keng tarqalgan: auditoriyadagi odamlar kuldi deyish o'rniga auditoriya kuldi, bugun bizda ilmiy kengailning yigilishi buladi deyish o'rniga bugun bizda kengash deyiladi. Nutqiy sharoit uning tushunilmasligiga yo'l quymaydi. Umuman, so'zlashuv uslubida nutriy sharoitning ahamiyati katta. Chunki fikr ma'lum sharoitdagina so'zlovchi va tinglovchi tomonidan bir xil tushunilishi mumkin.

Ayrim morfologik kategoriya va shakllar faqat ma'lum bir uslub uchun xos bulib, shu uslubga xos uslubiy buyoha ega bulsa, boiha bir xillari ma'lum bir uslubda son jihatdan ko'p ishlatilganligi uchungina u uslubga xoslikni kursatuvchi belgi hisoblanadi. Ularda maxsus uslubiy buyoq bulmaydi. Ular faqat shu uslubda ko'proq ishlatiladi, xolos. So'zlashuv uslub uchun esa bu ikki xususiyat ham xarakterlidir. Masalan, sub'ektiv baho formalari, so'zlashuv va badiiy nutq stili uchun xos salom, alaykum, xayr, ha, yo'q, albatta, aha, ana kabi relyativlar deb ataluvchi maxsus suzlar guruhi garchi uslubiy buyog'i bo'lmasa ham, ular so'zlashuv uslubida ko'p ishlatiladi.

So'zlashuv nutqining sintaktik xususiyatlari uzbek tilshunosligida ancha durust ishlangan. Bu uslubning sintaktik xususiyati haqida gapirganda, faqat individual nutq uchun xarakterli bulmay, balki umuman til uchun tegishli bulgan turgun qoliplar asosida qurilgan qurilmalarni ham hisobga olish kerak. Suzlashuv nutqi uslubiga xos gaplarning tiplariga kelsak, bu nutqning o'ziga xos ekanligi yanada ochiq- oydin kurinib qoladi: bunda gapning xamma tuzilmalari bor, ular turlig yullar bilan reallashadi. Bopha ba'zi uslublarda esa, jumladan, yozma nuttsning kitobiy shaklida quril- malarini bu xil foydalanish xolati yo'q. Bir necha gaplarni olib qaraylik: asal, barmog'ingni tishlab olasan; ish, faqat tugmachani bossang bas; kechaday kecha, boladay bola kabi.

Kitobiy nutq uchun bog'lovchisiz qo'shma gaplar odatda xos emas, og'zaki suzlashuv nutqi uchun esa, aksincha, u xarakterlidir. Suzlashuv nutqidagi sodda gaplar kupincha fe'l bilan ifodalangan kesimining yo'qligi bilan xarakterlanadi. Hatto ba'zan shunday holatlar ham buladiki, bunday gaplarga fe'l-kesimni quyib ham bulmaydi. Masalan, biz siznikiga, baz magazinga; men, odatda, ishga avtobusda, ishdan piyoda kabi.

Rasmiy ish qogozlari uslubi. Rasmiy ish qorozlari uslubi hozirgi uzbek adabiy tilining ma'muriy va yuridik ishlarda amal qiladigan bir kurinishidir. Qonunlar matnlari, farmonlar, buyruq va qo'llanmalar, shartnomalar, ijozatnomalar, aktlar, har xil rasmiy hujjatlar, tashkilotlar urtasidagi yozishmalar, sudlardagi chiqishlar, yuridik xarakterdagi og'zaki axborotlar, ma'lumotnomalar rasmiy ish qorozlari uslubida yoziladi va gapiriladi.

Mazkur uslubning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Bu eng avvalo fikrni anik; ifoda qilinishi va ifodaning bir xil qolipda bayon etilishida kurinadi.

Rasmiy ish qozlari uslubi vazifaviy uslublar doirasidagi borcha uslublardan lug'aviy va grammatik xususiyatlari jihatdan farqlanadi.

Ushbu uslub leksikasi asosan kitobiy va xolis (neytral) suzlardan iborat bo'lishi bilan birga shu uslub buyogiga ega b'ulgan yutsorida kursatilganlar, quyidagi imzo chekuvchilar, yullanadi, qabul qilib oluvchi, mazkur kabi so'z va butun birikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Rasmiy ish qorozlari uslubi leksikasining yana bir xususiyati unda professional (yuridik, diplomatik, ma'muriy va boshqalar) terminologiyaning mavjudligidir: akt, guvotsnoma, qaror, hal qiluv qarori, bidirish. Bundan tashqari yozma nutqning ilmiy, ommabob va badiiy usublari ham o'ziga hos Grammatik xususiyatlarga ega.

Til birliklaridan har kim o'zicha foydalanib so'zlaydi. Bir tur so'zlar va tilga tegishli boshqa belgilar bir nutqda ishlatilgani holda boshqa nutqda uchramaydi. Boshqa nutq o'zining so'z boyligi va gaplarning qurilishi, ohangi bilan uchinchi bir nutqdan ajralib turadi. Til boyluklarini tanlab ishlatishga qarab nutq ko'rinishlari bir necha turga ajraladi. Ana shu xilma-xillik nutq usublari (stillari) deb ataladi. Uslubshunoslikka bag'ishlangan asarlarda nutqning quyidagi usublari ko'rsatiladi: 1. So'zlashuv uslubi. 2. Rasmiy uslub. 3. Ilmiy uslub. 4. Publitsistik uslub. 5. Badiiy uslub.

Har bir uslub o'ziga xos sistema bo'lib, boshqa usublardan ko'pgin belgilari bilan farq qiladi.

Grammatikaning morfologiya va sintaksis nomlari ostida ikki qismga ajratish holati grammatik uslubshunoslikda ham saqlanadi, ya'ni u morfologik uslubshunoslik hamda sintaktik uslubshunoslik kabi ikki ko'rinishda bo'ladi. Grammatika so'zning yoki sintaktik qurilmaning lug'aviy va grammatik ma'nolarini, fikriy jihatni o'rgansa, grammatik stilistika ularning qo'shimcha – ekspressiv ma'nolarini vazifaviy xususiyatlarini o'rganadi. Grammatika bilan uslubshunoslik birgalikda faqat grammatik shakllarning nimani ifodalashini emas, balki qanday ifodalashini ham tekshiradi.

Grammatik uslubshunoslikning qismi bo'lgan morfologik uslubshunoslik har bir grammatik shaklning, so'zlovchi, vositalar, shakllarning uslubini o'rganadi. Masalan: shu sababli-shu sababdan, talabalardan biri-otga mindi-otni mindi, savlatdor-basavlat

(sinonimiya). Yoki: toychoqchaginam, kichkinagina, to maktabgacha, o'n yillar o'tdi, 6 ta o'g'il-qizlarim bor. (imonastika-qo'sh).

Grammatik uslubshunoslikda ayrim grammatik shakllarning o'rnini almashtirib qo'llashning o'ziga xos tomonlari borligi keng o'rganilishi kerak. Adabiy normada har bir ko'rsatkichning o'zak negizlarga qo'shilishidagi o'rni qat'iy belgilangan. Ammo ma'lum bir uslubiy maqsadni ko'zda tutgan holda ularning o'rnini almashtirishi mumkin: Qalbimni sen ko'zimdanmi anglading (mi), Osmondagi bulutlarning xo'payishidanmi qo'rqdingiz (mi), Oybek; borlaring-boringlar, ketlaring-ketinglar, dadang uydalarmi-dadang uydamlar va hokazo. Yozuvchi bu shaklni o'ziga xos ekspressivlik hosil qiladi, ta'sirchanlikni oshiradi, nutqda poetiklik ato etadi.

Tilshunoslikda grammatik shakllar uslubshunoslikni o'rganish alohida ahamiyatga egadir. Grammatik shakllarni o'z o'rnida to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash, ulardan o'rinli foydalanish nutqimizning ta'sir kuchini oshiradi, uni har xil g'alizliklardan xalos etadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Uslubshunoslik haqidagi ma'lumot bering.
2. Grammatik va morfologik uslubiyatga misol keltiring.
3. Ekspressivlik nima?
4. Blenastika deganda nimani tushunasiz?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – Toshkent: Navro'z, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: Adolat, 2004.
11. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.

12. Rustamov A. Soʻz xususida soʻz. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Mahmudov N., Rafiev A., Yoʻldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Choʻlpon, 2012.
15. Jumaxoʻja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.
16. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B. 224.
17. Tojiev Yo., Mallaboev M.. Oʻzbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.
18. Oʻzbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
19. Rahmatullaev Sh.. Oʻzbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. –B. 53.
20. Nazarov K. Oʻzbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: Universitet, 1996, 39- b.
21. Inomxoʻjaev S. Oʻtmish sharq notiqligi. – Toshkent: Bilim, 1972.
22. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet maʼlumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.thinsan.com
25. www.uforum.uz
26. www.literature.uz

5-mavzu: NUTQNING TOʻGʻRILIGI VA ANIQLIGI

Reja:

1. Nutqning kommunikativ sifatlari.
2. Nutqning toʻgʻriligi.
3. Nutqning aniqligi.

Tayanch tushunchalar

Nutqning kommunikativ sifatlari, nutqning toʻgʻriligi, nutqning aniqligi

Har qanday nutq maʼlum bir soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan tinglovchi yoki oʻquvchiga qaratilgan matn koʻrinishidir. Bu nutq parchasi tinglovchiga muayyan taʼsir koʻrsatsagina unga nisbatan madaniy nutq deyish mumkin. Nutq har tomonlama madaniy boʻlishi uchun oʻz oldiga maʼlum talablarni qoʻyadi. Bu talablar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb yuritiladi. Ular nutqning toʻgʻriligi, aniqligi, mantiqiyliigi, taʼsirchanligi, tozaligi, oʻrinliliigi va maqsadga muvofiqligidir.

Nutqning toʻgʻriligi, yaʼni uning adabiy til meʼyorlari (talaffuz, soʻz yasalishi, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy meʼyorlar)ga qatʼiy mosligi madaniy nutqning asosiy, markaziy sifatidir. Ammo har qanday toʻgʻri nutq madaniy boʻlavermaydi, u mazkur boshqa kommunikativ sifatlarga ham eta boʻlgandagina chin maʼnodagi madaniy nutq maqomini olishi mumkin. Bu oʻrinda yirik rus tilshunosi S.I.Ojegovning quyidagi fikri diqqatga sazovor: “Yuksak nutq madaniyati — bu oʻz fikrlarini til vositalari orqali toʻgʻri, aniq va taʼsirchan qilib ifodalay olishdir. Toʻgʻri nutq deb hozirgi adabiy til meʼerlariga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytiladi. Til meʼyorlari – bu ijtimoiy-nutqiy amaliyot (badiiy adabiyot, oʻqimishli kishilar nutqi, sahna nutqi, radio

va sh.k.)da umum tomonidan qabul qilingan talaffuz, grammatika va soʻz qoʻllash qoidalaridir. Ammo yuksak nutq madaniyati faqatgina til meʼerlariga amal qilishdangina iborat emas. U ayni paytda oʻz fikrini ifodalashning nafaqat aniq vositasini, balki eng ommabop (yaʼni eng taʼsirchan) va joʻyali (yaʼni ayni vaziyat uchun eng muvofiq va, demakki, uslub nuqtai nazaridan oʻrniga tushgan) vositalarini ham topa olish mahoratini ham oʻz ichiga oladi”.

Nutqning toʻgʻriligi uning markaziy sifati boʻlsa-da, nutqiy madaniyatni mazkur sifatning bir oʻzi bilan taʼminlash aslo mumkin emas. Shubhasizki, har qanday toʻgʻri nutq ham aniq yoki joʻyali, sof yoki boy boʻlmaydi, umuman, yetarli taʼsirchanlik quvvatiga sohib boʻla olmaydi. Shuning uchun ham nutq madaniyati muammolarini tadqiq etish bilan shugʻullangan bir qator tilshunoslar nutq madaniyatining ikki bosqichini farqlash maqsadga muvofiqligini taʼkidlaydilar. Masalan, L.I.Skvorsov umumiy "nutq madaniyati" tushunchasini adabiy tilni egallash va undan foydalanishning ikki bosqichini ifodalovchi "nutqning toʻgʻriligi" va "nutq madaniyati" tarzida ikki qismga ajratish lozimligini taʼkidlarkan, ularga shunday izoh beradi: "Birinchi, quyi bosqich nutqning toʻgʻriligidir. Toʻgʻrilik haqida biz adabiy nutq va uning meʼyorlarini egallash jarayonida gapiramiz. Variantlarni nutqning toʻgʻriligi sathidagi baholash: toʻgʻri – notoʻgʻri, ruscha ifoda – ruscha boʻlmagan ifoda va sh.k. Nutqning toʻgʻriligi mohiyatan maktab taʼlimining predmetidir. Oʻrta maktab dasturi umumiy tarzda toʻgʻri nutq (koʻproq grammatika sohasida) malakasini shakllantirishni koʻzda tutadi.

Nutqning toʻgʻriligi uning adabiy til meʼerlariga toʻla mosligi sifatida talqin etilar ekan, bu meʼyorlarning ikki xilini farqlash oʻrinlidir. Tilshunoslikda adabiy til meʼyorlarining kuchli va kuchsiz tiplari ajratib koʻrsatiladi. Nutq madaniyatining birinchi bosqichida, yaʼni toʻgʻri nutq tuzish malakasini shakllantirishda asosiy diqqat-eʼtibor adabiy tilning kuchsiz meʼyorlariga qaratilishi maqsadga muvofiq, chunki nutq amaliyotida kuchli meʼyorlar deyarli buzilmaydi, kuchsiz meʼyorlar esa nutq tuzuvchining ikkilanishiga va demak, nutq toʻgʻriligining buzilishiga koʻproq yoʻl ochadi. Masalan, ega va kesimning shaxs va sonda moslashuvi kuchli sintaktik meʼyor boʻlib, u bolalikdanoq kishi ongidan mustahkam oʻrin olgan. Shuning uchun bu meʼyorni qoʻllashda biron kishi adashib, *Men kelding* shaklida jumla tuzmaydi. Qaratqich va tushum kelishiklarining qoʻllanishi bilan bogʻliq meʼyorlar esa kuchsiz meʼyorlarga misol boʻla oladi. Shuning uchun bu meʼyorlar chuqur oʻrgatilmasa, odam adashib, *-ning* oʻrnida *-ni* qoʻshimchasini ishlatib, *meni doʻstim* tarzida notoʻgʻri birikma tuzishi mumkin.

Adabiy til meʼyorlari, nutqning sifatlari, nutq madaniyati masalalari oʻzbek, rus va umuman, dunyo tilshunosligida ham amaliy, ham nazariy jihatdan yetmish-sakson yildan beri faol oʻrganib kelinadi.

«Toʻgʻrilik deganda, - deb yozadi V.G.Kostomarov, - nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning maʼlum paytda qabul qilingan meʼyoriga qatʼiy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy, lugʻaviy va grammatik meʼyorlarini egallashni tushunish lozim boʻladi».

Nutqning toʻgʻriligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Nutqning tuzilishi toʻgʻri boʻlmasa, uning mantiqiyiligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur yetadi.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga – aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'yish) va grammatik me'yorga qattiq amal qilish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, so'zdagi urg'uning ko'chishi ko'p hollarda ma'noning o'zgarishiga olib keladi. Urg'uga e'tibor bermaslik natijasida nutqdagi ifodalarning to'g'riligi buziladi. Bu holat *olma-olma, hozir-hozir, yigitcha-yigitcha, o'quvchimiz-o'quvchimiz, bog'lar-bog'lar, yangi-yangi* kabi qator so'zlarda urg'uning bir bo'g'indan ikkinchi bo'g'inga ko'chirilishi va nutqda bunga e'tibor bermaslik natijasida sodir bo'ladi.

Gap tarkibidagi muayyan bir so'zga tushadigan mantiqiy urg'uning ham ma'noni farqlashdagi xizmati katta. Mantiqiy urg'u ham gap mazmunining o'zgarishiga sababchi bo'la oladi.

Grammatik me'yorga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarni qo'shishda xatoga yo'l qo'ymaslik, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llash, ega va kesimning mosligiga rioya qilish, ikkinchi darajali bo'laklarni to'g'ri qo'llash, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlariga amal qilish kabilar tushuniladi. Muloqot jarayonida bunday grammatik me'yorlariga amal qilmaslik natijasida nutqning to'g'riligi buziladi.

Nutqning aniqligi deganda uning, undagi til birliklarining o'zi ifodalayotgan voqyelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishi tushuniladi.

Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. g'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblanganlar. Aristotel: Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi», - degan bo'lsa, Kaykovus: «Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang, qushga o'xshab qolasan...» deydi.

Aniqlik nutqning fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash qobiliyati bilan, nutq predmetining ma'nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar notiqning o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so'zlar tanlasa, uning nutqi aniq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutqning qanday zarur sifatlari mavjud?
2. Nutqning aniqligi deganda nimani tushunasiz?
3. Nutqning to'g'riligi qanday baholanadi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – Toshkent: Navro'z, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

5. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: Adolat, 2004.
11. A‘lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
12. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho‘lpon, 2012.
15. Jumaxo‘ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.
16. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B. 224.
17. Tojiev Yo., Mallaboev M.. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.
18. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
19. Rahmatullaev Sh.. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. –B. 53.
20. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: Universitet, 1996, 39- b.
21. Inomxo‘jaev S. O‘tmish sharq notiqligi. – Toshkent: Bilim, 1972.
22. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet ma‘lumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.thinsan.com
25. www.uforum.uz
26. www.literature.uz

6-mavzu: NUTQNING SOFLIGI, BOYLIGI VA IFODALILIGI

Reja:

1. Nutqning sofligi.
2. Nutqning boyligi.
3. Nutqning ifodaliligi.

Tayanch tushunchalar

nutq sofligi, nutq boyligi, nutq ifodaliligi

Nutqning sofligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, madaniy nutq o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilishi, turli til, g'ayri adabiy til unsurlaridan xoli bo'lishi kerak.

Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi lisoniy unsurlar, asosan, dialektizmlar va varvarizmlardir.

Dialektizm va varvarizmlar, jargon va argolar oddiy so'zlashuv nutqida, badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Badiiy adabiyot tilida dialektizm, varvarizm, jargon va argolar ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Muallif asar qahramonining qaeerlik ekanligiga ishora qilishda, uning xarakter-xususiyatini, dunyoqarashini ko'rsatishda dialektizm, varvarizm, jargon va argolarga murojaat qilishi zarur. Quyidagi badiiy nutq parchasiga e'tibor qarating: *Yoshulli, saning qizing bunda gapirilmagan. Ova, yoshulli. San, manglayi qara badkirdor, na sababdan mundoq yomon so'zlarni elga tarqatding?! (Mirmuhsin).*

Ushbu misolda dialektizmlar hududiy kaloritni berishga xizmat qilganligi sezilib turibdi. Quyidagi nutq ko'rinishida esa varvarizmlar – chet so'zlar xarakter yaratishda yozuvchiga ko'maklashgan: *Dubora yana bordi bir ishga shul, so'kib:-Net,- dedi, kelma, durrak, poshul!*

Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o'zlari sezmagan holda *demak, xo'sh, xo'p* kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolib, ularni parazit so'zlarga aylantirib qo'yishgan.

«Bir dokladchining bir soatli nutqida,-deb yozadi tilshunos olim A.Ahmedov – «o'rtoqlar» so'zi 101 marta, «ya'ni» so'zi 73 marta, «demak» so'zi 60 marta takrorlanganligini guvohi bo'lamiz. Qarang, bir soatlik nutqda 234 ta ortiqcha, «bekorchi» so'z ishlatilgan»¹²

Xullas, nutqning sofligi deganda adabiy tilga yot unsurlardan, ortiqcha qo'llanishlardan xoli nutq tushuniladi.

Nutqning boyligi notiqning til imkoniyatlaridan qay darajada foydalanganligi bilan aniqlanadi. Nutqda tilning rang-barang ifoda vositalari qanchalik ko'p aks etgan bo'lsa, bunday nutq boy nutq sanaladi.

Har bir nutq egasi o'z nutqiga e'tibor qaratsa, nutq tuzish mas'uliyatini his qilsa, nutqning boy bo'lishiga erishishi mumkin. Nutqqa e'tiborsizlik uni qashshoqlashtiradi.

Nutqda tilning ifoda vositalari me'yoridan ortiq qo'llansa ham, nutq bachkanalashadi. Aristotel ta'biri bilan aytganda, «munosib va ko'p ishlatilmagan ifoda kutilmagan, g'alati so'zlardan foydalanish orqali kelib chiqadi».¹³ Demak, boy nutqda ham tilning ifoda vositalari me'yorida ishlatilishi lozim.

Rus tilshunos olimi B.N.Golovin ta'biri bilan aytganda, «ta'sirchan nutq deb nutq qurilishining tinglovchi va o'quvchi e'tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga aytiladi, o'z navbatida shu xususiyatlarga ega bo'lgan nutq ta'sirchan sanaladi».

¹² Ахмедов А. Тил бойлиги. – Тошкент. 1968. 27-бет.

¹³ Бу ҳақда қаранг. Ё Тожиёв ва бошқалар. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. –Тошкент. 1994. –Б. 17.

Nutqning ta'sirchanligi tushunchasi, asosan, og'zaki nutqqa nisbatan qo'llanadi. Chunki nutqning ta'sirchanligini belgilashda bu nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi.

Har bir notiq nutqni tuzishda tinglovchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yoshi, kayfiyatigacha kuzatib borishi, o'z nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilayotganini nazorat qilishi lozim bo'ladi. Kasbiy bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish yaramaydi. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'laligicha tinglovchilarga yetkazishga harakat kilish vazifasi yuklatiladi.

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish notiqlar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tanishtirish lozim. Vaqtni hisobga olish notiqlik fazilatlaridandir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, tinglovchilar zerikmaydi.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhim, chunki, shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochiladi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqa yaxshilanadi. Notiq fikrini o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir shaxsiy munosabatini bildirsa, nutq yana ham ta'sirli bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror kabi badiiy tasvir vositalarining o'rni beqiyos.

Nutqning ta'sirchanligini oshirishda **ohang** ham muhim o'rin tutadi. Ohangning o'zgarishi nafaqat ta'sirchanlikni, ba'zan gap mazmunining o'zgarishiga ham sababchi bo'ladi. Quyidagi misollarni qiyoslang: 1. *Odam bo'l, otang kabi ahmoq bo'lma // Odam bo'l otang kabi, ahmoq bo'lma.* 2. *Mulla a'lam to'g'ri odam emas // Mulla a'lam to'g'ri, odam emas.*

Nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqollar, matallar, hikmatlar, so'z va iboralar, ayniqsa, frazeologizmlardan keng foydalanish zarur. Yozuvchi Abdulla Qahhor o'z hikoyalarining ko'pchiligida epigraf sifatida maqollarni keltirish orqali kitobxon diqqatini tortadi. Masalan: «*Osmon yiroq-yer qattiq*» («*Bemor*»); *Otning o'limi-itning bayrami* («*O'g'ri*») kabilar.

Xullas, har qanday nutq madaniy bo'lishi uchun u to'g'ri, aniq, mantiqiy, ta'sirchan, sof, o'rinli va maqsadga muvofiq bo'lishi lozim. Bu belgilarni o'zida jamlagan nutq namunali nutq hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutqning qanday kommunikativ sifatlari mavjud?
2. Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalar qaysilar?
3. Nutqning boyligini ta'minlovchi qanday vosita va omillarni bilasiz?
4. Nutqning ta'sirchanligini ta'minlovchi qanday til hodisalari mavjud.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – Toshkent: Navro'z, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: Adolat, 2004.
11. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
12. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho'lpon, 2012.
15. Jumaxo'ja N.A. Istiqloq va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.
16. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B. 224.
17. Tojiev Yo., Mallaboev M.. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.
18. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
19. Rahmatullaev Sh.. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. –B. 53.
20. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: Universitet, 1996, 39- b.
21. Inomxo'jaev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: Bilim, 1972.
22. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet ma'lumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.thinsan.com
25. www.uforum.uz
26. www.literature.uz

7-mavzu: NUTQNING JO‘YALILIGI, MANTIQUIYLIGI, QISQALIGI

Reja:

1. Nutqning jo‘yaliligi.
2. Nutqning mantiqiyligi.
3. Nutqning qisqaligi.

Tayanch tushunchalar

nutqning jo‘yaliligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning qisqaligi

Agar nutq o‘zida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsa-yu, har jihatdan jo‘yali, ya‘ni o‘z o‘rnida bo‘lmasa, u maqsad manziliga borib yetmaydi. Jo‘yalilik yo‘q joyda nutqning boylik, aniqlik, ifodalilik kabi muhim sifatlari- ning mohiyati yo‘qoladi.

Sharqning buyuk pandnomachisi Kaykovusning shunday o‘giti bor: “...Tilingni yaxsh hunar bila o‘rgatg‘il va muloyim so‘zdin boshqa narsani odat qilmag‘il. Nedinkim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyila ishlatg‘il. so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa. garchanl u xar nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon. nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so‘zlamag‘ilki, foydasizdur. Bunday befoyda so‘z ziyon keltirur va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: “So‘z bir nashadur, undan xumor paydo bo‘lur”.¹⁴

Xalqimiz donoligining bebaho boyligi, o‘zbek so‘zining ko‘rki bo‘lgan maqol va matallarda ham bu fikr qayta-qayta uqtirilgan: “So‘zga tushmagan so‘zni aytma, Sozga tushmagan g‘azalni”; “Jo‘yali so‘z jo‘yasin topar, Jo‘yasiz so‘z iyasin (egasin) topar”; “Jo‘yaga tuya ham cho‘kadi”; “O‘rinli so‘zga tuya cho‘kadi, O‘rinsiz so‘zga hamma so‘kadi”.

Notiq nutq tuzar ekan, kimningdir og‘ir kasalligi yoki vafoti haqidagi fikrni ifodalash uchun tuziladigan nutkda ortiqcha chiroylilik, jimjimadorlik, ko‘tarinkilik, tantanavorlik bo‘lmasligi lozim, aks holda nutq o‘rinli hisoblanmaydi.

Nutqning o‘rinliligi, aytish kerakki, nutqiy muloqotda muhim. Bu (“umestnost rechi”) rus tilshunosi B.N.Golovin tomonidan juda yaxshi tavsiflangan.¹⁵

O‘rinlilik til vositalarini shunday tanlash, aloqalantirish va bir- biri bilan bog‘lashki, buning natijasida nutq konkret mu- loqotning maqsadi va sharoitlariga tamomila javob bera- digan tarzda tarkib topadi. Ayni ta‘rifdan kelib chiqilsa, o‘rinli nutq ifodalanmoqchi bo‘lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va hissiy mazmuni, tinglovchi yoki o‘quvchilar tarkibining yosh, ijtimoiy, madaniy-ma‘rifiy va boshqa xususiyatlari, yozma yoki og‘zaki nutqning xabar berish, tarbiyaviy, estetik va shu kabi vazifalariga to‘la mos kelishi asosida yuzaga keladi.

O‘rinlilik sifatini o‘rganishda nutqning yozma va og‘zaki shakllarini farqlash lozim. Yozma va og‘zaki nutqning voqye bo‘lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko‘ra bu ikki nutq shaklining o‘ziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qoliplari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasi- da ham nutqning o‘rinliligiga putur yetishi mumkin.

Yozma nutkda ko‘p qo‘llanadigan, demakki, unga xoslangan *yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, yuqorida aytib o‘tilganidek, yuqorida ko‘rganimizdek; quyida ko‘rib*

¹⁴ Кайковус. Қобуснома. Тошкент: Мерос, 1992, 22-23-бетлар.

¹⁵ Головин Б.Н. Основы культуры речи. Москва: Высшая школа, 1988, С. 227.

o'tamiz, quyidagi guruhlarga bo'linadi, mazmuni quyidagicha shaklidagi bir qancha sintaktik qurilmalar mavjud. Albatga, ular faqat yozma nutqda o'rinli, lekin bu iboralar og'zaki nutq tarkibiga kirarkan, nutqning o'rinliliği tamoman buziladi.

Nutq tuzishda ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va hissiy-ruhiy mazmuni aniq tasavvur qilinmog'i va ana shularga uyg'un holatda til vositalari tanlanmog'i kerak. Mavzuga, mantiqiy va hissiy mazmunga muvofiq bo'lmagan har qanday til birligi, sintaktik struktura, intonatsiya, hatto metafora, metonimiya, epitet, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari, maqol, matal, turli iqtiboslarning nutkda begonaligi, bejoligi juda tez bilinadi va bunday nutqni o'rinli deb bo'lmaydi.

Badiiy tasvir vositasi sifatida nutqqa olib kiriladigan o'xshatish ham fikr mantiği va hissiy-ruhiy holat bilan to'liq uyg'unlik kasb etmasa, nutqning o'rinliliği haqida gapirish qiyin. Atoqli rus adibi M.Yu.Lermontov o'zining mashhur "Zamonamiz qahramoni" romanining dastlabki variantida oshiq ofitser Grushnitskiyning mundiridagi epo letlar (maxsus pogon) ni ikkita kotletga o'xshatadi. Romanning keyingi tahririda esa bu o'xshatishdan voz kechadi va oshiq Grushnitskiyning epoletlarini Amurning qanotchalariga o'xshatadi. Ta'kidlash joizki, birinchi o'xshatish juda ham aniq va konkret, chindan ham, epoletlar shaklan kotletga aynan o'xshaydi, ammo oshiq qahramonning hissiy-ruhiy holati bilan mutlaqo bog'lanmaydi; ikkinchi o'xshatish esa oshiqning ruhiy holati bilan assotsiativ aloqadorlikka ega, ya'ni Amur — yunon afsonalarida sevgi xudosi demakdir. Shuning uchun ham ayni shu keyingi o'xshatish bejo yoki be-ta'sir emas, balki behad o'rinli va ta'sirlidir.

Nutkdagi har qanday qiyoslash ham o'z o'rnida bo'lishi lozim. Noo'rin qo'llangan qiyoslash nutqning o'rinliliğiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan mana bu jumladagi qiyoslashni o'rinli deb bo'lmaydi: ***Kishi hayotini sahlab holish yetti havatli imorat hurishdan ham murakkabroh, deyishadi*** ("Hurriyat", 2006 yil 5 iyul). Avvalo, heych kim bunday demaydi, xalq orasida bunday matalnamo ibora yo'q, demak, *deyishadi* so'z shakli joiz emas. Bunday qiyoslashning o'rinli emasligi shundaki, kishi hayotini sakdab qolish, albatta, murakkab va sharafli ish, ammo uning murakkabligini aynan yetti qavatli imorat qurish bilan solingirishning biron-bir mantiqiy asosi ham, me'yorga daxldor ma'nosi ham yo'q. Nega olti yoki sakkiz, o'n, yigirma qavatli imorat qurish qiyos etaloni sifatida olinmagan? Ko'rinadiki, mazkur jumlada nutqning o'rinlilik sifati past.

Kichkintoylar nutqini o'stirishga bag'ishlangan qo'llanmada (S.Jo'raev, H.Qodirov) o'rinlilik sifatidan mahrum bo'lgan ancha-muncha jumalarni ko'rish mumkin. Masalan, bog'cha bolalari uchun *Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz!* kabi iboralarni o'rganish tavsiya etilgan. Holbuki, bu jumalar bog'cha yoshidagi bola nutqi uchun mutlaqo xos emas, bola tilida ular o'rinli nutq sifatiga sohib bo'la olmaydi. Ular bola nutqida hatto chuchmal, kulgili eshutilishini isbotlash kerak emas. Bunday jumalar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi. Yoki yana bir jumalani ko'raylik: *Mashg'ulot davomida "yaxshi" va "a'lo" baholar olgan bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqi-rib, minnatdorchilik bildiradi.* Bu jumlada *minnatdor- chilik bildirmok*, iborasi nojo'ya qo'llangan, shuning uchun nutqni o'rinli deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va tarbiyachi o'rta- sidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani qo'llashga monelik qiladi, bunday o'rinda o'rinlilik sifati *rag'batlantirmoq* so'zini ishlatishni taqozo etadi.

Umuman, nutqning o‘rinlilik sifatini ta‘minlash uchun nutq tuzuvchi nutqiy vaziyatni, o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan mazmuni, tinglovchining turli xususiyatlarini, muloqotning ijtimoiy-madaniy, axloqiy-estetik jihatlarini yetarli darajada tasavvur etmog‘i lozim.

Mantiqiylik nutq bilan egizak. Zero, nutq va mantiq o‘zakdosh so‘zlardir. Mantiq buzilsa, nutq o‘z vazifasini bajara olmaydi. Mantiqiylik faqat adabiy tilning emas, balki umuman tilning xususiyatlaridan biridir. Mantiqli so‘zlashning asosida so‘zlarning ma‘nolarini bilish, so‘z va qo‘shimchalarni to‘g‘ri bog‘lay olish malakasi yotadi. Shuningdek, so‘zlovchi mantiqiy fikrlash salohiyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Bu haqda donishmand ajdodlarimiz ibratli fikrlarni bayon etishgan. Masalan, Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida shunday bir voqyeani hikoya qiladi. Bahorning yomg‘irli kunlaridan birida u “Xuroson mulkida turkiy va forsiyda malik ul-kalom” Lutfiy bilan uchrashib qoladi. Mavlono Lutfiy Amir Xusrav Dehlaviyning bir she‘ridagi go‘zal ma‘no va o‘xshatish haqida juda ham maqtov bilan gapirib beradi, ya‘ni: “Mahbuba yomg‘irli kunda yo‘lda toyib, yiqilib ketay deydi. U shu qadar go‘zal va nozikki, yog‘ayotgan yomg‘ir rippgasini ushlab, uning madadi bilan o‘zini o‘nglab oladi”. Bu ta‘rif Navoiyga behad ma‘qul tushadi. Saroydagi oliy adabiy majlislarning birida Navoiy bu o‘xshatish haqida shoh Husayn Boyqaro huzurida gapirib, shohning ham hayratlanishini kutadi. Ammo Boyqaro “Yuqoridan pastga tushayotgan yog‘in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo‘la olmaydi” deb, e‘tiroz bildiradi, Navoiy Boyqaroning o‘tkir va nozik mantig‘i va she‘rfahmlikdagi zakovatiga qoyil qoladi.

Maktab ona tili ta‘limida o‘quvchilarning mantiqli nutq so‘zlash malakasini oshirib borish katta ahamiyatga ega. Lekin har doim ham bunga e‘tibor berilavermaydi. Darslarda nazariy ma‘lumotlarga asosiy urg‘u berilib, nutqiy malaka masalasi ikkinchi o‘ringa tushib qolgan hollar ko‘p uchraydi. Ko‘pgina bitiruvchilarimiz oliy o‘quv yurtlariga kirish test topshiriqlarini juda yuqori darajada bajarishgani holda, aksar hollarda ularning nutqiy malakalari ko‘pincha talab darajasidan ancha pastligi kishini xavotirga solmay iloji yo‘q. Holbuki, ona tili ta‘limining natijasi nazariy bilimlarni egallaganlik darajasi bilan emas, balki quyidagi uch mezon asosida baholanadi:

- 1) o‘qish texnikasi;
- 2) o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash;
- 3) o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash.

Bu ona tili ta‘limining DTSlarida qayd etilgan.

O‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash nutqning to‘g‘riligi, boyligi, sofligi, izchilligi, o‘rinlilik kabi qator xususiyatlarni qamrab oladi.

Gazeta matnlarida shunday fikrlarni o‘qib qolamiz. *Sportchilarimizning yutuqlaridan quvonmay ilojing yo‘q.* Ilojsizlik majburiyat asosida bo‘ladi. Kishi o‘zi xohlamasa, ilojim yo‘q, noilojlikdan, ilojisizlikdan kabi ifodalarni qo‘llaydi. Demak, mazkur jumladan, sportchilarimizning yutuqlaridan quvonishga majburmiz, lekin aslida quvonishni xohlamaymiz degan tagmazmun uqiladi. Quvonish so‘zi majburiyat asosida bo‘lishi mumkin emas. Ko‘rinadiki, jumlada katta mantiqiy xatolik mavjud.

Aslida biror fikrning davomida *mazkur* so‘zi qo‘llanadi. U “aytilgan”, “zikk etilgan” degan ma‘nolarni bildiradi va qayd etilgan narsa-hodisaga ishorani bildiradi. Ammo bu so‘zni fikr ifodasining boshida qo‘llash mantiqning buzilishiga olib keladi. Chunki bunda hali hech narsa aytilmagan, zikk etilmagan bo‘ladi.

Oddiy kundalik nutqda balki mantiqsizlik juda katta falokatlarini sodir etmas. Lekin rasmiy hujjatlarda, sud hukmlarida bunday xatoliklarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Yaqinda qo'limga bir sud hukmi namunasi tushib qoldi. Unda fikr shunday ifodalangan:

Dastlabki tergov organi tomonidan Aliev Malik Maxmudovich 2010 yil 02 oktyabr kuni kechki vakt uzganing mol-mulkini kulga kiritib, tekin boylik orttirish maksadida Toshkent shaxar Shabnam kuchasida joylashgan Guzal choyxonasidagi stolning ustidan fukaro Olimov Ravshan Jo'raevichga tegishli bulgan bir dona "Samsung" rusumli aloqa vositasini yashirin ravishda talon-taroj qilib, jabrlanuvchiga moddiy zarar yetkazib, ugirlik jinoyatini sodir kilgan.

Nazarimda, jumalani mantiqiy deb bo'lmaydi. E'tibor qilinsa, gap mazmunidan o'g'irlik jinoyatini dastlabki tergov organi sodir qilgan degan fikr uqiladi. Shuningdek, O'G'IRLAMOQ so'zida yuqorida berilgan 1) "jinoyat; 2) "yashirin"; 3) "moddiy zarar yetkazish"; 4) "o'zganing mol-mulkini qo'lga kiritish"; 5) "tekin boylik orttirish maqsadida" ma'nolari mujassam. Qolaversa, bitta telefon apparatini o'g'irlash talon-taroj qilish degani emas. Talon-taroj katta miqdordagi boylikni o'marishni anglatadi. Bu so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh berilgan:

TALON-TOROJ Hamma yoqdan tortqilab talash, o'zlashtirish, tala-tala, tort-tort. *Talon-taroj yurtni vayron etdi, mamlakat zavol topdi.* S.Karomatov, So'nggi barxan. *Talon-taroj, bosdi-bosdilar tovsillab, Samarqand yonida Buxoroning ham bir qadar osoyishta turgani tufayli yillar tez kechayotganday tuyular edi.* Mirmuhsin, Me'mor.

Menimcha, *talon-taroj* so'zi yuridik nutqda bunday terminologik ma'noga ega bo'lmasa kerak. Aks holda izohli lug'at uni qayd etgan bo'lur edi. Ammo qanday bo'lsa ham, umumiy izohli lug'atlarimizdagi ma'no doirasida bo'lishi lozim

Bizningcha, keltirilgan matnni quyidagicha tuzatish lozim:

Dastlabki tergovda Aliev Malik Mahmudovich 2010 yil 02 oktyabr kuni kechqurun Toshkent shahar "Shabnam" ko'chasida joylashgan "Go'zal" choyxonasidagi stolning ustidan fuqaro Olimov Ravshan Jo'raevichga tegishli "Samsung" uyali telefonini o'g'irlaganligi aniqlandi.

Matbuot sahifalarida ham mantiqiy xatoliklar uchrab turadi. Masalan, "O'zbekiston ovozi" gazetasining 2006 yil 20 iyun sonida e'lon qilingan maqolalardan biridagi mantiqiy xatolikni ustoz professor N.Mahmudov aniqlaganlar: *Buldozer, "Zil" avtomashinamiz miltiqning o'qiday uchadi...* Aynan buldozerni miltiqning o'qiga qiyoslab bo'lmaydi. Uning harakat tezligini toshbaqaning harakat tezligiga qiyoslash mumkin, miltiqning o'qiga emas. Mantiqsizlik kulgili holatni keltirib chiqargan.

Ayanchli tomoni shundaki, yozma nutqdagi bunday mantiqsizliklar o'qimishli, oliy ma'lumotli mutaxassislar nutqida uchramoqda. Demak, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, mantiqli nutqni o'stirish masalasida zimmamizda kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar turibdi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutqning jo'yasizligiga misol keltiring.
2. Nutqning mantiqsizligiga misol keltiring.
3. Nutqning uzunligiga misol keltiring.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – Toshkent: Navro'z, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: Adolat, 2004.
11. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
12. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho'lpon, 2012.
15. Jumaxo'ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.
16. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B. 224.
17. Tojiev Yo., Mallaboev M.. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.
18. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
19. Rahmatullaev Sh.. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. –B. 53.
20. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: Universitet, 1996, 39- b.
21. Inomxo'jaev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: Bilim, 1972.
22. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet ma'lumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.thinsan.com
25. www.uforum.uz
26. www.literature.uz

8-mavzu: NUTQ USTIDA ISHLASH VA NOTIQLIK MAHORATINI OSHIRICH USULLARI

8-mavzu: NUTQ TEXNIKASI USTIDA ISHLASH VA NOTIQLIK MAHORATINI OSHIRISH USULLARI

Reja:

1. Nutq texnikasi tushunchasi.
2. Nutqda improvizatsiyaning o'рни.
3. Mashhur notiqlarning so'z qo'llash mahorati

Tayanch tushunchalar: nutq texnikasi, artikulyasiya, diksiya, orfoepiya, nafas, ovoz, improvizatsiya, badiha

1. Nutq texnikasi tushunchasi

Auditoriya olidida nutq so'zlash uchun materialni yetkazib berish uslublaridan foydalanish lozim. Nutq texnikasi: intonatsiya, (ohang), diksiya, artikulyasiya, nutq sur'ati, imo-ishoralar va sh.k. mana shu uslublarni tashkil qiladi. Mana shu foydali usullarni paralingvika degan fan o'rganadi. Ommaviy nutqlardagi paralingvistik metodlarni 2 guruhga ajratish mumkin:

1. Fonotsion yoki ovoz usullari – **nutq texnikasi**.
2. Kinetik yoki xulq usullari - **kinesika**. Bunga jestlar, poza, mimika kiradi.

Biz bugun birinchi usul bo'yicha gaplashamiz.

Yaxshi nutqiy muloqotning birinchi qoidasi sifatida shunga e'tibor berish va erishish kerak bo'ladi: suhbatdoshingizni biron-bir narsaga ishontirishingiz uchun avvalo unda yoqimli va dilkash kishi bilan bo'lgani kabi siz bilan muloqot qilish istagini uyg'otishingiz lozim

Bunga qanday erishiladi? Bu Siz o'z suhbatdoshingizga yuboradigan barcha signallar birinchi navbatda uning ongosti darajasida ijodiy baholangan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Nega aynan tinglovchining ost ongi gapiruvchining shaxsini baholashda hal qiluvchi rol o'ynaydi? Negaki, bugunki kunda aniq ma'lumki, tashqaridan olinadigan 80 % axborotni inson o'z ongi nazoratisiz qabul qiladi.

Ammo aynan mana shu axborot ko'p jihatdan, ba'zan esa to'lig'icha (maxsus manipulyativ texnologiyalardan foydalanilgan chog'da), xuddi bizga aqlga muvofiqday va anglab yetilgan kabi tuyulgan baholarimiz va xatti-harakatimizni belgilaydi. Aynan suhbatdoshingizning ost ongi darajasida siz bilan dilkash bir inson bilan bo'ladigan kabi muloqot qilish istagi tug'ilishi lozimki, bu istakni siz o'zingiz ritorik jihatdan joyiga qo'yib yetkazayotgan nutq signallari orqali shallantirasiz.

Shu sababli sizga nisbatan ijodiy baho shakllanishiga erishish uchun tinglovchining ost ongi sohasiga qaysi signallar zarur va ular qanday ta'sir etishi lozimligini bilish juda muhimdir.

Bunday signallarning birinchi guruhi nutqni tovush tomondan bezalishini ta'minlaydi va mahorat orqasida jarang sochgan so'zga baho berilganda unga yoqimli ovoz sifatida qaraladi. Nutqning tinglovchi uchun yoqimli eshitalishiga, demakki,

suhbatdoshning ijobiy bahosiga gapirayotgan odamning musiqiylik, jarangdorlik, aniq artikulyasiya, yaxshi talaffuz, g'ashga tegmaydigan sokin ovoz, nutqning o'rtacha sur'ati kabi ovoz xususiyatlari yordamida erishiladi.

Nutqning tarkibiy tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega:

Nutq texnikasi:

1. Artikulyasiya.
2. Diksiya.
3. Orfoepiya.
4. Nafas.
5. Ovoz.

Nutq texnikasining muhim bir qismi bu **artikulyasiya**dir.

Nutq a'zolarining me'yoriy harakatiga **artikulyasiya** deb ataladi.

Talaffuz organlari bo'lgan *lab, jag', til* nutq jarayonida turlicha shaklda harakatlanadi. Nutq organlarining ana shu turlicha shakldagi harakatiga **artikulyasiya** deyiladi.

Nutq jarayonida nutq a'zolari (lab, jag', til)ning passivligi oqibatida nutq tovushlari mukammal talaffuz etilmaydi. Nutq a'zolarini me'yoriy holatga keltirish uchun artikulyasion mashqlarga ehtiyoj seziladi. Shu bois, artikulyasion mashqlar bilan shug'illanish tavsiya etiladi. Artikulyasiya mashqlari talaffuz organlari bo'lgan lab, jag', tilning turlicha shakllantirish bilan birga ularni faollashtiradi va tovushlarning aniq talaffuzini ta'minlaydi.

TALAFFUZ. Inson nutqidagi aniq va ravon talaffuz nutq a'zolarining sog'lomligi va ularning to'g'ri faoliyatiga bog'liq. Bir kishining nutq a'zolari o'ziga zos tuzilgani uchun bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qiladi. Shunga ko'ra odamlarning tovushlari ham bir-biriga o'xshamaydi – birov ingichka, birov jarangdor, birov xirildoq talaffuz qiladi.

Talaffuz vaqtida nutq a'zolarining harakati ikki holatda, ya'ni ma'lum tovushni talaffuz etishga chog'lanish va aytish «artikulyasiya», tovush tugagach, nutq a'zolarining o'z joyiga (asl) qaytishi, ya'ni «rekursiya» bilan bog'liq.

Nutq a'zolari asosan ikki turga bo'linadi:

- 1) faol nutq a'zolari – tovush paylari, lablar, til, yumshoq tanglay;
- 2) sust (nofaol) nutq a'zolari – o'pka, kekirdak, og'iz bo'shlig'i, tishlar, burun bo'shlig'i, qattiq tanglay. Nutq a'zosiga shuningdek, jag'-tish qatori, kichik tilcha, ovoz paychalari, bo'g'iz va halqum kabilar kiradi.

Tovushning sifati, jarangdorligi nutq a'zolarining tuzilishi va talaffuz jarayonida ishtirok etish darajasiga bog'liq.

2. Diksiya. Diksiya – bu ommaviy nutqning muhim talaffuz qilish qismi bo'lib, u tovush, bo'g'in, so'zlarni aniq talaffuz qilish qobiliyatini o'zida ifoda etadi. Nutqning jarangdorligining sofligi artikulyasion apparatning to'g'ri va faol ishlashiga bog'liq. Diksiyani dastxatga o'xshatish mumkin: yomon dastxat bilan yozilgan matnni o'qish qiyin bo'lganidek, diksiyasi yomon odam aytgan nutqni to'g'ri eshitish va tushunish qiyin.

Yaxshi diksiya, har bir unli va undoshlar tovushlarning, so'z va jumalarning aniq, ravon, benuqson va jarangli talaffuzidir. Diksiyaning sozligi notiqning o'z fikrini eshituvchilarga ta'sirli yetkazishini ta'minlaydidir.

Diksiya aniqligini shakllantiradigan bir qator mashqlar mavjud. Suxandonlar va boshlovchilar foydalanadigan eng mashhur mashqlardan biri tez aytish hisoblanadi. Har bir tez aytish sizning alohida tovushlar va tovush qo‘shilmalarini talaffuz etishiningizni mashq qildiradi.

Tez aytish nutq tovushlari uyg‘unligiga asoslangan janr bo‘lib, o‘xshash tovushli so‘zlar yoki so‘z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi orqali u yoki bu tovush, u yoki bu so‘z talaffuzida chalg‘ish yoki tutilishdagi kamchiliklarni tuzatishga yordam beradi.

Tez aytishlar ustida ishlash jamiki so‘z san‘atiga aloqador kishilarga nutq a‘zolarining chaqqon va aniq, tovushlarni toza talaffuz qilishdan tortib, fikrlashga, ritmni yo‘qotmaslik, urg‘uni to‘g‘ri ishlata bilish, aktyorlik mahoratining boshlang‘ich barcha elementlaridan tortib, ovoz, nafas, xotira (birinchi o‘rinda), munosabat kabilar his-tuyg‘ularni qo‘zg‘atish, tasavvurni boyitish, nutqiy xarakter yaratishda juda muhimdir. Shu bois tez aytishlar ustida ishlash, nutq san‘ati, xususan so‘z san‘atining takomillashuvida zarur ijodiy manba hisoblanadi.

Masalan:

Gulnora kunora gul oralar

Gul oralab Gulnora gul saralar.

Ko‘k otga o‘t berdim,

Oq otga tert berdim.

Pirmat pazanda pishirga palov mazalimi

Parpi pazanda pishirgan palov mazalimi.

Besh mis barkash, besh mis barkashning ichida

Besh ming besh miss barkash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tez aytishlar bo‘lg‘usi notiq nutqiy nuqsonlarini yo‘qotish, diqqatni tarbiyalash, xotirani mustahkamlash, tasavvur qilish qobiliyatini o‘stirish, munosabat uyg‘otish hamda nafas va ovozdan unumli foydalanishda katta ahamiyatga ega.

3. Orfoepiya.

Nutq texnikasini o‘zlashtirish jarayonida orfoepiyaga e‘tibor kuchlidir. Adabiy talaffuz me‘yorlarini belgilab beruvchi qoidalar majmuasiga **orfoepiya** deyiladi. Orfoepiya so‘zi yunoncha (ortphos – to‘g‘ri, epos - nutq) to‘g‘ri gapirish, to‘g‘ri talaffuz demakdir.

Orfoepiya adabiy tilning talaffuzini o‘rganish yoki adabiy til qoidalariga muvofiq talaffuz qilish fanidir. Bu uning nutq madaniyati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

4-5. Ovoz va nafas.

Ayrim muhim izohlarni beramiz. Ovoz – bu qurol. Har qanday musiqa asbobini chalish, jaranglatishdan oldin sozlab olganimiz singari bizning ovozimiz ham xuddi mana shunday sozlanishni talab qiladi. Aslida tabiatan yomon ovozning o‘zi bo‘lmaydi. Agar biron-bir potologik og‘ish bo‘lmasa, har qanday tovushni to‘g‘ri sozlash, “tarbiyalash” mumkin. Albatta, bu oson ish emas. Teatrda oid OO‘Yuda ovozni joyiga qo‘yish bilan bir necha smestr shug‘ullanilishini aytish kifoya. Bizning

bahomiz ovozning eshitilishi, yangrashidan boshlanar ekan, nutq yoqimlilikiga erishish imkonini beradigan ayrim usullarni egallash lozim.

Agar siz fonatsion nafasingiz to'g'ri rivojlangan bo'lsa ovozingiz jarangdor, tiniq, chiroyli chiqadi. Buning uchun maxsus mashqlar yordamida aralash yoki nafas olishning diafragmal-qovurg'a turini ishlab chiqish zarur. Erkaklar nafas olish turi unga eng yaqin turadi. O'tmishdagi atoqli notiqning ko'pchiligi erkaklar bo'lgani bejiz emas. Ular notqlik san'atini egallash uchun zarur nafas olish asoslariga tabiatan ega bo'lganlar. Odatdagi nafas olishda biz nafas chiqarish qanday sodir bo'lishi, u qayoqqa yo'naltirilgani to'g'risida qayg'urmamiz.

Nutq vaqtidagi nafas olishda nafas chiqarish maxsus uyushtiriladi, chiqarilayotgan havo oqimi xuddiki bir nuqtaga to'g'rilanishi kerak. Fonatsion nafas olish ritmi odatdagi nafas olish ritmidan keskin ajralib turadi: bunda nafas olish nafas chiqarishdan 10-15 marta qisqa bo'ladi. Nega nutq paytidagi nafas olishga ko'p e'tibor qarataymiz, to'xtalaymiz. Chunki nutq – ovoz berilgan havo chiqarishdir. Nutq hosil bo'lishida tovush (ovoz) havo chiqayotganda paydo bo'ladi. Havo halqum (bo'g'iz) orqali o'tib, tovush paychalarini tebratadi. Bu paytda hosil bo'lgan tovushlar rezonatorlar (ovoz qaytargichlar) - tabiiy akustik tizim yordamida kuchaytiriladi, shundan keyingina tinglovchilar tomonidan qabul qilinadi. Shu sababli chiroyli ovozni tarbiyalashdagi asosiy narsa – bu uzun nafas chiqarishni mashq qilish, va ovoz kuchaytirgichlardan mohirona foydalanishdir.

Nafas. Ovoz kuchini tashkil etish hamda nutqni tinglovchiga yetkazishda nafas vosita vazifasini bajaradi. Shu bois nafas olishni to'g'ri yo'lga qo'yish va chiniqtirish ovozni jarangdor bo'lishiga va jummalarni mantiqan yaxlit, o'zaro uzviy bog'liq holda talaffuz etishda muhim rol o'ynaydi.

Nafas olish inson uchun zaruriyatdir. Nafas olish va chiqarish olingan kislorodni karbonat angidrid gazi bilan almashishda ro'y bergan faoliyatidir. Bu almashish o'pkadagi havoni yangilash jarayonida ro'y beradi.

Nafas olinganda ko'krak qafasi oldinga, yonga, tepaga va pastga kengayadi.

Nafas olish turi uch xil bo'ladi:

- a) qorin nafasi,
- b) ko'krak nafasi,
- v) diafragmal aralash nafas.

Nafas olish turlarining notqlikda qo'llaniladigan turi diafragmal-aralash nafasdir.

Ma'lumki, nutq texnikasi ustida ishlash chog'ida faqat talaffuz bilangina shug'ullanib yoki faqat ovoz ustida ishlabgina qolmasdan, balki to'g'ri nafas olishni ham yo'lga qo'yish zarur. Nafas yaxshi yo'lga qo'yilmasa, talaffuz a'zolari to'la ishlamaydi, nutq ohangi buziladi. Nafas mushaklarini ortiqcha zo'riqtirish tomoqning bo'g'ilishi hamda jag' mushaklarining tortishib qolishiga olib keladi. Faqat mashq qilish asosida me'yorga solingan nutqiy nafas har bir kishining ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga hamda nutq ravonligiga olib keladi. Nafasni yo'lga qo'yish va talaffuz a'zolari mushagi ishini yaxshilash ovozning jaranglilikiga va unli hamda undosh tovushlarni yaxshi talaffuz qilinishini ta'minlaydi. Shunday qilib, me'yorga solingan nafas nutq tovushlari aniq talaffuzi qilish, ovoz ko'nikmalarini hosil qilishda katta ahamiyatga ega.

Ovoz - ovoz apparati yordamida chiqariladigan balandligi, kuchi va tembri jihatidan har xil bo'lgan tovushlardir. Ovozda hiqildoq mushaklari refleks yo'li bilan qisqaradi. Odam his, sezgi, fikr-tuyg'ularini ko'pincha ovoz chiqarib ifodalaydi (baqirish, kulish, yig'lash, so'zlash, kuylash va boshqalar). Lekin har qanday iste'dod sohibi, hoh u qo'shiqchi bo'lsin, hoh so'z ustasiyu suxandon yoki keng davrani o'ziga jalb eta olgan ma'ruzachi, o'qituvchi bo'lsin o'z ovoz io'nalishini, uning tuzilish o'rni, uni chiniqtirish uslublarini puxta bilishi kerak bo'ladi.

Ovozni yana ham ta'sirchan va jozibali bo'lishi yo'lida tinimsiz mashqlar uni takomillashtirib borilsa, kutilmagan mo'jizalarni yaratgan bo'ladi. Hozirgi ixtisoslashgan texnika taraqqiyoti asrida, intellektual avlod davrida, tabiatda yuz bergan turli xil tovushlardan inson ovozining pastki va eng yuqori tovush oralig'ida yangrashi mumkin bo'lgan, elektron apparatlari vositasida yozilib jonli inson ovozini yaratish mumkin bo'lmokda. Yomg'irning shivalab yog'ishidan tortib, momaqaldiraq gumburlashi, olovning guvullashiyu, daraxt barglarining yoqimli shitirlashidan tortib, derazayu eshikning g'ichirlashigacha barchasini bir zumda kompyuter xotirasidan topish mumkin. Tabiatdagi mitti jonli mavjudotlardan tortib yirtqich hayvonlarning o'kirishini ham go'yo hayvonot bog'i yoki o'rmon qo'ynida yurib eshitayotgandek his qilsak bo'ladi. Lekin baribir ushbu ixtirolar sohibi bo'lmish ulur zot hazrati insonning yuksak ongi va urib turgan tirik yuragidagi, his — hayajonga to'la tuyg'ulari, mazmun - ma'noga to'la ovozi oldida sun'iy ovozlar ip esha olmay qola beradi.

Inson — markaziy nerv sistemasi boshqaruvida o'z ovozini turli ohangga sola oladi. Iqtidorli ijrochilar tabiat in'om etgan iste'dod va katta mehnat hisobiga o'z ovozidagi serqirra ohanglardan unumli foydalanib tinglovchilarni lol qoldira oladilar. Aytaylik, birgina iqtidorli ijrochi bir vaqtning o'zida to'rt — beshta personaj uchun turli xususiyatdan, diapazondan foydalangan holda ularning ovozlarini bera oladi. Natijada tinglovchi go'yo har xil fe'l- atvorli personajlar bilan muloqatda bo'layotgandek bo'ladi.

Ovoz oliy asab tizimi signallarining mahsulidir. Oliy asab tizimi biror narsaga tikilish uchun ko'zlarga, biror narsani olish uchun qo'llarga, oldinga qadam tashlash uchun oyoqlarga buyruq (signal) bergani kabi ovoz chiqarish, nutq tovushlari yoki so'zlarini talaffuz etish, ovozni jaranglatish yoki xirillatish, past yo baland gapirish uchun ham muayyan a'zolarga signal beradi. Bu a'zolar esa, oliy asab tizimining buyruqlarini bajaradi. Ana shunday buyruqlarni bajarishda, ovozning muhim a'zolari bo'lgan xalqasimon, piramidasimon va qalqonsimon tog'aylar hamda ovoz paychalari asosiy vazifani bajaradi.

Hiqildoqning ichki devori ovoz yorig'ini hosil qiladi. Ularning cheti esa ovoz boylamlarini tashkil etadi. Gorizantal holatda yotgan ovoz boylamlari asosan elastik to'qimalardan (paylardan) tuzilgan. Ular oldingi tomonda qalqonsimon tog'ay bilan birlashib turadi, orqada esa bir-birlaridan uzoqlashadi.

Tovush rezonatorlari.

Paychalarda paydo bo'lgan tovushlar rezonatorlarga urilib qaytgandan keyingina ovoz shaklini oladi. Tovush (un) ovozning boshlang'ich momenti va asosidir.

Faqat ovoz paychalari va kemirchaklarda paydo bo'lgan tovush juda rangsiz bo'ladi. Tovush o'z boshlang'ich manбайдan asosiy kuchlanuvchi havzasi — rezonatorlarga kelib, turli tus, ohang, sifat bag'ishlaydi.

Rezonator—kuchaytirgich, ovozni shakllantiruvchi asosiy manbadir. Usiz tovush kuchsiz va ifodasizdir.

Kishi a'zosidagi qaytargichlar jumlasiga qattiq to'qimalardan iborat qismlar: *ko'krak qafasi (suyaklar), bosh suyagi, burun tog'aylari, burun bo'shlig'i, tishlar, yuz suyaklari, yelka kurakchalari, jag' suyaklari va boshqa mavjud qattiq to'qimalar* kiradi.

Kundalik faoliyatimizdan ma'lumki, ovoz odatda qattiq jismlardan qaytadi va avvalgiga ko'ra xiyla rang-barang eshitiladi. Buning isboti uchun, kundalik turmushda quyidagi tajribani o'tkazib ko'rish mumkin: latta matolar kabi yumshoq, ovozni singdiruvchi buyumlar bo'lmagan uyga kirib gapiriladi yoki ovoz chiqariladi, ovoz to'rt tomondan aks-sado qaytaradi va aks-sado o'z originaliga ko'ra go'zalroq, xilma-xilroq bo'ladi. Xuddi shu ishni qumsuvoq qilingan xonada qaytarsangiz, ovoz yanada ko'rkamroq bo'ladi. Ganch, sement bilan suvalgan xonalar unga yanada ziyodroq jarang qo'shadi. Xuddi shu mashqni tog'lar orasida ham qilib ko'rish mumkin. Xullas, qattiq jismdan iborat qaytargichlar ko'paygani sari, ovoz jarangdorligi ham orta boradi. Biz qaytargichlar deb atagan a'zolarining barchasi ham ana tshundan qattqlik xarakteriga ega bo'lgan suyaklar va kemirchak tog'aylardan iboratdir.

Rezonatorga kelib urilgan yoki yo'naltirilgan tovush turli jarang oladi va maqsadga muvofiq tusga kiradi. Demak, tovushni saytargichlarga yo'naltira bilish go'zal va shirali ovozning omili bo'lib xizmat qiladi.

Nutqiy faoliyatda nutq a'zolari, ayniqsa qaytargichlardan to'g'ri va unumli foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Ijrochilik san'ati bilan shug'ullanuvchi kishilar esa imkoni boricha ovozni yo'lga qo'yish usullaridan xabardor bo'lishlari, hiech bo'lmasa o'z ovozlarni to'g'ri tarbiyalay olish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim.

Tovushlarni talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etishda diksion mashqlardan foydalaniladi. Bunda unli va undosh tovushlardagi nuqsonlarni bartaraf etish ko'zda tutiladi.

Demak, qaytarg'ich (rezanator)lar deb kishi organizmidagi qattiq harakaterga ega bo'lgan suyaklar va kemirchak (tog'ay)larga aytiladi.

Qaytarg'ichlar ovozning shakllantiruvchi asosiy manbasi hisoblanadi va ular inson organizmidagi qattiq to'qimalardan iborat bo'lib, ular ko'krak qafasi (suyaklar), bosh suyagi, burun bo'shlig'i, tog'aylar, tishlar, yuz suyagi, yelka kuraklari, jag' suyaklaridan iborat qattiq to'qimalardir.

Yuqoridagi qayd etilgan, qaytarg'ichlarga «yo'naltirish»ni o'rgatuvchi qism ovozni yo'lga qo'yish, ya'ni **ovozni sozlash** deb ataladi.

Barcha tovush a'zolarini va qaytarg'ichlarni birlashtirib ovoz manbalari deb ataymiz.

Nutq tovushlarining aniq va ravon talaffuzi barcha nutq a'zolarining normal faoliyati va to'g'ri artikulyasiya natijasidir.

Ohang (Intonatsiya) deganda so'zlovchining nutqida uning tuyg'u va maqsadlarini ifodalashga yordam beradigan ovozning emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi tushuniladi. Ohang xususiy ovoz xarakteristikasi bilan zich bog'liq bo'lib, ovoz kuchini oshirish yoki pasaytirish, pauza, nutq sur'atini oshirish yoki kamaytirish, alohida tovushlarga urg'u berish, tovushlarni cho'zish kabi nutq talaffuz

qilish vositalari yordamida hosil qilinadi. Ohang yordamida asosiy kommunikativ maqsadlarni: tasdiqlash, savol, so‘roq, undov, ta’kid kabilarni ifodalash mumkin.

Shunday bo‘ladiki, so‘z ohangi so‘zning o‘zidan ham muhim bo‘ladi. Masalan Toshkent hokimi Azizbekning Yusufbek Hojiga “Nima diysan!” degani kabi. Yaxshi notiq ohangdan to‘g‘ri foydalana bilishi, mantiqiy urg‘uni joyida qo‘llashi, ovoz kuchini (balandligini), nutq ohangi yoki sur‘atini ko‘tarish yoki pasaytirishni, zarur pauza qila olishni bilishi lozim. O hangni mashq qilish uchun badiiy matnlarni (ayniqsa, dramatik matnlarni) ovoz chiqarib o‘qish yaxshi qo‘l keladi. Shu bilan birga ba’zi gaplarni turlicha ohangda bir necha bor qaytarishga harakat qiling.

Pauza. To‘g‘ri pauza qila olishni bilish tez yoki sekin gapirish qobiliyatidan kam emas. Nutq chog‘idagi pauza jimlik chog‘idagi kutilmagan tovush singari taassurot uyg‘otadi. Bundan tashqari, pauzadan so‘ng yangi fikr ketma-ket aytilayotgan g‘oyalardan ko‘ra ko‘pincha ishonchli eshitiladi.

Mutaxassislar nutqda pauzalardan samarali foydalanishning bir necha umumiy qoidasini ajratib ko‘rsatadilar:

1. Qisqa pauzalar uzunlaridan ko‘ra yaxshi qabul qilinadi.
2. Faqat tinglovchilarning yarmigina 13-15 so‘zdan iborat frazani lozim darajada tushunish layoqatiga ega.
3. Buning ustiga tinglovchilarning uchdan biri bir gap doirasida o‘n to‘rtinchi yoki undan ortiq so‘zni eshitar ekan, uning boshidagi so‘zlar bilan umuman aloqani yo‘qotadilar.

2. Nutqda improvizatsiyasining o‘rni

Tajribali notiqning chiqishini tinglab, uning nutqi qanchalik ravon, yengil va oson quyilib kelishiga ko‘pincha hayron qolamiz. So‘zlari o‘z-o‘zidan tug‘iladi, fikr va obrazlarning chiroyli to‘rini hosil qiladi. Xuddiki, notiq shunchalik yaxshi tayyorlanganki, uning bir maromdagi nutqini hyech narsa buza olmaydiganday tuyuladi. Bunga ba’zan havas qilib, so‘zlardan xuddi shunday qiynalmay, ustalik bilan foydalana olishni astoydil o‘rgangimiz keladi.

Shuning uchun biz improvizatsiya, og‘zaki improvizatsiya qilish masalalarini ko‘rib o‘tamiz!

IMPROVIZATSIYA [ital. improv-visazione < lot. improvisus — oldindan kutilmagan, ko‘rilmagan; to‘satdan, birdan]

1 Oldindan tayyorlanmasdan, lozim bo‘lgan paytning o‘zida she‘r, kuy, musiqiy pesa ijod etish.

2 Ijro jarayonining o‘zida yaratilgan badiiy asar (she‘r, musiqiy pesa va sh.k.).

IMPROVIZATSIYA (lot. Improvisus — kutilmagan, bexosdan) — she‘r, musiqa va boshqalarni oldindan tayyorgarliksiz, ijro davomida ijod etish; aktyor o‘yinida bexosdan paydo bo‘ladigan ilhom, ijodiy fantaziya, ruhiy ko‘tarinkilik, fikr, so‘z, ohang va tasvirning erkinligi. Aktyor o‘yinidagi I. ijro etilayotgan rolni jonlantiradi, unga yangi ma‘no beradi. O‘zbek aktyorlaridan Hoji Siddiq Islomov, Soyib Xo‘jaev, G‘ani A‘zamov kabi aktyorlar ijodida I. muhim rol o‘ynagan (yana q. Badiha).

Og‘zaki improvizatsiya – bu har qanday mavzuda oldindan tayyorlanmasdan, o‘z-o‘zidan (spontanno), osonlik bilan gapira olish mahorati. Agar sizga pingvinlar yoki jirafalar haqida hikoya qilib berishni so‘rashsa, siz bu mavzuda suhbatni davom

ettirasiz. Agar soʻz musiqa, tasviriy sanʼat yoki siyosat haqida ketsa, bu mavzularga osongina koʻchib, bemaolol suhbatlashaverasiz, muhokama qilaverasiz.

Nutq soʻzlash jarayonida improvizatsiya, yaʼni ogʻzaki improvizatsiya, bu – quruq mahmadonalik, saftatabozlik emas. Buni bilish ham bir sanʼat boʻlib, nutq jarayonida necha bor notiqning joniga oro kirgan, yordam bergan. Har qanday notiq, hatto zoʻr tayyorlangani ham adashishi, chalkashishi, fikrini yoʻqotishi mumkin. Faqat tajribali notiqlargina mana shunday chogʻda oʻziga yoʻl topib ketadi, buni boshqalarga bildirmaydi, chunki ular ogʻzaki improvizatsiya qilishni bilishadi, bu mahoratga ega boʻladilar. Tajribasiz notiqlarda esa bunday chalkashib ketish bilinib qoladi, ular kalavani uchini yoʻqotib qoʻyganda, sarosimaga tushib qolishlari tinglovchilarga, auditorigaga koʻrinib, bilinib turadi.

Notiq alpinist singari har qanday kutilmagan holatlarga tayyor turmogʻi lozim. Alpinist qoyaga oʻrmlab chiqayotganda, unda asosiy arqon bilan birga har doim ehtiyotini taʼminlovchi qoʻshicha arqoni boʻladi. Agar u asosiy arqonda chiqib ketsa, uzilib ketsa, ehtiyot arqon uning hayotini saqlab qoladi. Notiqda ham xuddi shuning singari boʻladi. Chiqish (nutq soʻzlash) uchun notiq amal qiladigan asosiy reja boʻladi. Agar bexosdan moʻljaldan adashish, chalgʻib ketish roʻy bersa, bunday pallada ogʻzaki improvizatsiya oʻsha ehtiyot arqon oʻrnida notiqni qiyin vaziyatdan chiqarib ketadi, nutqni barbod boʻlishdan saqlab qoladi.

Ogʻzaki improvizatsiyaning asosiy vazifalari

Ogʻzaki improvizatsiya quyidagilarga yordam beradi:

- turib, toʻxtab qolishni yoʻqotadi;
- matnni soʻzma-soʻz yodlab olish emas, 20-30 ta asosiy (kalit) soʻzlar asosida improvizatsiya qilishga yordam beradi;
- savollarga osonlik bilan javob berishga;
- omma oldida chiqish qilganda qoʻrquvni kamaytirishga;
- aditoriyani ruhlantirish yoki lozim boʻlganda unga nafas rostlashga imkon berish;
- dunyoviy mavzuda osonlik bilan suhbat yuritishga yordamlashadi.

Turib, toʻxtab qolishni yoʻqotadi

Nutq chogʻida toʻxtab, turib qolishday ogʻir narsa yoʻq. Tasavvur qiling: notiq gapirayapti-gapirayapti-da, birdan toʻxtab, jimib qoldi. Talvasaga tushib, koʻzi potolokda yugurgilab, yoʻqol fikrini topishga harakat qilib qoladi. Yuz ifodasida sarosimaga tushgani bilinib, ogʻzini ochgan koʻyi “a-a”, “e-e”, “anov”, “anaqa”, “nimaydi” kabi maʼnisiz tovush va soʻzlar chiqa boshlaydi. Bu bilan ogʻir jimlikni toʻldirishga toʻldirishga harakat qiladi. Tinglovchilar ham notiqqa oʻxshab noqulay holatga tushishadi.

Birozdan keyin fikr topib olinib, nutq davom etadi, albatta. Ammo tinglovchilar xotirasida bu sarosimalik, dovdirash, nima deyishni bilmay qolish saqlanib qoladi. Nutqning davomini ham mana shu koʻngilsiz holatning taʼsirida kuzatadilar, tinglaydilar.

OGʻZAKI IMPROVIZATSIYA TOʻXTAB, TURIB QOLISHNI YOʻQOTISHGA IMKON BERADI (NUTQ UZLUKSIZLIGINI, YENGILLIGI VA MAROMINI TAʼMINLAYDI)

Matnni so‘zma-so‘z takrorlashdan xolilik

Nutqqa tayyorgarlik ko‘rish strategiyalaridan biri – matnni yodlab olish va omma oldiga chiqib uni so‘zma-so‘z aytib berish yoki bayon qilish. Ko‘pchilik, ishonchli og‘zaki improvizatsiya malakasini (ko‘nikmasini) egallamagan kishilar shunday yo‘l tutadi: matnni ma'nosiga tushunmay, qorilarcha yodlab oladi.

Faqat o‘z fikrlarini so‘zlar bilan erkin (oson) ifodalashni bilgandagina yodlab olingan matndan yoki qog‘ozdan uzilish mumkin.

Bunday malakaga (ko‘nikmaga) ega bo‘lsangiz, tinglovchiga yetkazmoqchi bo‘lgan kalit tezislarni va asosiy misollarni esga olish (keltirish) kifoya. Mana shu skeletning ustiga qoplaydigan asosiy matnni siz nutq jarayonida osongina to‘qishingiz mumkin, chunki siz og‘zaki improvizatsiya malakasiga egasiz.

OG‘ZAKI IMPROVIZATSIYA XOTIRADA FAQATGINA 20-30 TA KALIT SO‘ZLARDAN IBORAT NUTQ SKeLeTINI SAQLAGAN HOLDA OSON NUTQ SO‘ZLASH IMKONINI BeRADI, NUTQNI SO‘ZMA-SO‘Z YoDLAB OLISHDAN XOLOS QILADI.

Savollarga osonlik bilan javob berish

Savollar – bu har doim kutilmagan narsa. Agar sizda improvizatsiya qilish ko‘nikmasi bo‘lmasa, unda savollar siz uchun og‘ir sinovga aylanadi. Ko‘pincha kishida: “Mendan dabdurustdan so‘rab qolishsa-chi, men tezda javobini topolmay va javob berolmay tinglovchilar ko‘ziga bema'ni bo‘lib ko‘rinsam-a?” degan qo‘rquv tug‘iladi.

Agar siz improvizatsiya qilishni bilsangiz har qanday savol siz uchun pisand emas. Javob berar ekansiz, uni savol mavzusiga kichikroq improvizatsiya qilish bilan boshlang: mana shu bir necha soniya sizga uni o‘ylab olishga va silliq qilib javobga o‘tishga imkon beradi. Tinglovchilar nazarida siz birdan javob berganga o‘xshab chiqasiz, har qanaqa savolga tayyor notiq sifatida gavdalanasiz.

OG‘ZAKI IMPROVIZATSIYA JAVOBNI O‘YLAB OLISH UCHUN PAUZANI (TO‘XTAMNI) “RISOLADAGIDeK” TO‘LDIRISHINGIZGA IMKON BeRADI

Nutq so‘zlashda qo‘rquvni yo‘qotish

Omma oldida nutq so‘zlash, chiqish qilish ko‘pincha negativ (salbiy) fikrlar bilan bog‘liq bo‘ladi: “Birdan esimdan chiqib, nima gapirishni bilmay adashib ketsam-a?, Dabdurustdan bilmaydigan savolimni berib qolishsa-chi?” va shunga o‘xshash. Mana shu qo‘rquv nutq so‘zlashga xalaqit beradi.

Og‘zaki improvizatsiya esa odamga ishonch bag‘ishlaydi, unda dadillik uyg‘otadi.

“Men notiq sifatida kerakli so‘zlarni topa olaman, har qanday savolga osongina javob beraman, nutq chog‘ida adashib ketmaslikni eplayman” deb odam o‘zini ishontirmog‘i lozim.

OG‘ZAKI IMPROVIZATSIYA KO‘NIKMASI AUDITORIYA OLDIDA NUTQ SO‘ZLASHDAGI QO‘RQUVNI YO‘QOTADI

Auditoriyaning tin olishi (nafas rostlashi)ga imkon berish

Siz berilib nutq so‘zlamog‘dasiz, birdan payqab qolasizki, tinglovchilarning ko‘zlari ma'nosiz boqmoqda, ular charchagan va nutqingizga diqqat qilishmayapti. Agar nutqingizni qat'iy reja bo‘yicha davom ettirsangiz u barbod bo‘lishini, tinglovchilar hych narsa o‘zlashtirmasligini sezib turibsiz.

Tajribali notiqalar bunday chogʻda mavzudan jinday chekinish qiladi. Ular oʻz hayotidan nutq mavzusi bilan qay bir tarzda bogʻliq boʻlgan biror voqeya aytib beradi yoki qiziqarli misollardan keltiradi – umuman olganda, improvizatsiya qiladi. Shu tariqa tinglovchilarga nafas rostdashga, oʻziga kelib olishiga imkon berib, ularni navbatdagi yangi maʼlumot qabul qilishga tayyorlaydi.

OGʻZAKI IMPROVIZATSIYA AUDITORIYANI TeTIKLASHIRISHGA YoRDAM BeRADI, UNING NAFAS ROSTLASHIGA IMKON TUGʻDIRADI

Agar ish sharoitida improvizatsiya malakasisiz ham bir amallasak-da, norasmiy muloqotda baʼzida improvizatsiyasiz ish koʻrish hycham mumkin emas.

Biror qizni kafegami restorangami taklif qilib, uni nafaqat taom yoki ichimlik bilan, shirin pirojniylar bilan mehmon qilish, balki, shirin suhbat, qiziq hangoma bilan ham siylash kerak boʻladi. Bunday chogʻda ziyofat dasturxonini yengil, hych narsaga majburlamaydigan suhbat bilan ham bezashni ham bilish chiroyli boʻladi.

Koʻp holatlarda improvizatsiya qilishni bilish zuda zarur.

3. BADIHA

Xalq ogʻzaki ijodi anʼanalari asosida tuyqusdan, birdaniga aytilgan soʻz, sheʼr yoki qoʻshiq. Jahon xalqlari ijodida uchraydi. Muayyan asarni ijro yoki qayta ijro etganda ijodkorning unga kiritgan ijodiy oʻzgartishlari. B. sanʼatning barcha turiga xos boʻlib, tur va janrlar xususiyatiga koʻra turli koʻrinishlarda namoyon boʻladi. B. deganda, koʻp hollarda sheʼriy taʼbga ega, soʻzga chechan kishilarning tayyorgarliksiz, toʻsatdan, qandaydir ichki tugʻyon b-n aytgan jozibali soʻzlari, satrlari tushuniladi.

Lekin har qanday B. yuksak tajriba va iqtidor b-n bogʻliq. Baxshilar, askiyachilar, masxarabozlar, ertakchilar sanʼatida bu yorqin namoyon boʻladi. Hatto xalq ogʻzaki ijodining ayrim janrlari toʻlaligicha B. asosida ijro etiladi (mas, Askiya). Xalq ijodchilari orasida B. sanʼati qadimdan yuksak qadrlanib kelgan. Poʻlkan, Islom shoir, Fozil oʻldosh oʻgʻli, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli va b. baxshi-shoirilar, Yusufjon qiziq, Amin buva, Joʻraxon Sultonov, Abdulxay Maxsum Qozoqov va b. soʻz ustalari ijodida B. asosiy oʻrin tutadi. Yozma adabiyotda B. asosan mushoira tarzida yaratilgan. B.lar yaratish va aytish, ayniqsa Alisher Navoiy zamonida taraqqiy etgan.

Eksprompt, badiha (oldindan tayyorgarlik koʻrmasdan, birdaniga yozilgan asar, soʻzlangan nutq va sh. k. lar).

Choʻlpon, Usmon Nosir, Gʻ. Gʻulom kabi shoirlarimizda badiha kuchli boʻlgan.

Masalan, Gʻ. Gʻulomga Tojikistonga borganda tojikcha gapirishini iltimos qilishganida, kutilmagan bu taklifga shunday javob bergan: “Siz meni oʻzbek, Tursunzodani tojik deyapsizlar. ”Oʻzbekning oti Gʻofur boʻlsa, Tojikning oti Tursun boʻlsa, uning tojikligiyu mening oʻzbekligim qayoqqa borardi. Yoʻq, birodarlar, biz bitta xalqmiz.

Rossiya Bosh Vaziri D. Medvedov (prezidentlik paytida) bir davrada yaxshi improvizatsiya qilgandi. Bir yigʻinda zaldagilardan bir ayol savol bergandi oʻshanda:

- Janob Prezident, Sizdan soʻramoqchi edim, hayotda eng muhim narsa nima deb oʻylaysiz?

- Sevgi (zalda kulgi). – Nima muhim boʻlishi mumkin?. - Sevgi. Yaqinlaringga, Seni oʻrab turgan kishilarga boʻlgan sevgi. Menimcha, bu har qanday aqidaga mos tushadi. Xoh maʼnaviy, xoh diniy boʻlsin. Bu - hayotning maʼnosi. Har birimiz bu soʻz

ma'nosini turlicha tushunamiz. Ammo, bu haqiqatdan ham eng asosiy narsa bo'lsa kerak.

3. Mashhur notiq va ijodkorning so'z qo'llash mahorati

Tilning so'z xazinasi nutqiy ifodalilikning o'ziga xos **asosiy** manbalaridan biridir. Prezidentimiz **Islom Karimovning** tashviqot, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy xarakteridagi ma'ruzalarpi nutqida ham ifodalilik alohida e'tibor beriladi. Ijodkorning o'tkir nigohi, keng tasavvuri, ziyrak kuzatishlari mahsuli sifatida yuzaga kelgan va o'z o'rnida qo'llangan o'xshatishlar, sifatlashlar betakror obrazlarning go'zal ifodachilariga aylanadi, haqqoniy ta'sirli tasvir uchun xizmat qiladi, nutkda kuchli poetik mazmun kasb etadi. Mana bu misollarga e'tibor beraylik:

“Go'yo milliy iftixor bo'lmish paxta, haqiqatda milliy g'urur o'rniga **bo'yinturuq** bo'lib, xalqimizni **yalangoyoq qilishdan**, boshimizga azob-uqubat, ta'na-malomatdan boshqa nima keltirardi?». (*“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”*).

- Men norozilik avj nuqtasiga yetgan, **“bug' qozonni yorib yuborishga kelib qolgan”** vaziyatni nazarda tutyapman.

* * *

Boshqacha aytganda, endi **yelkasiga oftob tegib**, erkin nafas ola boshlagan xalq qullik kishanini qaytadan kiymaydi.

* * *

Bu avlod vakillari o'z Vataniga, **o'zini oq yuvib, oq taragan el-yurtiga qo'l ko'tarishi, unga yomonlik sog'inishi** mumkinmi? Ota-onasini **zor qaqshatib, oqpadar, padarkush** bo'lishi mumkinmi? Dunyodan o'tib ketgan ajdodlarning qabrlarini behurmat qilib, **arvoqlarini chirqiratishi** mumkinmi? O'z nasl-nasabidan, ona yurtidan voz kechishi mumkinmi?

Yo'q. Hyech qachon. Ongli inson, yuragida imon-insofi bor odam aslo bunday qilmaydi. Qilolmaydi.

* * *

Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin, degan gap bor. Men tarixchi emasman. Bu mavzuda aql o'rgatish fikridan mutlaqo yiroqman. Nega shu masalada tarixchilarimiz **og'izlariga talqon solgandek miq etishmaydi?**

* * *

O'zbekning fe'l-atvori hammaga ayon. U yerni, tabiatni sevadi. Do'ppisiga suv tashib bo'lsa ham daraxt ko'kartiradi.

* * *

Xalqimizda **“iligi to'q, baquvvat”** degan tushuncha bejiz paydo bo'lmagan. O'zbek xalqining iligi to'q, baquvvat demoqchiman. Yana tilimizda **“tagli-tugli”**, **“palagi toza”** degan iboralar bor.

* * *

Bu masalalarda shahar hokimiyati o'zining zimmasidagi vazifalarni to'la bajarish uchun, lo'nda qilib aytganda, **o'z aravasini o'zi tortishi kerak.**

* * *

Ma sanga, ma sanga, nima qoldi Hasanga!

* * *

... rahbar aytgan har bir soʻzning oʻz toshu tarozusi bor, togʻday vaʼdalar berib bajarmagan, arzoʻylarning qoʻynini puch yongʻoqqa toʻldirib, ish masʼulligini zimmasiga olmagan rahbarlarga shafqat qilib oʻtirmaymiz.

* * *

Mana shunday oʻta qaltis va murakkab vaziyatda agarki ozgina ehtirosga berilsak, hushyorlikni yoʻqotsak bormi, arzimagan uchqundan oʻt chiqib ketishi hyech gap emasdi.

* * *

Xalqimizning «*Qush uyasida koʻrganini qiladi*», degan dono maqoli, oʻylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi.

Koʻrinadiki, ifodalilik, obrazlilik, ayniqsa, nutqning benihoya zaruriy, badiiylik taʼsirchanlik baxsh etadigan sifatlaridandir. Zotan, aynan shunday nutqda tilning estetik vazifasi birinchi planga chiqadi, butun koʻlami bilan namoyon boʻladi. Bu vazifaning amalga oshishida esa aynan nutqning ifodalilik sifati favqulodda muhim oʻrin tutadi.

Quyida yozuvchi va taniqli notiqning asarlaridan namunalar keltiramiz:

Gʻ.Gʻulom: “Siz meni oʻzbek, Tursunzodani tojik deyapsizlar. ”Oʻzbekning oti Gʻofur boʻlsa, Tojikning oti Tursun boʻlsa. uning tojikligiyu mening oʻzbekligim qayoqqa borardi. Yoʻq, birodarlar, biz bitta xalqimiz.

I.Karimov: Oʻzbek va tojik ikki tilda soʻzlashuvchi bitta xalqdir .

Said Ahmal:

“Kibriyoxonim Abdulla akani chaqmoqday kiyintirib qoʻyardi”.

“Gʻofur Gʻulom etagini silkisa, kulgu toʻkildi. U kirgan xonadonda bir hovli kulgu qoldi”.

“Oybek qarsillab kulib yubordi”.

Askiya – gul ustida ungan gul (A.Qahhor)

Askiya – bamisoli erkaklar hammomi, unga ayollarning kirishi man qilinadi. (Said Ahmad)

Bu kishi toʻnkarilib qolgan qoʻngʻizga oʻxshaydi, oʻnglab qoʻyadiganlarning qoʻlini sasitadi. (A.Qahhor)

“Soʻzni mixday qoqib, qalpogʻini uzib tashla, uni hyech kim sugʻura olmasin”.

D. Karnegining obrazli soʻzi: *Men qulupnayli muzqaymoqni yaxshi koʻraman. Baliq esa chuvalchangni xush koʻradi. Men baliq oviga borar ekanman unga yoqadigan narsani – chuvalchangni olib borishim kerak.*

Martin Lyuter bola paytida juda qaysar va tarbiyasi ogʻir boʻlgan. U oʻzining eʼtirof etishiga koʻra, oʻqituvchilar uni tez-tez - “bir kunda oʻn besh martacha” hivich bilan savalashgan ekan”.

“Oʻjar”, “tarbiyasi ogʻir” kabi soʻzlar diqqatni tortmaydi, ammo xivichlar soni toʻgʻrisidagi maʼlumot juda taʼsirli qabul qilinadi.

Jon Dou “kambagʻal, ammo nomusli ota-onalarning farzandi edi” kabi gaplardan koʻra Jonning otasi oʻziga bir juft kalish olishga qurbi yetmasdi, shuning uchun qor yogʻayotganda oyogʻi sovuq qotmasligi uchun yirtiq botinkasini mato bilan oʻrab olardi. U qanchalik kambagʻal boʻlmasin, hyech qachon sutga suv aralastirib sotmas edi.

5. O, ota makonim, onajon, oʻlkam,

Oʻzbekiston, jonim toʻshay soyangga.

Senday mehribon, yoʻq, seningdek koʻrkam,

Demak, notiq o'z nutqining grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi, adabiy til me'yoriga mos kelishi, mazmunli ham sodda, aniq va ravon, izchil va mantiqli bo'lishiga jiddiy e'tibor berishi kerak. Shundagina uning nutqi tushunarli bo'ladi. Biroq tushunarli bo'lishning o'zi yetmaydi. Nutq ta'sirchan ham bo'lishi kerak. Ta'sirchanlikni esa nutqning to'g'rilik, soddalik, aniqlik, mantiqiylik sifatlarining o'zigina ta'minlay olmaydi. Buning uchun tilning tasviriy vositalarini: metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish kabilarni yaxshi bilish va ulardan foydalanish zarur. Shuningdek,, nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqol, matal, ibora va hikmatli so'zlardan keng foydalanish lozim.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. - T.: "O'zbekiston", 2005. 448 b.
2. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch orttirish va omma oldida so'zlash san'ati. -T.: "Yangi asr avlodi", 2010.-720.
3. Mahmudov N. O'qituvchining nutq madaniyati. -T.: A. Navoiy nomli Milliy kutubxona, 2007.
4. Andreev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya. Izd-vo Kazanskogo universiteta, 1998. - 318 s.
5. Mixalskaya A.K. Основы риторики. - М.: Просвещение, 1996.- 416s.
6. Yudina T.M. Основы культуры речи: Uch.-met posobie. Izd-ye 2-ye, ispravlennoe, Arxangelsk: PGU, 2008.- 32 s.
7. Ipatova I.S. Prakticheskaya ritorika, ili chelovek v kontekste rechi: ucheb. posobie. – Nijniy Novgorod: NGPU, 2004. – 346 s
8. Zaretskaya ye.N. Logika rechi dlya menedjera. – Moskva: «Finpress», 1997. - 352 s. 46, s.261).
9. Shipunov S. Xarizmatichnyy orator. Slovesnaya improvizatsiya.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutq tekniikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqda ovozning ahamiyati qanday?
3. Ohang, to'xtam, urg'aning nutqdagi o'rni?
4. Notiq nutqida improvizatsiya zarurmi?
5. Mashhur notiqnlarning yorqin nutqlaridan namuna keltiring

Internet ma'lumotlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

9-mavzu: MADANIY NUTQNING ETNIK VA SOTSIAL XOSLANGANLIGI

Reja:

1. Tilshunoslikda inson omili tushunchasi.
2. Tilda sotsial rollar haqida.
3. Gender rollar xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar:

inson omili, sotsial rollar, etnik madaniyat

Atrofga nazar tashlang. Diqqat qilsangiz, tevaragingizdagi rang-baranglik va turli-tumanliklardan boshingiz aylanmaydimi? Biri ikkinchisini aynan takrorlaydigan narsani topishingiz esa dargumon. Tabiat, jamiyat va shuurimizdagi har xilliklarni ko'z oldingizga keltiring. Tevaragimizdagi odamlar-chi? Tashqi ko'rinishi, tili, dini, fikri, orzu, maqsad, armonlari, muomala-yu munosabatlari...Tasavvuringizni tafakkur izmiga bo'ysundirmasdan ilojingiz yo'q. Ana shu sharoitda muloqot madaniyatining roli va o'rni qay darajada bo'lishi lozim? Jamiyatda o'z o'rini topish va uni saqlash ilinjidagi har bir zot uchun bu masala "yo hayot, yo mamot, yo najot yo falokat, yo saodat, yo halokat" maqomida ekanligini inkor qiluvchi topilarmikin? Bu holat "ong osti" yoki "ong usti" kabi ayqash iboralar bilan ham tushuntirilishi mumkin. Ruslarda bir maqol bor: inson uchun nondan keyingi eng aziz narsa maktabdir. Xo'sh, ushbu o'rinda *maktab* so'zini ko'chma ma'noda tushunish, uni muloqot maktabi ko'rinishida qabul qilishga intilish o'zini oqlamaydimi?

Biz murakkab tarkibli mamlakatda yashaymiz. Turli millat, etnos, din va diniy konfessiyalar, qarashlar va oqimlar mavjudligi yurtimizning etnik jihatdan marginalligi bilan belgilanadi. Bu esa kishilarning muloqot madaniyatiga muayyan talablarni qo'yadi, o'zaro muloqotda o'ta nozik etnomadaniy va etnopsixologik tamoyillarga nisbatan juda hushyor munosbatda bo'lishni taqozo qiladi.

Har bir inson o'z muloqot faoliyatida "qovun tushirmaslik"ka qanchalik urinmasin, xatolardan xoli bo'lishi dargumon. Shu boisdan ta'lim-tarbiya (o'z-o'zini tarbiyalash ham) vazifalari zimmasida ana shu xatolardan saqlanish, o'zaro muloqot faoliyatida xatoliklarning oldini olishga doir umumiy tavsiyalar ishlab chiqish, to'g'ri muloqot strategiyasini tanlashda ichki ishonch hamda malaka va ko'nikmalarni shakllantirish turadi. Bu ayniqsa, rasmiy va ishbilarmonlar uchrashuvlarida, xizmatchilikda, tadbir va marosimlarda alohida ahamiyatga ega. Masalan, amerikalik ishbilarmon yoki rasmiy vakil muzokaradan so'ng erkin bo'lishga qulaylik uchun oyoqlarining birini ikkinchisining ustiga qo'yib o'tirishga odatlangan. Biroq bu holatni bepisandlik deb bilgan yapon ishbilarmoni hatto qo'lga kiritilgan kelishuvdan voz kechishi mumkin. Yapon milliy-ruhiy stereotip tizimida bunday holat yo'q.

Muloqotning bosh formulasi shunday: "Har bir ibodatxonaning o'z nizomi bor." Biz uchun o'zga hayot va turmush tarzining ayrim qirralari yoqmasligi mumkin. Ammo buni "ota go'ri qozixona" darajasiga ko'tarish yaramaydi. To'g'ri, ayrim hollarda o'z muloqot mezonlarimizga mos kelmaydigan ko'p narsalarni kechirishga hamisha tayyormiz. Lekin ba'zan "suyukli yara"mizga tegishlarini mutlaqo istamaymiz. Kavkazlik taniqli artist Mahmud Esambaev hyech qachon, xatto Oliy Sovet majlisida ham telpagini yechmay o'tirgan. Qancha urinishsa-da, u bu odatini

tark etmagan. Oxiri odamlar ko'nikib ketishdi, hatto uni telpaksiz tasavvur ham qilolmay qolishdi.

Muloqot formulalari yo'l harakat qoidalaridan-da qat'iyligi bilan xarakterlanadi. Zero yo'l qoidasini buzib, avtomillar bilan tirband yo'ldan hyech kimga ziyon bermasdan va hyech narsa yo'qotmasdan eson-omon o'tib ketish mumkin. Biroq muloqot formulasini buzish hurmat-etiborning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Endi uni tiklashga harakat qilib ko'ring-chi? Buning uchun o'zgalarning siz bilan muloqotidagi og'rintirgan holatlarini eslang. Yo dini, yo tili, yo jinsi, yo yoshi, yo saviyasi, yo qarashlari yoxud lavozim darajasi boshqa kishi siz bilan muloqotda madaniy tasavvuringizdan go'yo chetga chiqqan edi. Aniqrog'i, siz amal qiladigan muloqot madaniyati qoliplaridan. Go'yo sizning shaxsingiz hurmat qilinmagan, suhbatdosh muloqot odobini buzgan edi-ku! O'zgaga siz tomoningizdan ham berilishi mumkin bo'lgan ozor dilingizni og'ritgan edi. Demak, bunda "O'zingga qaytishini istamagan narsangni o'zga qila ko'rma?" formulasiga rioya qilinmagan edi.

Tilshunoslikka "inson omili" tushunchasining kirib kelishi fanimiz o'z taraqqiyotining yangi pillapoyasiga qadam qo'yganligidan dalolat beradi. Zero, bugungi kunda tilga immanent mavujudlik sifatida qaraydigan, uni "til o'zida", "til til uchun" tamoyili asosida o'rganadigan tilshunoslik o'z o'rnini tilni inson bilan, uning ongi, tafakkuri, ruhiy-amaliy faoliyati bilan bog'lab talqin qiladigan antropologik tilshunoslikka bo'shatib bermoqda. Tilshunoslik lisoniy faoliyat va unda shaxsiy omilning namoyon bo'lish aspektlarini chuqur o'rganish sari yuz tutayotganligi kuzatilmoqda. Shuning uchun adresant va adresat nutqining o'ziga xos xususiyati va o'zaro munosabati, ular shaxsiy manfaatlarining kommunikatsiya jarayonida to'qnashuvi hamda shaxsiy xususiyatlarning muloqot sifati va yo'nalishiga ta'sirini o'rganishning yangi-yangi yo'nalishlari namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda tilda inson omili, til va insoniy faoliyat, tilda inson va til insonda masalalarini o'rganishga intilishlar bejiz emas. Bu intilishlar, umuman olganda, ilmiy bilimlarning gumanistik xarakter kasb etishi, fanning "insoniylashishi" umumiy tendensiyasi kuchayayotganligi bilan ham belgilanadi. O'ziga xos insoniy fenomen sifatidagi tilning mohiyatiga kengroq, aniqrog'i, fanlararo ob'ekt sifatida chuqurroq kirib borish, shu asosda shaxs tabiatini, uning sotsium va etnosdagi o'rnini, intellektual va ijodiy imkoniyatlarini o'rganish, umuman olganda, inson nima degan savolga javob izlash qiziqarlidir.

Inson omili tarkibiga quyidagilarni kiritamiz:

1) kishilarning lisoniy imkoniyati, ya'ni muloqot jarayonida foydalanadigan muayyan lisoniy kod haqidagi bilimlari;

2) milliy mansubligi;

3) ijtimoiy-madaniy mavqeyi (sotsial mansubligi, kasbi, lavozimi, madaniy saviyasi va urf-odatlarini, ma'lumot darajasi, yashash joyi, oilaviy ahvoli);

4) biologik-fiziologik belgilari (jinsi, yoshi, sog'ligi, jismoniy nuqsonlari bor-yo'qligi);

5) psixologik tipi (mijozi, fe'l-atvori, ruhiy belgilari);

6) muloqot jarayonidagi ruhiy holati (kayfiyati, muloqot mavzusi haqidagi bilimi, maqsad va qiziqishlari);

7) kommunikantlarning tanishlik darajasi;

8) did-farosati, ishtiyoq va odatlari;

9) tashqi ko'rinishi (kiyinishi, qiliqlari va h.).

Har xil sotsiumda bu belgilar bir xil qiymatga ega bo'lmaydi va shuning uchun ular nutqiy muloqotda har xil darajada aks etadi, ammo bir butun holda kommunikativ ahamiyatli belgilar majmuini tashkil qiladi.

Inson (individ) shaxs sifatida faqat sotsiumda, kishilar bilan muloqotda namoyon bo'ladi. Shaxs — bu sotsiallasuv jarayonida, jamiyatda, jamiyatning boshqa a'zolari bilan birgalikda moddiy va ma'naviy, shuningdek, lisoniy qadriyatlar yaratuvchisi sifatida o'z insoniy mohiyatiga ega bo'lgan odamdir.

Muloqotning bir ko'rinishi nutqiy muloqot va bunda inson lisoniy shaxs sifatida qaraladi. Psixologiyada shaxs biologik, sotsial va tabiiy muhit hamda sharoit bilan bog'liq, nisbatan barqaror mavjudlik sifatida baholanadi. Lisoniy shaxsning muhim sifatlaridan biri uning tildan foydalanish qobiliyatiga egaligi, shuningdek, muayyan vaziyat, maqsad va kommunikantlarga ega bo'lgan dialogga erkin kirisha olishidir (dialog esa nutqiy o'zaro ta'sir bo'lib, muayyan ijtimoiy muhitda o'zining muayyan qoida va me'yorlarga ega bo'ladi).

Sotsial o'zaro ta'sir modeli tilimizda aks etgan. Lisoniy shaxs jamiyatda muayyan sotsial rolni bajarib, muayyan sotsial tutumga ega bo'ladi. Har bir rivojlangan til rollar uchun belgilangan ifodalariga ega (ona, ota, o'qituvchi, erkak, ayol). Inglizcha va olmoncha adabiyotlarda ayolning kasbi, lavozimi, millatini atash uchun maxsus so'zlardan foydalaniladi. Masalan, ingliz tilida *congressman, man and wife* so'zlari o'rnida *member of Congress, husband and wife*, nemis tilida *Herrn und Frau Meyer, Liebe Kollegen* o'rnida *Herrn und Frau Meyer, Liebe Kollegen und Kolleginnen*. Rus tilida ham *studentka, aspirantka, opponentka* so'zlari mavjud. Ma'lum bir sotsial rolni ifodalash uchun xoslangan murojaat birligining noto'g'ri tanlanishi nutqiy muloqotning muvaffaqiyatsizligiga olib keladi.

Misol (transportda):

— *Babushka, Vy vyxodite?*

— *Kakaya ya Vam babushka?!*

Sotsial rollar erkak va ayollarga turlicha taqsimlangan. Shuning uchun nafaqat rol, balki gender rollari haqida gapirmoq lozim, zero axloq me'yorlari ayollar va erkaklar uchun o'ziga xosdir.

Kutim sotsial rollarning muhim uzvlaridan biridir. Atrofdagilar u yoki bu muayyan vaziyatda individ xulqidan nima kutishsa, shuni talab qilishga haqli. Individ esa talabga moslashishga majbur. Ma'lum bir rolga berkitilgan majburiyatlardan u yoki bu darajadagi chekinish sotsial axloq me'yorlarini buzish sanaladi. Masalan, maktab o'qituvchisi o'z kasbiy roli nuqtai nazaridan o'quvchilarga bilim berishga majbur, shuning uchun o'quvchilar undan bilim va o'qituvchi ulardan diqqat va sabr-toqat talab qilishga haqli.

Nutqiy xulq sotsial rollar bilan bog'liq (ayol – uy bekasi, ona, xotin; erkak – oila boshlig'i, boquvchi). Ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlashicha, erkaklar sotsial va jismoniy qudratni, ayollar esa nazokatni talab qiluvchi rollarga moyildirlar. Masalan, muayyan mavzudagi suhbat davomida ayollarga xos, to'satdan paydo bo'lgan shunday matn qurilishi mavjudki, asosiy muloqot mavzusiga daxldor bo'lmagan, lekin muloqot vaziyati tug'diradigan bu holat ayollarning sotsial rollariga bog'liq ravishda yuzaga keladi. Belgilangan rolning doimiy bajarilishi ayollarning tipik xulqida o'z izlarini qoldiradi, nutqiy xulq strategiyasi va taktikasiga ta'sir qiladi. Misollar:

(Ikki ayol siyosat haqida suhbatlashishyapti):

A. (uzr so‘rab): *Kechiring, xavotir olyapman, u yerda (oshxonada) nimadir kuyayapti.*

B. *Mayli, boring, bora qoling.*

(Er va xotin telefonda suhbatlashishyapti):

Er. *Men bu masalani ancha o‘yladim. Aytish mumkinki, umrim davomida.*

Xotin. (uzr so‘rab) *Kechirasiz, men gazni o‘chiray!*

Mavzudan qochish nafaqat maishiy suhbatlarda, balki qat’iy qonun-qoida va me’yorlarga rioya qilish shart bo‘lgan rasmiy doirlarda ham yuz beradi. Masalan, rasmiy vaziyatlarda ham undan “juda uzoq bo‘lgan” quyidagi gaplarni eshitish mumkin: *Mana shu rang sizga yaxshi ketibdi!, Koftangiz juda chiroyli ekan!.* Bemorga kelgan “Tez yordam” xodimi uning yurak urishini tekshirayotib shunday deydi: *Manavi materialni qanchaga olgansiz?*

Ta’sirchanlik, atrofda bo‘layotgan hodisalarga ochiqcha munosabat, bir mavzudan boshqasiga tez o‘tish qobiliyati boshqa bir vazifa amalga oshirilayotganda ona va uy bekasi rolini tabiiy bajarish imkoniyatini berishi politsiya komissari bilan dialogda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

— *Shunday qilib Luiza siznikida yashaganmi?*

— *O‘tirib oling, janob. Qyechirasiz, chaqaloqqa bo‘tqa qaynatib olsam degandim. Uy juda issiq – tortinmang, paltoni yeching. Siz, ehtimol, kechagi xizmat bo‘limidan emasmisiz? O‘zi, men buni nega so‘rayapman? Tavba, menga daxli yo‘q-ku.* (J.Simenon)

Erkaklarga bunday muloqot xulqi mutlaqo xos emas deb bo‘lmasa-da, tipik sotsial rolining xususiyatlari ularni bunday holatga kamdan-kam tushiradi. Bu erkaklarning uy bekasi rolini bajarayotib, manzirat qilish chog‘ida yuz beradi.

Masalan, (kino haqida umumiy suhbat ketyapti. A. oshxonaga chiqib, qaytar ekan):

— *Olmani unutibmiz-ku! yenglar, olib o‘tiringlar! Qani, hamma olsin* (suhbat davom etadi, gaplashib, olma yeyishadi; yangi mavzu paydo bo‘ladi — badiiy ko‘rgazma). — *Mana, choy ham tayyor! Hind choyi, Hindistonning o‘zidan keltirishdi.*

Erkaklar muloqot xulqida muhim bir holat bo‘lib, uni “psixologik karlik” deyish mumkin. Bunda shu nazarda tutiladi: erkaklar qandaydir qiziq mavzu ustida suhbatlashishayotganda (sport, siyosat va h.) ular atrofida bo‘layotgan narsalarga e’tibor berishmaydi, payqashmaydi ham. Albatta, hamma erkaklarga ham xos emas, ko‘pgina erkalar, atrof-muhit vaziyatidan uzila olishmaydi. Ammo psixologik karlik faqat erkaklarga xos tipik xususiyat emas.

Masalan: (Oila kechki ovqatga yig‘ilgan. Ota va o‘g‘il yangi mashina haqida qizg‘in suhbatlashishyapti. Ona ularga yuzlanadi)

Ona: *Stolni tortinglar, ovqat kutib qoldi.*

(Erkaklar e’tibor berishmaydi. Ona qaytaradi.)

Ona: *Eshitmayapsizlarmi?*

O‘g‘il: *Axir, biz gaplashayapmiz-ku.*

Har bir rivojlangan til har xil sotsial rolga xizmat qiluvchi o‘ziga xos vositalarga ega. Bunga kasbiy rolni bajarish chog‘ida umumiste’mol nutqiy vositaning qo‘llanishi chegaralangan vositaga almashinuvi misol. Erkak nutqida, ayol nutqiga nisbatan, «professiya» faktorining kuchi ko‘proq kuzatiladi. Bu, ayniqsa, professional leksikani

ehtiyojdan ko‘proq qo‘llashida ko‘zga tashlanadi. Bunda to‘liq bo‘lmasa-da, ma'lum darajada nutqiy vositalar almashinuvini kuzatish mumkin. Masalan:

A.(Matematik) *O‘rtoqlar, bu masalada umumiy maxrajga kelishimiz kerak*

B.(Tilshunos) *Bu ishni kim nazorat qiladi, axir ega ham yo‘q, kesim ham, faqat biz – ikkinchi darajali bo‘laklar.*

Erkaklar suhbatlashayotganda maishiy (“mayda”, turmush ikir-chikirlariga oid) mavzularga “burilish”ni ko‘p hollarda yoqtirishmaydi. Ayniqsa, hamsuhbat ham erkak bo‘lib, “erkakchasiga” suhbatlashilayotganda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu xulqiy yo‘nalish erkak va ayollarning bir mavzuga har xil munosabatda bo‘lishi bilan belgilanadi — masalan, maishiy mavzu ayollar uchun qiziqarli va muhim, erkaklar uchun esa ahamiyatsiz.

Ayollarda atrof-muhitga va nutq mavzusiga munosabat butunlay boshqacha. Hatto oliy ma'lumotli, ilmiy darajali va unvonli ayollar ham ham o‘zlarini hych qachon oilaviy, maishiy masalalardan uzilgan deb hisoblamaydilar va ularga ikkinchi darajali munosabatda bo‘lmaydilar. Erkaklar esa bola tarbiyasi, oila yumushlari bilan shug‘ulanayotib ham bu ishlarning unga xos emasligini chuqur his etib, eng og‘ir, asosiy ishiga xalaqit beradigan “dahmaza” ekanligini ta'kidlab turadilar. Ana shu hayotiy tutum ularning jiddiy suhbatlarini bo‘luvchi konsituativ mavzuga salbiy munosabatining mohiyatini belgilaydi.

Demak, sotsial individning mohiyatiga daxldor bo‘lgan nutqiy xulq masalasini insonning har bir kommunikativ aktda o‘ynaydigan rollarini (xususan, gender) e'tiborga olmasdan tahlil qilib bo‘lmaydi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Etnos nima?
- 2.Etnomadaniyat deganda nimani tushunasiz?
- 3.Madaniy nutqning etnik xoslanganligiga misol keltiring.
- 4.Nutqning ijtimoiy xoslanishi haqida nimalarni bilasiz?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOtlAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – Toshkent: Navro‘z, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
4. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: Adolat, 2004.
11. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
12. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho‘lpon, 2012.
15. Jumaxo‘ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.
16. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B. 224.
17. Tojiev Yo., Mallaboev M.. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.
18. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
19. Rahmatullaev Sh.. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. –B. 53.
20. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: Universitet, 1996, 39- b.
21. Inomxo‘jaev S. O‘tmish sharq notiqligi. – Toshkent: Bilim, 1972.
22. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet ma'lumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.thinsan.com
25. www.uforum.uz
26. www.literature.uz

10-mavzu: MUTQ MADANIYATI VA TILINING TASVIRIY VOSITALARI: KO'CHIMLAR

Reja:

1. Metafora, metonimiya, sinekdoxa.
2. Kinoya.
3. Perifraz.
4. Mubolag'a, grotesk, kichraytirish.

Tayanch tushunchalar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, perifraz, mubolag'a, grotesk, kichraytirish.

Ko'chimlar deyilganda «adabiy asarrting badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi» nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqye bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. **Ko'chimlar** deyarli ko'pchilik adabiyotlarda «**troplar**» atamasi ostida o'rganilgan. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan:

«1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar:

a) giperbola; b) meyozis.

2. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar:

a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya».

Qolgan tasviriy vositalar mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa - metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet - metonimiyaning; antifraza, sarkazm - ironiyaning; litota - meyozisning ko'rinishlaridir».

Metafora. Narsa-buyum, voqyea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga *metafora* deyiladi.

Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda «*istiora*» deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: *lingvistik metafora* va *xususiy-muallif metaforalari*.

Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. «Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subektiv munosabat aks etmaydi». Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi.

Masalan: *odamning oyog'i - stolning oyog'i, odamning ko'zi - uzukning ko'zi, ko'ylaknirig etagi - tog'ning etagi* kabi.

Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqyelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. *Xususiy-muallif metaforalarida* hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. «Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. **Masalan**, *ot, eshak, qo'y, it, bo'ri*,

tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo'yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko'zi o'tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi, natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi».

Metafora bilan o'xshatish konstruktsiyaning o'zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o'tiladi: 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi. 2. O'xshatishda ikki komponent - o'xshatiluvchi obekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4.

O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: *-dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o'xshamoq* va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: *Karim tulkiday ayyor odam*. O'xshatish konstruktsiya. Bunda Karim - o'xshatish subekti, tulkiday - o'xshatish etaloni, ayyor - o'xshatish asosi, -day - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. Karim - tulki. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. *Voy, tulki-yey...* (Karimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu metafora hisoblanadi. Chunki, Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti. Metaforalarga misollar:

Eshhak, bu nima qilganing? 2. Qamoqxonalarning «telegrafi» (gap tashuvchi, ayg'oqchi) juda aniq ishlaydi. 3. - Ko'ksiga pishoq sanchibdi, -dedi barak navbatchisi. -Battar bo'lsin! Itga it o'limi. Mahbuslar baribir uni tirik qo'yishmasdi. 4. - Oshga pashsha tushdi, aka! - dedi qo'rqa-pisa... «Devoriy gazeta» o'lgur keldi. 5. Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi. (A.Qodiriy)

Jonlantirish ham metofara turi sifatida qayd qilinadi. U badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san'atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: «*Jonlantirish* - istioraning bir ko'rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir».

«O'zbek tili stilistikasi»da ham «kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi»ga jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan: 1. Tashxis - shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqyelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir ob'ektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqyelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyidagi she'riy parchada muallif «kuz»ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqyelikka munosabatini faollashtiradi:

Nimani xohlayman? Istagim nima?

Changalzor shovqinin tinglab turaman.

Yaproqlar bandida kezgan jimgina

Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.

Uning qo‘shig‘ida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbin gohida. (A.Oripov)

Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo‘lish ham jonlantirishning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa **apastrofa** deb yuritiladi. *Bunda narsa - buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi.* Bu usuldan qahramonning hych kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi.

Masalan: Osmonga intilgan daraxtlar, ildizingiz yerdaligini bila turib, kelib-kelib sizni quchgan ko‘k bag‘rini tilasizmi? Har bahor yashillikka aldanganingizni xazon pallasida sezmayisizmi yo hammasini bila turib, hammasini seza turib shamol izniga bo‘ysunasiz, shitirlaysiz. (Y. Akram)

Intoq - nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she‘r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko‘p qo‘llaniladi. Intoq san‘atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba‘zi qusurlar, kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko‘rsatib beriladi. yevropa adabiyotshunoslik ilmda **allegoriya** deb ataladigan ko‘chim ham «gapirtirish» usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda «hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O‘quvchi esa asosiy e‘tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya‘ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori». Muxtor Xudoyqulovning «Sher bilan pashsha» deb nomlangan masalida ham ayrim insonlarga xos maqtanchoqlik, yolg‘on ishlatib bo‘lsa ham obro‘ topishga urinish illati obrazli ifodasini topgan: Bir pashsha Sherning qulog‘iga bir zum qo‘ndi-yu, uchib ketdi. So‘ng ko‘ringanga maqtandi: - Biz sher bilan juda yaqinmiz, ko‘p masalalarda u men bilan maslahatlashib turadi... Pashshalarga ishonmang!

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa- tushunchaga o‘xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko‘chma ma‘no yuzaga keladi. Masalan: *Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og‘ir tush, og‘ir gap, og‘ir masala* kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, yengil, og‘ir sifatlarida sinestetik metafora sodir bo‘lgan. Maza-ta‘m ma‘nosini bildiruvchi «shirin» va o‘lchovni ifodalovchi «engil» so‘zlari «yoqimli» ma‘nosida, «og‘ir» so‘zi esa «yoqimsiz» ma‘nosida kelgan.

Metonimiya deb voqyea-hodisa, narsa-buyumlar o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlik va bog‘liqlik asosida ma‘no ko‘shishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o‘xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo‘lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o‘xshamagan) predmetlarning belgilari chog‘ishtiriladi». Masalan:...yaxshiliqmi, yomonliqmi haytovur bo‘ladirgan ko‘ngilsiz gapni kechikkani yaxshi... Fuzuliyni yaxshilab o‘qush kerak. (A.Qodiriy) Ushbu gapda muallif va uning

asarlari o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanib «asar» muallif nomi bilan qayta nomlanayti.

Yoki: Saroy tinch uyquda, tun yarim (A.Qodiriy). Bu misolda «saroy» so'zi orqali «saroydagi odamlar» ma'nosi ham ifodalangan. Yana: Zal oyoqqa turdi (Zaldagi odamlar turdi).

Sinekdoxa deb butun bo'lak munosabatiga asoslanuvchi ma'no ko'chishiga aytiladi. Adabiyotlarda «ko'plik o'rnida birlik yoxud birlik o'rnida ko'plik shakllarini qo'llash yo'li bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkin»ligi aytilgan. *Daraxtlar sarg'aydi, olma gulladi, qo'limni kesib oldim* birikmalarida butunning nomi bilan bo'lak; *har ishga burnini suqmoq, tirnoqqa zor, jamoaning qo'li baland keldi* kabi birikmalarda qismning nomi bilan butun ifodalanyapti. Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta'minlash maqsadida foydalaniladi.

Kinoya deb «til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, *kesatiq, qochirim, piching* bilan ishlatishdan iborat ko'chim»ga aytiladi. Kinoya qadimdan adabiyotimizda ta'sirchan ifodalar yaratishda qo'llanilib kelingan. yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa «*ironiya*» atamasi ostida umumlashtiriladi. Uning *antifraza* (masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo'li bilan inkor qilish) hamda *sarkazm* (zaharxanda ta'na, istehzoli piching, shama, uchiriq) deb ataluvchi ko'rinishlari farqlanadi. Mohir so'z ustasi, xalqimizning ardoqii adibi Abdulla Qahhor asarlarida kinoyaning nodir namunalarini uchratish mumkin. U «Mayiz yemagan xotin», «Adabiyot muallimi», «Nutq» kabi hajviy hikoya va fel'etonlarida kinoyaning turli ko'rinishlaridan foydalangan holda betakror obrazlar yaratgan. Masalan, adibning «Mayiz yemagan xotin» hikoyasidagi ironik bo'yoqlarda tasvirlangan Mulla Norqo'zi ana shunday obrazlardan hisoblanadi: «*Ayol kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi, bas!.. Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi - shu og'iz chayqashdan bahra oladi-da! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o'g'ii bir hovuch mayiz berganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li - xo'p yo'l. O'n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'litiqqa ura bering. Paranj hayoning pardasi-da!*».

Perifraz deb ataluvchi *tasviriy ifodalar* ham badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. **Perifraz** deb «narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash»ga aytiladi. Shuni unutmash kerakki, har qanday narsa-hodisa nomini boshqa ibora bilan atayverish kutilgan effektini bermaydi. Atalayotgan hodisa bilan yangi nom-ibora o'rtasida mazmuniy yaqinlik bo'lishi lozim.

Masalan, *uchuvchilar - samo lochiniari, akula - suv osti hukmdori, sher - hayvonlar sultoni, Samarqand - Sharq darvozasi, teatr - ma'naviyat o'chog'i, yoshlik - sevgi fasli* kabi.

Mubolag'a, grotesk va kichraytirish. Narsalarni, voqeya va hodisalarni, histuyg'ularni, belgi-xususiyatlarni o'ta bo'rttirib tasvirlashga *mubolag'a* (yoki *giperbola*) deyiladi. Mubolag'a ham tasvirning ta'sirchan chiqishiga, obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi. «Mubolag'aning so'z ma'nosining ko'chishiga asoslanishi uning troplar guruhiga mansubligini ko'rsatsa ham, u tropning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Chunki tropning boshqa ko'rinishlarida ko'chma ma'no ma'lum bir belgi asosida

o'xshatish, taqqoslash, voqyea-hodisa yoki predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra bo'lsa, mubolag'a esa to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab etadi». Mubolag'aga asoslangan ko'chim badiiy matnga nutq predmetiga nisbatan tinglovchi yoki kitobxon e'tiborini tortish va nutqning emotsional-ekspresivligini ta'minlash maqsadi bilan olib kiriladi. Mubolag'ada ifodalanayotgan axborot tabiiyki, hayot haqiqatiga mos kelmaydi. Lekin me'yor buzilsa, kutilgan effektga erishilmasligi ham mumkin. Aslida «mubolag'ali nutqning asosiy maqsadi axborot berish emas, balki, tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir qilishdir».

Masalan, quyidagi parchada yozuvchi qahramon portretini mubolag'ador qilib tasvirlash orqali komik effekt yaratishga muvaffaq bo'lgan:

Mahallamizda Mamajon lo'mboz degan devdek kishi bo'lardi. Bo'yi unchalik daroz emasdi-ku, ammo eniga qarichlab o'lchasa, ikki gazdan oshiq chiqardi. O'tirganda dumbasi quymoqqa o'xshab yoyilib ketib uch gazga doira yasardi. Qorni shu qadar osilib ketganki, o'tirganda yerga yozsa bir ko'rpachalik joyga nari ketib qolardi. Kindigi qichiganda qo'li yetmay, otashkurak bilan qashlardi. (S,Ahmad)

Mubolag'a yo'li bilan komik effekt yaratishning yana bir usuli **grotesk** deb ataladi. «Grotesk fransuzcha so'z bo'lib, **kulgili, g'ayri tabiiy** degan ma'nolarni bildiradi. Grotesk satirada haqiqiy holni fantaziya bilan qo'shib vahimali hamda kulgili tarzda bo'rttirib tasvirlashdir. Grotesk haqiqatni inkor etmaydi, balki haqiqatni haqiqatsimon g'ayri tabiiy shakllarda yana-da ta'sirliroq ifodalash san'atidir». Abdulla Qahhorning ko'pgina feletonlarida turmushda uchrab turadigan salbiy holatlar, ijtimoiy va ma'naviy illatlar grotesk usulida oshkor qilinadi. Adibning «Bildirish» deb nomlangan feletonida o'zini duoxon va tabib deb atab odamlarni laqillatishni kasb qilib olgan "Cho'loq domla" haqida so'z boradi. U qabul qiladigan kasallar ham, tavsiya qiladigan dori-darmon ham, ish tarzi ham g'ayri tabiiy tarzda ifodalanadi: Qabul qiladigan kasallar: Kindigiga bod to'xtagan, ko'kragi shishgan, tug'maydigan xotinlar, ishq dardiga mubtalo bo'lgan laylilar, majnunlar, parilar, yuk tashlagan kelinlar. Ayniqsa, xazonrezgi, toshqizig'i vaqtida qaytalanadigan jinni hamda arvoh urganlar va boshqalar... Dorilardan namunalar: Qo'ziqorinning bargi, havoning yog'i so'ngra mo'rining qurumi, chilimning suvi, aravaning g'ij-g'iji va bundan bo'lak turli-tuman atorning qutisida yo'q dori-darmonlar.

Jinnilarni tuzatish borasidagi ikki so'nggi tajribamiz Qo'qonning Mirtohir mahallasidagi dong'li bir jinni ustida bo'ladi. Tashreh uchun sakkizta belkurak, yettita ketmon buyuriladi. Dori uchun eng munosib Hamroqulov qorining ashula aytganda chiqargan teri lozim ko'riladi.

Kichraytirish (litota) deganda mubolag'aning aksi tushuniladi. «Lekin mohiyat e'tibori bilan ular qarama-qarshi hodisalar emas, har ikkisi ham voqyelikni haddan tashqari kuchaytirib tasvirlashga xizmat qiladi, faqat ularning ifodalanish usulida farq bor: giperbolada voqyelik to'g'ridan - to'g'ri, bevosita bo'rttirib ko'rsatilsa, litotada biror voqyelikni kichraytirish vositasida beriladi». - Tilimni qichitma, jo'jaxo'roz! Aytmadimmi, kuzda qiyqillab stolning tagiga kirib ketasan, deb... Eh-ye, sening xo'roz bo'lishingga hali o'n to'rt prosent bor (A.Qahhor). Bunda qarshidagi insonni «jo'jaxo'roz» deb kichraytirish orqali o'zining kuchli ekanligi ta'kidlanayapti. Yoki, quyida berilgan misoldagi birinchi lofchi mubolag'adan foydalangan bo'lsa, ikkinchisining nutqida kichraytirish va mubolag'a birdaniga kuzatiladi, hatto

mubolag'a orqali birinchi obekt yo'qqa chiqarilyapti: Bir lofchi ikkinchi lofchining uyiga kelib dedi:

Sizga bir gilamni sovg'a qilib keltirdim, uning bir uchi bu yerda bo'lsa, ikkinchi uchi Samarqandda turibdi.

Ikkinchi lofchi unga darhol javob berdi:

Rahmat, yaxshi qilibsan, mehmonxonadagi gilamning ozgina yeriga o't tushib kuygan edi, sen sovg'a qilgan gilamni o'shanga yamoq qilaman.

SAVOL VA TOPSHRIQLAR:

1. Nutqda metafora qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
2. Metonimiyaning nutqdagi vazifasi qanday?
3. Sinekdoxa qanday maqsadlarda ishlatiladi?
4. Kinoya nima ?
5. Nutqda perifrazdan foydalanishning ahamiyati?
6. Mubolag'a va undan nutqda foydalanishdagi me'yor?
7. Nutqda grotesk va kichraytirish qanday maqsadlarda foydalaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni).-T., TDPU., 2000.
2. Badiiy matnning lisoniy tahlili: metodik qo'llanma -T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. - 112 6.
3. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekst-ning lingvistik tahlili.- T:«O'qituvchi»,1990. -219 b.
4. Qo'ng'irov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T: «O'qituvchi», 1992.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: «O'ME»., 2002.

Internet ma'lumotlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

NAZORAT SAVOLLARI

1 -variant

1. «Nutq madaniyati» kursining maqsad va vazifalari
2. O'zbek adabiy tili va nutq madaniyati
3. O'qituvchining ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari
4. Nutq madaniyati va uslubiyat

2-variant

1. Nutq madaniyati va notiqlik san'atining tarixiy ildizlari

2. O'qituvchi nutqining sofligi
3. Qadimgi Gretsiya (Yunoniston) va Rimda nutq madaniyati nazariyasining asoslanishi.
4. Alisher Navoiy notiqlik san'atining buyuk targ'ibotchisi

3-variant

1. Nutq madaniyati va me'yor.
2. O'qituvchi nutq madaniyati fanning boshqa fanlar bilan aloqasi
3. G'arb madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni
4. O'qituvchi nutqining mantiqiyligi.

4-variant

1. Adabiy til me'yor va nutq madaniyati
2. Nutqning og'zaki va yozma shakllari va ularning xususiyatlari
3. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari.
4. O'qituvchi nutqining ilmiy-pedagogik xususiyatlari

5-variant

1. Til va madaniyat izviyligi
2. Madaniy nutq mezonlari
3. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Tilning tasviriy vositalari – parafrazalar asosida matn yarating.

6-variant

1. Sharq mutafakkirlari nutq odobi haqida
2. O'qituvchi nutqining mantiqiyligi
3. G'arb madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni
4. Kaykovus suxandonlik xususida

7-variant

1. Nutq uslubi turlari. So'zlashuv uslubi
2. Nutq jarayonida sinonimlardan foydalanish
3. O'zbek adabiy tili va nutq madaniyati
4. Notiqlik san'atiga munosabat bildiring.

8-variant

1. Nutq madaniyatining va gramatik uslubiyat
2. Metonimiya asosida ma'no ko'chishi
3. Ilmiy uslubning o'ziga xosligi
4. G'arb madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni

9-variant

1. Adabiy norma va me'yor
2. Xalq og'zaki ijodida nutq odobi masalalari
3. Nutq madaniyati va notiqlik san'atining tarixiy ildizlari
4. Nutq jarayonida antonimlardan foydalanish

10-variant

1. Navoiy ijodida odob va rost so'zlash masalalari.
2. Nutqning asosiy xususiyatlari
3. Qadimgi Rim va Gretsiyada notiqlik san'ati haqida
4. A.Qodiriy asarlarida milliy muomala masalalarining yoritilishi.

11-variant

1. A.Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san'ati masalalari
2. Shaxs ma'naviyati va ijtimoiy faolligini shakillantirishda so'zning roli
3. G'arb madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni
4. "Hayrat ul-abror" asarida nutq madaniyati masalalari.

12-variant

1. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati
2. Qadimgi Yunoniston va Rim notiqligi
3. A.Qodiriy "O'tgan kunlar" asarlarida milliy muomala madaniyatining ko'rinishi.
4. Tilning tasviriy vositalari – parafrazalar asosida matn yarating.

13-variant

1. Navoiy ijodida odob va rost so'zlash masalalari.
2. Nutqning sofliqi, boyiigi ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati
3. Qadimgi Yunoniston va Rim notiqligi
4. Ritorika. Omma oldidagi chiqishlar va ma'ruzalarda nutq madaniyati

14-variant

1. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy asarlarida nutq odobi masalalari
2. Qadimgi Yunoniston va Rim notiqligi
3. Nutq madaniyati va uslubiyat
4. Badiiy asarlarda nutq madaniyatining yoritilishi.

15-variant

1. Nutq madaniyati va notiqlik san'atining tarixiy ildizlari.
2. Nutq jarayonida frazeologik birliklarning qo'llanishi
3. Monologik, dialogik va polilogik nutq haqida
4. Tilning tasviriy vositalari – parafrazalar asosida matn yarating.

16-variant

1. O'qituvchining ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari
2. Navoiy ijodida nutq va odob masalalari
3. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari
4. Nutqda jarayonida o'zlashma so'zlardan foydalanish.

17-variant

1. Nutq madaniyatining egallashning usul va yo'llari
2. Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik tarixi
3. O'zbek adabiy tili me'yorlari va nutq madaniyati. Madaniy nutq mezonlari

4. Nutqning kommunikativ sifatlari. Nutq odobi va muomala madaniyati

18-variant

1. Pedagogik nutqning asosiy sifatlari haqida tushuncha
2. Fikrni og'zaki bayon etish usullari
3. Nutq o'stirish metodlari va usullari. Notiq nutqiga xos qoidalar
4. Tilning tasviriy vositalari – parafrazalar asosida matn yarating.

19-variant

1. Nutq madaniyatining psixologik asoslari haqida tushuncha
2. Notiqlikning tur va ko'rinishi
3. Sharq mutafakkirlarining asarlarida nutq madaniyati masalalari
4. Til va madaniyat uzviyligi

20-variant

1. "Qobusnoma"da nutq odobi haqida
2. Sharq mutafakkirlarining asarlarida nutq madaniyati masalalari
3. Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik tarixi
4. Nutqda jarayonida o'zlashma so'zlardan foydalanish.

21 -variant

1. Tilning tasviriy vositalari – parafrazalar
2. Fikrni yozma bayon etish usullari
3. Nutq jarayonida frazeologik birliklarning qo'llanishi
4. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari

22-variant

1. A.Qodiriy asarlarida nutq odobi masalalari
2. Nutq jarayonida frazeologik birliklarning qo'llanishi
3. Nutq madaniyati va notiqlik san'atining tarixiy ildizlari
4. O'zbek tili leksikasining ichki manba asosida boyishi

23-variant

1. Sharq mutafakkirlarining asarlarida nutq madaniyati masalalari
2. So'zlashuv uslubining o'ziga xosligi
3. O'zbek tili leksikasining tashqi manba asosida boyishi
4. Tilning tasviriy vositalari – parafrazalar asosida matn yarating.

24-variant

1. A.Qahhorning so'z tanlash mahorati
2. Nutq jarayonida frazeologik birliklarning qo'llanishi
3. Publitsistik va badiiy uslub haqida
4. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati masalalari

25-variant

1. Sharq mutafakkirlarining nutq, notiqlik san'ati haqidagi qarashlari

2. «Qobusnoma» – sharq xalqlari orasida suxandonlikka oid axloqiy ta’limiy asar.
3. Nutq jarayonida frazeologik birliklarning qo’llanishi.
4. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati masalalari

26-variant

1. O’qituvchi nutqi madaniyati haqida
2. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati masalalari
3. Badiiy uslubning o’ziga xos xususiyatlari.
4. Tilning tasviriy vositalari – parafrazalar asosida matn yarating

27-variant

1. A.Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san’ati masalalari
2. Til va vadaniyat uzviyligi
2. “Qobusnoma” – sharq xalqlari orasida suxandonlikka oid axloqiy ta’limiy asar.
4. O’qituvchi nutqining boyligi.

JORIY VA ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1. «Nutq madaniyati» kursining o’rganish obyekti va vazifalari
2. «Nutq madaniyati» kursining o’rganish obyekti va vazifalari. «Nutq madaniyati» muammosining asoslanishi
3. Nutq madaniyati va notiqlik san’atining tarixiy ildizlari
4. Nutq madaniyati va notiqlik san’atining tarixiy ildizlari. Qadimgi Yunoniston va Rim notiqligi
5. Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik tarixi
6. O’zbek adabiy tili va nutq madaniyati
7. O’zbek adabiy tili me’yorlari va nutq madaniyati. Madaniy nutq mezonlari
8. Nutqning kommunikativ sifatlari. Nutq odobi va muomala madaniyati
9. Grammatik stilistika va nutq madaniyati. Nutq va terminologiya
10. Nutq o’stirish metodlari va usullari. Notiq nutqiga xos qoidalar
11. Mustaqillikdan so’ng o’zbek tili leksikasi. O’zbek tilidagi inglizcha o’zlashma so’zlarning ma’no taraqqiyoti
12. Xalq og’zaki ijodida va ilk yozma yodgorliklarda nutq madaniyati masalalari
13. Sharq mutafakkirlarining asarlarida nutq madaniyati masalalari
14. Sharq mutafakkirlarining asarlarida nutq madaniyati masalalari
15. Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy ijodida nutq madaniyati masalalari
16. O’qituvchi (filolog) nutq texnikasi va madaniyati
17. “Nutq madaniyati asoslari” faniga kirish
18. Notiqlik san’ati tarixidan
19. G’arb va sharq madaniyati tarixida notiqlik san’atining o’rni
20. G’arb madaniyati tarixida notiqlik san’atining o’rni
21. Sharq madaniyati tarixida notiqlik san’atining o’rni
22. Kaykovus suxandonlik xususida
23. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati
24. Turkiy til afzalliklari
25. Nutq madaniyatini egallash yo’llari.

26. Nutq madaniyatini egallash yo'llari. Ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlari
27. Nutq go'zalligini ta'minlashda o'zlashma so'zlarning o'rni
28. Notiqlikni shakllantirishda lug'atlarning o'rni
29. Nutq madaniyati va notiqlik san'atining tarixiy ildizlari
30. Notiqlik tarixi, tadrijiy taraqqiyotida Sharq va Markaziy Osiyo allomalarining o'rni
31. O'zbek adabiy tili me'yorlari va nutq madaniyati.
32. Madaniy nutqning asosiy sifatleri
33. Nutq odobi va muomala madaniyati
34. Nutq madaniyati va uslubiyat
35. Nutq o'stirish metodlari va usullari
36. Nutq madaniyati Sharq mutafakkirlari talqinida
37. Alisher Navoiy kuzatuvda notiqlik
38. Nutq madaniyati va o'qituvchi nutqi
39. Nutq madaniyati va notiqlik san'atining tarixiy ildizlari.
40. Qadimgi Yunoniston va Rim notiqligi.
41. Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik tarixi
42. O'zbek adabiy tili va nutq madaniyati. Madaniy nutq mezonlari
43. Notiq nutqiga xos qoidalar
44. Sharq mutafakkirlarining asarlarida nutq madaniyati masalalari
45. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati masalalari
46. O'zbek tilining izohli lug'atidagi forscha-arabcha so'zlar izohi ustida ishlash
47. O'qituvchi nutq texnikasi va madaniyati
48. G'arb va sharq madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni
49. Kaykovus suxandonlik xususida
50. Nutq madaniyatini egallash yo'llari
51. Umumiste'mol, chegaralangan, zamonaviy va yangi so'zlarga misollar keltirish va tahlil qilish
52. Qo'llanilishi chegaralanmagan, chegaralangan, dialektal, terminologik leksika. argo va jargonlarga misollar keltirish va tahlil qilish
53. O'quv lug'atlari bilan tanishish, ularning kirish qismi, tuzilishi va ulardan foydalanish tamoyillarini konspekt qilish
54. «Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari» kursining maqsad va vazifalari
55. O'qituvchining notiqlik mahorati ta'lim nazariyasining qaysi prinsiplariga asoslanadi
56. O'qituvchining ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari
57. Nutqning tozaligi haqida
58. Nutq madaniyati tarixidan
59. O'qituvchi nutqining sofligi
60. O'qituvchining ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari
61. Nutq odobi nima?
62. Nutq madaniyati va me'yor. Madaniy nutq me'zonlari
63. O'qituvchi nutq madaniyati faning boshqa fanlar bilan aloqasi
64. O'qituvchi nutqining boyligi
65. G'arb madaniyati tarixida notiqlik saif atimng o'rni

66. Nutqning og'zaki va yozma shakllari va ularning xususiyatlari
67. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari
68. Til madaniyati va nutq madaniyati
69. O'qituvchi nutqining ifodaliligi
70. "Qobusnoma" da rivoyat va hikoyalarning yoritilishi
71. Kaykovus suxandonlik xususida
72. Qadimgi Rim va Gretsiyada notiqlik san'ati haqida
73. Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san'ati masalalari
74. Shaxs ma'naviyati va ijtimoiy faolligini shakilantirishda so'zning rolli
75. "Mahbub ul-Qulub" asarida nutq madaniyati mavzusidagi fikrlarning bayoni
76. A. Avloniy ijodida nutq madaniyati masalalari
77. Nutqning sofligi, boyligi ta'lim-tarbiya jarayonida qanday ahamiyatga ega
78. Nutq madaniyati muammolari
79. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy asarlarida nutq odobi
80. O'qituvchining ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari
81. She'riyatda nutqqa oid madaniy mezonlarning qo'llanishi
82. Nutq madaniyatining egallashning usul va yo'llari
83. Pedagogik nutqning asosiy sifatlari haqida tushuncha
84. "Qobusnoma" da nutq odobi haqida
85. Nutq jarayonida tasviriy vositalarning qo'llanish usullari
86. Tilning tasviriy vositalari
87. Nutq jarayonida frazeologik birliklarning qo'llanishi
88. A. Qodiriy asarlarida nutq odobi masalalari
89. Nutq faoliyatini asosiy turlarini ta'riflang
90. Nutq madaniyatining pedagogik asoslari
91. Nutq texnikasi
92. Sharq mutafakkirlari nutq, notiqlik san'ati oldidagi talablari

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Nutq madaniyati fanning fanlararo aloqalari qaysi javobda to'laroq aks etgan?
 - A. Ona tili, adabiyot, biologiya, falsafa
 - B. Tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot, ona tili
 - D. Tilshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya*
 - E. Adabiyot, tarix, til tarixi, falsafa

2. O'qituvchi nutqi madaniyati fanining vazifasi nimadan iborat.
 - A. Adabiy meyorlarni ishlab chiqish
 - B. Tildagi eskirgan unsurlarni yangilash
 - D. O'zbek milliy adabiy til faoliyati rivojlanishini kuzatib borish, ob'ektiv qonunlarni kashf etish
 - E. Barchajavoblar to'g'ri*

3. Nutq madaniyati tushunchasi tilshunoslikda nimani anglatadi?
 - A. Madaniy nutq, ya'ni nutqiy faoliyat

- B. Madaniy nutq bilan bog'liq ilmiy muammo
- D. Tilshunoslik fanining sohasi
- E. Barchajavoblar to'g'ri*

4. Qaysi uslub uchun frazeologik birliklarning ishlatilishi xos emas.

- A. Ilmiy va badiiy
- B. Badiiy va rasmiy
- D. Ilmiy va rasmiy*
- E. So'zlashuv va ilmiy

5. So'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishi.....deyiladi?

- A. Nutqning sofligi
- B. Nutqning izchilligi
- D. Nutqning ravonligi
- E. Nutqning mantiqiyliqi*

6. Til madaniyatining asosiy tekshirish obekti nima?

- A. Adabiy til me'yorlari*
- B. Lug'atboyligi
- D. Uslubiyat
- E. Imlo

7. Nutqning tozaligiga salbiy ta'sir etadigan unsurlarni ko'rsating?

- A. Varvarizmlar va vulgazmlar
- B. Arxaizm va dialektizmlar
- D. Adabiy me'yor va imlo
- E. A, B javob*

8. Nutqqa obrazlilik ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalarning o'rtasida o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish.....

- A. Metonomiya
- B. Metafora
- D. Sinekdoxa
- E. Epitet

9. Epitet so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A. jim qolish
- B. Takrorlash
- D. Izohlash
- E. O'xshatish

10. Rasmiy uslubda ko'pincha qanday gaplar foydalaniladi?

- A. Darak va undov gaplardan
- B. Ritorik so'roq gaplardan
- D. Faqat darak gaplardan

E. Darak va buyruq gaplardan

11. Kanselyarizm bu ...

A. Xabar, aloqa

B. Ish qog'ozlari uchun zarar bo'lgan, ma'lum bir shaklda saqlanadigan so'z birikmalari

D. Parazit

E. Dag'al so'z

12. Aksentologik me'yor nima?

A. Urg'uni to'g'ri qo'llash me'yori

B. Yozuv me'yori

D. hnloviy me'y or

E. Talaffuz me'yori

13. So'zning o'zi ifodalayotgan predmet bilan qat'iy mosligi bilan belgilanishi nima deyadi?

A. Nutqning to'g'rili

B. Nutqning mantiqiyli

D. Nutqning tozaligi

E Nutqning aniqligi

14. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun asosan nimalarga asoslanadi?

A. Urg'u va grammatik me'yorga

B. So'zlashuv me'yorlariga

D. Tarixiy me'yorlarga

E. Morfologik me'yorga

15. Notiq bu ...

A. Nutqning madaniyatini yaxshi bilgan odam

B. Fikrni to'g'ri etkazgan odam

D. Mustaqil fikrli, o'tkir zehni, o'z obro' va mansabiga ega odam*

E. Fikrni mantiq doirasida tuzgan odam

16. Insonning nutq faoliyati 3 ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bular

A Og'zaki yozma va badiiy

B. So'zlashish, mutoala qilish, eshitish*

D. Ta'lim olish, maslahat berish va gapirish

E. Bisonparvarlik, mehnatsevarlik va rostgo'ylik

17. "Qobusnoma" asari 44 bodan iborat bo'lib, shundan 40 bobi hayotiy voqealarga, qolgan 4 bobi nimaga bag'ishlangan?

A. Diniy mavzuga*

B. Urf-odatlariga

D. Notiqlik san'atiga

E. Olimlar haqida

18. Aristotelning eradan avvalgi 335 yilida notiqlik san'ati hazariyasiga bag'ishlab qanday asar yozgan?

- A. Ritorika *
- B. Poetika
- D. Qobusnoma
- E. Notiqlik san'ati

19. Tog'lardagi qip-qizil lola Bo'lib go'yo yqut piyola, Buloqlardan uzatadi suv, El ko'zidan qochadi uyqu. She'riy parchada tilning tasviriy vositalaridan qay bin qo'llangan?

- A O'xshatish*
- B. Qiyoslash
- D. Sinekdoxa
- E. Metonomiya

20. A.Navoiyning qay si asarida "Nasihah ahli voizlar zikrida" degan faoli bor.

- A Mahbubul – qulub*
- B. Majolis un-nafois
- D. Nasoyim ul-muhabbat
- E. Sabhati abhur

21. "Ma'dani inson guhari so'z durur, gulshani odam samari so'z durar", "Ko'p demak so'zga mag'nirlik va emak nafsga mag'rurhk" loqoridagi fikrlarning muallifmi toping?

- A. Bobur
- B. Navoiy*
- D. Zamoxshariy
- E. Qoshg'ariy

22. Qaysi uslubda qo'shma gaplar faol qo'llanadi?

- A. Ilmiy uslubda*
- B. Rasmiy uslubda
- D. Ommabop uslubda
- E. Badiiy uslubda

23. Qaysi uslubda atamalar kamroq qo'llanadi.

- A, Ommabop uslubda
- B. Ilmiy - ommabop uslubda
- D. Badiiy uslubda*
- E. Rasmiy uslubda

24. Dialektizm qanday so'z?

- A Malum ijtimoiy guruh vakillari nutqi*
- B. Noo'rin qollangan chet so'z
- D. Dag'al, qo'pol, harakat so'z

E. A, V javob to'g'ri

25. Nutqning tozaligi deganda nimani tushunasiz?

A Adabiy til me'yorlariga yot bo'lgan birliklarning qo'llanmasligi*

B. Dialektizmlarning qo'llanmasligi

D. Nutq mantiqiyligiga rioya qilish

E. Nutq ifodaviyligini oshirish

26. Milliy o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi nutq qanday nomlanadi?

A. Og'zaki*

B. Madaniy

D. Yozma

E. Badiiy

27. Adabiy me'yorning qanday ko'rinishi mavjud.

A Og'zaki va yozma*

B. Imloviy

D. Uslubiy

E. Fonetik

28. "Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq ravon va sodda til kerak" Yuqoridagi so'zlar muallifi kim?

A Oybek

B. Qahhor*

D. Qodiriy

E. Oripov

29. "Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bi, ularga roiya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir" so'zlari kimga tegishli?

A Avloniy

B. Navoiy

D. Kaykovus*

E. Fitrat

30. Ukush so'zlama so'z biro so'zla oz Tuman so'z tugunin bu bir so'zla yech.

(So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla tuman (o'n ming) so'z tugunin shu bir so'z bilan yech) misralarinmg muallifi kim?

A. Bobur

B. Koshg'ariy*

D. Yusuf Xos Hojib

E. Navoiy

31. Voiz bu

A. Olim

B. Kofir

D. Johil

E. Notiq *

32. «Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak». Yuqoridagi soʻzlar muallifi kim?

A. S.Ahmad

B. Oybek

D. A.Qaxxor *

E. A.Qodiriy

34. Kanselarizm bu

A. Xabar, aloqa

B. Parazit

D. Dagʻal soʻz

E. Ish qogʻozlari uchun zarur boʻlgan, maʼlum bir shaklda saqlanadigan soʻz birikmalari *

35. Nahv bu

A. Proza

B. Sheʼriy asar

D. Sintaksis, grammatika *

E. Sheʼr oʻlchovi

36. «Fozil odamlar shahri» asarining muallifini toping.

A. Beruniy

B. Forobiy *

D. Ibn Sino

E. Qoshgʻariy

37. M.Qoshgʻariyning toʻliq ismini aniqlang?

A. Ibn Husayin Qogʻariy

B. Mahmud ibn Muhammad-al Qogʻariy

D. Mahmud ibn-ul Husayin ibn Muhammad-al Qoshgʻariy *

E. Qoshgʻariy ibn-ul Husayin oʻgʻli Mahmud

38. Oʻqituvchi nutq madaniyati kursining maqsadi?

A. Talabalarni oʻqituvchilikka tayyorlash

B. Madaniy nutq haqida toʻliq tasavvur hosil qilish adabiy nutq malakalarini rivojlantirish*

D. Tilshunoslikni oʻrgatish

E. Adabiy norma haqida maʼlumot berish

39. Til bu

A. Fikr bildirish vositasi

B. Soʻzlashish vositasi

D. Axloq kurash, hayot koʻzgusi, maʼnaviyat belgisi *

E. Maʼnaviyat belgisi

40. Qaysi adib «Tarbiya»ni to‘rt turga bo‘ladi.

- A. Qoshg‘ariy
- B. Beruniy
- D. A.Avloniy *
- E. Y.X.Xojib

41. Nutq madaniyati adabiy til meyorlarini puxta egallash va ulardan nutqda to‘liq foydalanish nutqning kommunikativ sifatlaridan qaysi biriga tegishli?

- A. Nutqning maqsadga muvofiqligi *
- B. Nutqning mantiqiyligi
- D. Nutq tozaligi
- E. Nutqning ta’sirchanligi

42. Nutqning tozaligiga putur yetkazuvchi omillar.

- A. Dialektalizmlar
- B. Jargonlar
- D. Varvarizmlar
- E. Barcha javoblar to‘g‘ri *

43. Aksentologik norma nima?

- A. Urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash normasi *
- B. Yozuv normasi
- D. Imloviy norma
- E. Talaffuz normasi

44. Quyidagilardan qaysilari notiqlikka mansub asarlar.

- A. Sitseronning «Notiqlik asarida»
- B. Kvintinmayaning «Notiq byuilimi haqida»
- D. Joliyning «Baxariston»
- E. 1 va 2 javoblar *

45. Nutqning kommunikativ sifatlariga nimalar kiradi?

- A. To‘g‘riligi
- B. Aniqligi
- D. Mantiqiyligi
- E. Aniqlik va mantiqiylik*

46. «Hifzi lison» deb nimaga aytiladi.

- A. Qadriyatlarni o‘rganishga aytiladi
- B. Har millat o‘z ona tili va adabiyotini saqlashga aytiladi *
- D. To‘g‘ri javob yo‘q
- E. 1 va 2 javob to‘g‘ri

47. Logograflar kimlar?

- A. Notiqlik bilan shug'ullanuvchilar
- B. Taniqli faylasuflar
- D. Nutq matnlarni tuzuvchi yoki yozib beruvchilar *
- E. To'g'ri javob yo'q

48. Rimda nechta notiqlik turi ma'lum?

- A. 2 ta: Siyosiy notiqlik va sud notiqligi
- B. 1 ta: Sud notiqligi
- D. 4 ta: Sud, siyosiy, maqtov, huquqiy notiqlik
- E. 3 ta: Sud, siyosiy va va maqtov notiqligi *

49. Til madaniyati nima?

- A. Til birliklarining ishlanganligi *
- B. Har qanday xabarni tinglovchiga to'g'ri yetkazish
- D. Nutqning kommunikativ sifatlari
- E. Yozma nutqni ta'sirli qilib yetkazish

50. Qaysi uslubda qo'shma gaplar faol qo'llanadi.

- A. So'zlashuv uslubda
- B. Ilmiy uslubda *
- D. Rasmiy uslubda
- E. Publistik uslubda

51. Rimdagi notiqlik maktabining asoschisi Kim.

- A. Sitseron
- B. Mark Antoniy
- D. Tiberiy
- E. Kvintillion

52. O'qituvchi nutqi madaniyati kursining maqsadi.

- A. Madaniy nutq haqida to'liq tasavvur hosil qilish.
- B. Adabiy nutq malakasini rivojlantirish
- D. 1 va 1 javoblar to'g'ri
- E. O'quvchilar ongiga estetik ta'sir etish

53. «Geodeziya» asari kimning qalamiga mansub.

- A. Farobiy
- B. Beruniy *
- D. Ibn Sino
- E. Kaykovus

54. Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qayerda paydo bo'lgan?

- A. Rim va Afinada
- B. Ossuriyada Vavilon va hindistonda
- D. Rim va ossuriyada
- E. Vavilon, xindiston

55. Mark Fabiy Kvintilianning notiqlikka oid qanday asari mavjud?

- A. «Notiq bilimi haqida»
- B. «Ritorika»
- D. «Notiq», «brut»
- E. «Notiqlik haqida»

56. «Ritorika» asari necha qismdan iborat?

- A. 5 ta
- B. 4 ta
- D. 2 ta
- E. 7 ta

57. Notiqlik necha turga bo'linadi?

- A. 2 ta
- B. 3 ta
- D. 4 ta
- E. 5 ta

58. Til nima?

- A. Til aloqa quroli
- B. Til hayot ko'zgusi
- D. Til ma'naviyat belgisi
- E. Til bilimlarning to'plami

59. «Notiqlik haqida» asari muallifi kim?

- A. Aristotel
- B. Demosfen
- D. Kvintilion
- E. Sitseron

60. «Qobusnoma» necha bobdan iborat?

- A. 33 bob
- B. 44 bob
- D. 45 bob
- E. 50 Bob

61. «Qobusnoma»ning qaysi boblari suz odobi haqida?

- A. 6-7 boblari
- B. 7-8 boblari
- D. 8-9 boblari
- E. 9-10 boblari

62. Norma nima?

- A. Tilning yozish shakli

- B. Adabiy san'at
- D. Suzlashish uslubi.
- E. Nutqning bir shakli

63. So'zning o'zi ifodalayotgan predmet bilan qat'iy mosligi bilan belgilanishi nima deyiladi?

- A. Nutqning mantiqiyligi
- B. Nutqning to'g'riligi
- D. Nutqning aniqligi
- E. Nutqning ifodaliligi

64. Tilning vazifalariga ko'ra necha nutq uslubi farqlanadi?

- A. 4
- B. 5
- D. 6
- E. 7

65. Qaysi uslubda terminlar kamroq qo'llanadi?

- A. Publitsistik
- B. So'zlashuv uslubi
- D. Rasmiy uslub
- E. Ilmiy-ommabop uslub

66. Logograflar kimlar?

- A. Tayyor nutq matnlarini yozib beruvchi kishilar
- B. Nutq so'zlovchilar
- D. Diniy e'tiqodga da'vat qiluvchi shaxslar
- E. 1 va 2 javoblar

67. Ilmiy adabiyotlarda o'zbek adabiy tili normalari necha xil tasniflanadi?

- A. 6 xil
- B. 8 xil
- D. 10 xil
- E. 13 xil

68. So'zlashuv uslubi nechaga bo'linadi va qaysilar?

- A. 2 ga, og'zaki va adabiy so'zlashuv uslubi
- B. 2 ga, rasmiy va ilmiy uslub
- D. 2 ga, og'zaki va ilmiy uslub
- E. 2 ga, adabiy va rasmiy uslub

69. Dialektlizm qanday so'z?

- A. Ma'lum ijtimoiy guruh vakillari nutqi
- B. Shevaga xos so'z, urg'u*
- D. Noo'rin qo'llangan chet so'z
- E. Dag'al, qo'pol, haqorat so'z

70. Tildan aloqa va ta'sir qilish maqsadida bermalol va o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikmalar jami va sistemasi nima?

- A. Nutq madaniyati*
- B. Nutq odobi
- D. Til madaniyati
- E. Nutqning to'g'riligi

71. Sitseronning bizgacha nechta nutq yetib kelgan?

- A. 30 ta
- B. 43 ta
- D. 58 ta*
- E. 60 ta

72. Nutqning tozaligiga putur yetkazuvchi unsurlar nechta?

- A. 6 ta*
- B. 9 ta
- D. 11 ta
- E. 13 ta

73. Nutq madaniyati tushunchasini ta'riflashda qanday qarashlar mavjud?

- A. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biri
- B. Nutq madaniyatini adabiy til rivojiga ongli aralashuvidir
- C. Nutq madaniyati til vositalaridan o'rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir
- D. Nutq madaniyati avvalo fikrlash madaniyatidir
- E. Barcha javoblar to'g'ri*

74. Quyidagilardan qaysi biri Sitseron qalamiga mansub?

- A. Notiq*
- B. Notqlik bilimi haqida
- D. Ritorika
- E. Villiada

75. Nutq madaniyati asoslari fani nimani o'rganadi?

- A. Chiroyli nutq tuzish yo'llarini
- B. To'g'ri nutqtuzish yo'llarini
- D. O'zini tutishni o'gatadi
- E. A,B,G javoblar to'g'ri*

76. Nutq madaniyati fanining tekshirish predmeti nima?

- A. Adabiy norma
- B. Til
- D. O'qituvchi nutqi madaniyati
- E. Nutqning til qurilishi, adabiy til meyorlari*

77. Adabiy normaning qanday ko‘rinishlari mavjud?

- A. Og‘zaki va yozma*
- B. Dialektal norma
- D. Jargonlar normasi
- E. Uzus

78. Insoniy nutq faoliyati qanday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi?

- A. O‘zus
- B. So‘zlashish
- D. Eshitish
- E. B,V,G*

79. O‘zus nima?

- A. Bir ijtimoiy guruhning o‘ziga xos bo‘lgan boshqalar tushunmaydigan til
- B. Biror til sistemasida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarning foydalanib kelinayotgan qismi*
- D. Adabiy tilning muomaladagi qismi
- E. So‘zning ma’no anglatuvchi qismi

80. O‘zbek tilida o‘zusning qanday turlari mavjud?

- A. Semantik takror
- B. Frazeologik takror
- D. Grammatik takror
- E. 3 va 4*

81. Sud notiqligiga oid bo‘lgan qatorni toping.

- A. Xudba notiqligi
- B. Ilmiy notiqlik
- D. O‘z-o‘zini ximoya qilish*
- E. Va’z nutqi

82. Sinegorlar nima?

- A. Nutq tuzib beruvchilar
Sudda qatnashuvchilar
- B. Lisoniy bezaklarga boy nutq
- D. Tantanali nutq matnlari

E. Sud jarayonida boshqa birov manfaatini ko‘zlab nutq so‘zlovchi

83. Logograflarga ta’rif bering.

- A. Shevaga xos so‘zlar
- B. Tantanali nutq matnlari
- D. Nutq matnlarini tuzuvchi kishilar*

E. Siyosiy notiqlik

84. «Soʻzlari aniq boʻlsin, fikrini va aytmoqchi boʻlgan mulohazalarini ravshan, ravon aytsin» jumlasini kimga tegishli?
- A. A. Navoiy
 - B. Kaykovus*
 - D. Demosfen
 - E. Farobiy
85. «Konselyarizmlar» nima?
- A. Ish qogʻozlari uchun zarur boʻlgan soʻz birikmalari*
 - B. Parazit soʻzlar
 - D. Til birikmalaridagi soʻzlar
 - E. Yaxlit sistema asosidagi soʻz
86. «Qobusnoma» kimga atab yozilgan?
- A. Kaykovusning oʻgʻliga atab*.
 - B. Podshoga atab.
 - D. Notiqlik bilimiga atab.
 - E. A va B .
87. A.Navoiy fikricha voiz qanday bulishi kerak?
- A. Voizning soʻzlari taʼsirchan
 - B. Notiq bilimli boʻlishi kerak
 - D. notiqning soʻzi bilan ishi bir xil boʻlishi kerak
 - E. 1, 2 va 3*
88. Oʻrta Osiyoda notiqlik ilmiga asos solgan olimlar
- A. Husayin Voiz Koshifiy*
 - B. Riyoziy
 - D. Mehnagiy
 - E. Demosfen
89. Nutq tozaligi nima?
- A. Adabiy til normalariga yod boʻlgan birliklarning qoʻllanmasligi
 - B. Dealektizmlarning qoʻllanmasligi*
 - D. Nutq mantiqiyiligiga rioya qilish
 - E. Nutq ifodaviyiligini oshirish
92. «Varvarizm» nima?
- A. Nutqni buzadigan qoʻpol soʻzlar
 - B. Ishlatilmaydigan soʻzlar
 - D. Nooʻrin qoʻllangan chet soʻzlar
 - E. G. Shevaga xos soʻzlar
93. Nutq toʻgʻriligi nima?
- A. Soʻzning oʻzi ifodalayotgan narsaning predmet bilan mosligi

- B. Tinglovchining shaxsiga tegmaydigan qilib nutq so‘zlash
- D. Jumalarning aniq, lo‘ndaligi
- E. Tilning ma’lum bir paytda qabul qilingan normalariga qat’iy mos kelish bilan belgilanadi*

94. Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun asosan nimalarga asoslanadi?

- A. Urg‘u va grammatik normaga*
- B. So‘zlashuv normasiga
- D. Uslubiy normaga
- E. Tarixiy normaga

95. «Agar nutq noaniq bo‘lsa, u maqsadga erishmaydi» fikrlari kimga tegishli?

- A. Kaykovus*
- B. Setsiron
- D. Aristotel
- E. Navoiy

96. A. Navoiy tan olgan voiz kim?

- A. Xoja Ahror Valiy*
- B. Xoja Muayyad Mehnagiy
- D. Muayyad ibn Mehnagiy
- E. Mehnagiy ibn Voliy

97. Sitseronning notiqlik san’ti nazariyasiga va tarixiga oid asarlari.

- A. «Notiqlik haqida»
- B. «Notiq va Brut»
- D. «Notiq bilimi haqida»
- E. 1 va 2*

98. A. Navoiyning qaysi asarida «Nasihati ahli voizlar zikrida» degan fasli bor?

- A. «Mahbub ul-qulub»*
- B. «Majolis un-nafois»
- D. «Nasoyim ul-muhabbat»
- E. «Sabhatu anhur»

99. A. Navoiy qaysi asarida bir qancha voizlar haqida fikr bildirgan?

- A. «Mahbub ul-qulub» *
- B. «Majolis un-nafois»
- D. «Nasoyim ul-muhabbat»
- E. «Sabhatu anhur»

100. Mahmud Qoshg‘ariyning turkiy tillarga bag‘ishlangan asarlarini ko‘rsating?

- A. «Devonu lug‘otit turk» va «Javohirun nahv fil lug‘otit turk»*
- B. «Hindiston» va «Geodeziya»
- D. «Poetika» va «Ritorika»

1. Psixolingvistika qachon rasman fan sifatida e'lon qilingan?
 - A. 1954-y.
 - B. 1955-y.
 - C. 1949-y.
 - D. 1953-y.

2. Psixolingvistika qaysi ilmiy paradigma doirasiga kiradi?
 - A. sistem-struktur
 - B. antroposentrik
 - C. qiyosiy-tarixiy
 - D. an'anaviy

3. Psixolingvistika qaysi fanlarning sintezi hisoblanadi?
 - A. psixologiya va lingvistika
 - B. psixologiya va sosiolingvistika
 - C. psixologiya va tilshunoslik
 - D. psixologiya va nutq madaniyati

4. «Psixolingvistika» termini ilk bor kim tomonidan qo'llangan?
 - A. Ch. Osgud
 - B. N. Pronko
 - C. A. Leontev
 - D. A. Luriya

5. "Psixolingvistika" termining sinonimi sifatida qaysi termin qo'llaniladi?
 - A. "psixologiya"
 - B. "nutq madaniyati"
 - C. "nutq faoliyati nazariyasi"
 - D. "sosiolingvistika"

6. Psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllangani qaysi jurnalda e'lon qilingan?
 - A. "Linguistics Studies"
 - B. "Verbal Learning and Verbal Behavior"
 - C. "Verbatim Language Quarterly"
 - D. "Journal of Memory and Language"

7. Psixolingvistika qanday fan?
 - A. eksperimental
 - B. ilmiy-nazariy
 - C. ruhiy
 - D. siyosiy

8. Psixolingvistikaning rivojlanishiga qaysi "inqiloblar" katta ta'sir ko'rsatdi?

- A. psixik fenomenlar va lingvokuturologiya
 - B. kognitiv fenomenlar va diskursiv yondashuvlar
 - C. mental fenomenlar va bixevioristik yondashuv
 - D. sotsiologik fenomyenlar va sotsiolingvistika
9. J. Kess psixolingvistikaning taraqqiyotini qaysi bosqichlarga ajratadi?
- A. lingvistika; mentalizm;psixologiya;lingvokulturologiya
 - B. shakllanish; lingvistika;kognitivizm; hozirgi kognitiv fanlar
 - C. psixologiya; lingvistika; strukturalizm; sotsiolingvisika
 - D. sotsiologiya, lingvistika; komparativistika; psixologiya
10. Psixolinivistikaning obykti nima?
- A. individlar psixologiyasi
 - B. lingvistik bilimlar
 - C. individual obyektlar majmui
 - D. til va nutq
11. Psixolingvistikaning diqqat markazida nima turadi?
- A. individ va kommunikasiya
 - B. til va nutq
 - C. til va jamiyat
 - D. til va madaniyat
12. Psixolingvistik tadqiqotlarda qaysi masala katta o‘rinni egallaydi?
- A. nutq
 - B. so‘zlarning tuzilishi
 - C. konseptlar
 - D. so‘z semantikasi
13. Psixolingvistikaning asosiy masalalarini belgilang.
- A. bilingvizm, til siyosati, bolalar nutqi
 - B. nutqning yaratilishi, nutqning qabul qilinishi, bolalar nutqi
 - C. nutqiy mexanizmlar, afaziya, til strukturasi
 - D. oliy nerv sistemasi, nutq mexanizmlari
14. Psixolingvistika qaysi jarayonlarni o‘rganadi?
- A. matn yaratish va uni tushunish, kodlash va dekodlash, til va tafakkur
 - B. jamiyat va til muammolari
 - C. nutqiy kamchiliklar
 - D. til va nutq munosabati
15. Psixolingvistika qaysi usulga tayanadi?
- A. “kabinet”
 - B. intervyu
 - C. ekperiment
 - D. statistik

16. Qaysi omil psixolingvistikaning asosiy xususiyati hisoblanadi?
- A. til omili
 - B. inson, vaziyat va eksperiment omili
 - C. jamiyat omili
 - D. inson omili
17. Psixolingvistika qaysi tushunchani afzal ko‘rdi?
- A. fonema
 - B. morfema
 - C. leksema
 - D. so‘z
18. Psixolingvistikada eng kichik birlik nima?
- A. so‘z
 - B. fonema
 - C. bo‘g‘in
 - D. morfema
19. Jumlani hosil qilish yoki kodlash qaysi atama bilan yuritiladi?
- A. encode
 - B. code
 - C. decode
 - D. system
20. Matn psixolingvistikasi nimani o‘rganadi?
- A. matnning tuzilishini
 - B. matnni
 - C. matnning yaratilishini
 - D. matnni tushunuvchilarning ongida qanday matn mavjud bo‘lishini

Foydalaniladigan darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati.-Toshkent: O'zbekiston, 2014.

Asosiy adabiyotlar:

1. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. 1- қисм. – Тошкент: Наврўз, 1997.
2. Кайковус. Қобуснома. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006.
3. Маҳмудов Н. Ўқитувчининг нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
4. Карнеги Д. Ўз-ўзига ишонч ҳосил қилиш ва омма олдида сўзлаш санъати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
5. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

Қўшимча адабийотлар:

1. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
2. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2012.
3. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. – Тошкент: Маънавият, 2003.
4. Она тили – давлат тили. – Тошкент: Адолат, 2004.
5. Аъламова М. Нутқда акс етар бир олам бойлик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
6. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989.
7. Қиличев Э., Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро, 2003.
8. Маҳмудов Н., Рафиев А., Йўлдошев И. Нутқ маданияти ва давлат тилида иш юритиш. – Тошкент: Чўлпон, 2012.
10. Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Тошкент: Академия, 2007. –Б. 224.
11. Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2006.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. –Тошкент: Университет, 2002. –Б. 53.
14. Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси, – Тошкент: Университет, 1996, 39- б.
15. Иномхўжаев С. Ўтмиш шарқ нотиклиги. – Тошкент: Билим, 1972.

16. Бадиий услуб ва тилнинг ифода воситалари. – Самарқанд, 1994.
17. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat (Notiq, nutq, mantiq). - T.: Adolat, 2005.
18. Петрякова А.Г. Культура речи. Практикум-справочник. -М.: Флинта: Наука, 2002.
19. Garr Reynolds, “The Naked Presenter. Delivering Powerful Presentations With or Without Slides”, 2012.
20. Norden E. Die antike Kunstprosa vom VI. Jahrhundert v. Chr. bis in die Zeit der Renaissance. Leipzig, 1998, Bd. I, S. 18-19.
21. Клайм Р., Лудин И. Встать и выступить. Высокое искусство презентаций: Пер. с англ. –СПб.: Изд-во «ВЕСЬ», 2002.
22. Уэнрайт Г. Язык тела. М: Изд-во «ФАИР-ПРЕСС», 2002.
23. Aimstreet W.C., Baty W., Lehman C.M. Business communications. California, US, 1992.
24. Arnold W.E., McClure C. Communication. N.Y. 1989.
25. Casagrande D.O., Casagrande R.D. Oral communication. California, US, 1986.
26. Brummett, Barry, ed. Reading Rhetorical Theory. Fort Worth: Harcourt, 2000. - 203-204; 331.
27. Crowley, Sharon, and Debra Hawhee. Ancient Rhetorics for Contemporary Students. 3rd ed. New York: Pearson, 2004. -197.

Интернет сайтлари:

www.ziyo.net
 www.thinsan.com
 www.uforum.uz
 www.literature.uz

GLOSSARIY

Adabiy - Literary - Tilning adabiyligini ta'minlovchi vositalarni belgilovchi me'yor

Adabiy og'zaki nutq - Colloquial literary - Til me'yorlariga mos tuzilgan nutq

Adresant - Addresant - Xabar qabul qiluvchi

Adresat - Addressee - Xabar beruvchi

Aksent - Accent - boshqa tilda so'zlaganda tovushlarni o'sha tildagidan boshqacha talaffuz qilish

Artikulyatsiya - артикуляция – nutq a'zolarining me'yoriy harakati.

Assimilatsiya - ассимиляция – assimilation – unli va undoshlarning o'xshab ketishi yoki bir-birlariga singishi.

Aforizm - Aphorism - Hikmatli so'z .

Bahri bayt – (arabcha *bahr* – she'riy vazn nomi va *bayt* – uy so'zlaridan) – she'riy musobaqa turi. Bunda maxsus qoida bilan navbatma-navbat bayt aytib tortishiladi.

Bilingvizm - Bilingulism - Ikkitillilik .

Dabirlik – davlat ahamiyatidagi yozishmalarni insho etish va o‘qib berish notiqligi; xatiblik – diniy, ijtimoiy-siyosiy notiqlik; muzakkirlik – diniy-axloqiy masalalarni izohlab, sharhlab berish bilan bog‘liq notiqlikdir.

Deduksiya - Deduction - Tovush orttirilishi .

Diftong va diftongoid - дифтонг, дифтонгоид - diphthong and diphtongoid – bir tovushda ikkinchi bir tovush ekskursiyasining yoki rekursiyasining qatnashishi.

Dialektal so‘zlar - Dialectal words - Shevashunoslik

Diksiya - диксия - (lotincha *dictio* – talaffuz) – tovush va tovush birikmalarini aniq, ravshan talaffuz qilish, nutq madaniyatining muhim unsurlaridan biri.

Deyksis - deixis - Nutqiy vaziyat

Diskurs – nolisoniy omillar (pragmatik, ijtimoiy- madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn; voqea kechishi nuqtayi nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq.

Diskussiya (lot. Discussion- muhokama qilish, tadqiq etish) - omma, ko‘pchilik oldida (majlisda, matbuotda, suhbatda) biror bahsli, munozarali masalani muqokama qilish.

Dissimilatsiya - диссимиляция – dissimilation – undosh tovushlardagi noo‘xshashlik.

Dubleto‘z - Doublet word – Bir xil semantik tarkibga ega bo‘lgan leksik birliklar

Elokutsiya - Элокуция - Elocutio – fikrlarni og‘zaki pardoqlash, so‘zlar bilan bezash.

Eristika [yun.eristikos - bahslashuvchi] – bahs, munozara olib borish san'ati.

Epitet - sifatlash.

Eefimizm - euphemism - Qo‘pol so‘z o‘rniga ishlatilgan

Ekskursiya - On set - Talaffuz jarayonida nutq organlarining boshlang‘ich holati

Ekspressiv leksika - Expressive lexic - ekspressiya ifodalashga ega bo‘lgan so‘z.

Emotsional gap - Emotional sentence - his-hayajonni ifodalovchi gap

Jargon va argolar – **Jargon** - (fransuzcha) biror ijtimoiik guruhning uziga xos va uzigagina tushunarli bo‘lgan» boshqalar tushunmaydigan yasama tili biror ijtimoiy guruh o‘rtasida qo‘llaniladigan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so‘z va iboralar. Jargonlar fikrni boshqalardan sir tutish uchun qo‘llaniladi.

Fonotsion yoki ovoz uslub – nutq texnikasi.

Frazeologizm - Frazeologism - ibora.

Funksional ko‘chirish - функциональный перенос - functionally transfer – biror predmetning nomi boshqasiga ular bajargan vazifasidagi o‘xshashlik asosida ko‘chirilishi. (lot. funktio - 'faoliyat', 'vazifa'). Funksional ko‘chirish ham o‘xshashlik asosida voqe bo‘la-di. Bu jihatdan u metafora yo‘li bilan ko‘chirishga juda yaqin.

Iboralar – ma'nosi bir so‘zga teng keladigan gap yoki so‘z birikmalari. Iboralar har doim ko‘chma ma'noda ishlatiladi

Improvizatsiya (lot. Improvisus — kutilmagan, bexosdan) — she'r, musiqa va boshqalarni oldindan tayyorgarliksiz, ijro davomida ijod etish.

Indifferent - индифферент – indifferent – oraliq tovush.

Induksiya – индукция – (lotincha *Inductio* – yo‘qlash, qo‘zg‘atish) – mantiqiy fikrlashning xususiy xulosalardan umumiyga o‘tishi, bilish metodlaridan biri. Ta’limda fikrlashning induktiv metodidan foydalanish vositasida jarayonning xususiy omillar, ko‘rsatkichlar va xususiyatlar, unsurlardan umumiyga o‘tish xodisasi sodir bo‘ladi. O‘qitishda I. deduktsiya bilan mantiqiy aloqadorlikda qo‘llaniladi. Ta’limda o‘quv fanining xususiyatlari, uning mazmuni va qo‘llaniladigan metodlar, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Inversiya - инверсия - inversion – gap bo‘laklarining odatdagi tartibining buzilishi va u shu gapdagi bo‘laklarining gapdagi mavqeiga ta’sir etmasligi.

Izoglossa - изоглосса - isogloss – til, sheva faktlarining teng kelish holatlari.

Kommunikatsiya – коммуникация - (lotinchadan – communicatio – communico – umumlashtiraman, bog‘layman, muomala qilaman) - 1) muomala, odamdan odamga ma’lumotni uzatish – bu odamlarning, ularning bilish-mehnat faoliyati jarayonidagi hamkorlik shakli, u asosan, til yordamida amalga oshiriladi (kamdan-kam boshqa belgi sistemalari yordamida). 2) aloqa yo‘li, bir joyning boshqa joy bilan bog‘lanishi.

Jargon - жаргон - slang – ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos so‘zlari. Masalan, tartibot, savdo xodimlari.

Kanselyarizmlar – rasmiy uslubga xos so‘z va birikmalar. Masalan, *yuqorida qayd etilgan, quyida bayon qilingan, ...unvoni beril-sin, zimmasiga yuklansin, topshirilsin, tadbirlarni ishlab chiqsin...*

Qat’iy shaklga kirgan bunday tayyor so‘z va birikmalar hujjatlar matniga alohida rasmiylik ma’nosini beradi. Lekin kanselyarizmlar o‘zi aloqador bo‘lmagan boshqa nutq ko‘rinishlarida, xususan so‘zlashuv nutqida qo‘llansa, nutqning tozaligiga putur yetkazadi.

Kinetik yoki xulq uslubi - **kinesika**. Bunga jestlar, poza, mimika kiradi

Kommunikatsiya - (lot.sommunigftio- xabar, aloka). Biror mazmuning til vositalari orqali berilishi, xabar qilinishi.

Logograflar - mutaxassislik ehtiyojiga ko‘ra yurisprudensiya hamda notiqlik san’atini chuqur o‘zlashtirishgan qonun himoyachisi sifatida himoyasidagi jabrlanuvchini demokratik sud hay’atida oqlashi lozim bo‘lgan.

Madaniy nutq - tilning mavjud barcha vositalari va ular imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o‘rinli, unumli foydalanilgan holda tuzilgan nutq.

Mantiq - (arabcha) tafakkur shakli va qonunlari haqidagifan: logika.

Metafora – метафора - metaphor – biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o‘zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o‘xshashligi asosida ko‘chirish. Nutqqa obrazlilik emotsiya (turli his-tuyg‘ular) berish uchun narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘zlar va iboralarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi.

Metonimiya – метонимия – metonimiya – bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o‘xshashlik asosida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik asosida ko‘chirilishidir.

Me’yor – lisoning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo‘lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o‘rni va xusiyatini belgilaydi. Bu

tushuncha til tizimida lison va nutqning aloqadorligini ta'minlovchi asosiy tushunchadir.

Monolog – Монолог - Monologue - yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, o'zgarar repliklari bilan bo'linmagan nutqi.

Monosemantik so'zlar - моносематические слова - monosematische words – faqat bitta ma'noga ega bo'lgan so'zlar.

Morfema - (grekcha) tilshunoslikka oid termin bulib, suzning ma'ko anglatuvchi, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan qismi (yoki bulagi) (uzak morfema, affiksial morfema).

Nahv - (arabcha) sintaksis, grammatika.

Nazm - (arabcha) she'riy asar: she'riyat janri, she'r o'lchovi.

Nasr - (arabcha) proza, prozaik asar, proza janri.

Nutq – bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutqiy jarayon – tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir.

Nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishi, ya'ni so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaati sanaladi. Nutqiy akt mazmuni talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan “boyitilishi”, idrok etilishi natijasidir.

Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmalingsvistlar e'tirof etishadi. Ularning ko'pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdorlaridir. Bu bosqichlarda uch xil harakat bajariladi. Ular –lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakatlardir.

Nutq madaniyati - fikrni ifodalashda til vositalari – aloqa-aralashuv qurolidan vaziyatga muvofiq, adabiy normada to'g'ri foydalanish.

Nutq mantiqiyligi – leksik-semantik va sintaktik normaga amal qilish.

Nutq uslubi - adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi.

Nutq odobi - aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning qalbiga mos holda ifodalar bilan yetkazish.

Nutqning to'g'ri ligi – adabiy normaga, urg'u va grammatik me'yorga qat'iy amal qilish.

Nutqning aniqligi – so'zning o'zi ifodalayotgan voqyelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim xususiyati, fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash bilan, nutq predmetining ma'nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq.

Nutqiy muloqot – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat harakatli tizim. Inson nutqida bu omillar u yoki bu tarzda mujassamlashdi, bir butun va yaxlit hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Nutq texnikasi – bu nutqning tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalarining nutqiy sharoit, nutqiy vaziyat va nutq maqsadiga muvofiq tanlanishidir. Nutq ikki ko'rinishda voqelanadi, shuning uchun uning texnikasi ham ikki xil bo'ladi: 1.Og'zaki nutq texnikasi. 2. Yozma nutq texnikasi.

Nutqning ta'sirchanligi - nutqning asosiy maqsadi tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabt etishdir.

Nutqning sofligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, madaniy nutq o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilishi, turli til, g'ayri adabiy til unsurlaridan holi bo'lishi kerak.

Orfoepiya – yunoncha (ortphos – to'g'ri, epos - nutq) to'g'ri gapirish, to'g'ri talaffuz.

Parazit so'zlar – ortiqcha qaytariqlar, bekorchi so'zlardir. So'zlovchining tilga e'tiborsizligi tufayli yuzaga keladi va doimiy qo'llanilib borilsa, odatga aylanib qolishi mumkin. Masalan, *ya'ni, demak, xo'sh, tak*

• **Parafraza** - tasviriy ifoda

Rezonator - kuchaytirgich, ovozni shakllantiruvchi asosiy manbadir. Usiz tovush kuchsiz va ifodasizdir.

Ritm – (grekcha rhumoc-ritmos so'zidan olingan bo'lib), vazndosh, ohangdosh, degan ma'nolarni anglatadi.

Polisemantik so'zlar - полисемантические слова - polysemantic words – birdan ortiq ma'noni anglatuvshi so'zlar polisemantik so'zlar atamasi bilan yuritiladi.

Polisemiya - полисемия - polysemy – tildagi ko'p ma'nolilik hodisasi.

Sinekdoxa – синекдоха – synecdoche – bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko'chirilishi.

Sinegorlar - mohir notiq bo'lishi bilan bir qatorda yuris-prudensiyadan maxsus ta'lim olishgan. antik sud tizimida sudlanuvchilarning ham maxsus notiqdorni yollashiga, ulardan yordam olishga ruxsat berilardi. Bunday notiqlik san'ati sohiblari sinegorlar deb atalardi. Ularning nutqi esa sinegoriya deyilgan.

So'zlar kombinatsiyasi - Комбинация слов - Infotainment – nutqda, gapda so'zlarning o'zaro mos kelishi

Stil – so'zi grekcha suzdan olingan bulib, yozish uchun ishlatiladigan uchi o'tkirlashtirilgan tayoqchani bildirgani ma'lum. Qadimgi rimliklar, gretsiyaliklar stilga kishilarni ishontirish san'ati sifatida qaraganlar. Stil suzining asl mohiyati hozirgi kunda ham ana shu izohlardan unchalik uzoqlashgani yo'q. Faqat keyingi davrlardagi talqinlarda vazifaviy stilga (aslida uslub ushadir) alohida e'tibor berib yuborilgan: uslub (stil) nutqning jamiyat ijtimoiy faoliyati ma'lum tomoni bilan bog'langan o'ziga xos lug'ati va boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan kurinishi bo'lib, nutqning xuddi shunday boshqa turlaridan uz ichki xususiyatlari bilan tafovut qilib turadi.

Sinonim - ma'nodosh so'zlar.

Tasviriy ifodalar yoki parafrazalar-narsa, shaxs, buyum, voqea-hodisalarni tasvirlash yo'li bilan bildiradigan so'z birikmalari.

Tejamkorlik prinsipi - принцип экономии - the principle of economy – asosida voqe bo'lgan hosila ma'nolar konnotativlik, emotsional-ekspressivlik, modallik jihatidan neytral bo'lib, ular faqat nomlash vazifasini bajaradi.

Temp lotincha (tempus) so'zidan olingan bo'lib sur'at, daraja, vaqt, degan ma'noni anglatadi.

Til - o'zaro aloqaning, fikr almashishning eng muhim, eng asosiy, eng ta'sirchan vositasidir. Til o'zaro aloqaning insonlar-jamiyat bilangina bog'liq shakli, ko'rininishdir.

Til madaniyati deganda, til birliklari (ajdodlar tomonidan ishlatishga to'la yaroqli holga keltirib qo'yilgan ifoda vositalari: tovushlar, so'zlar, qo'shimchalar, qoliplar kabilar) va imkoniyatlari taraqqiyotining, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda shu munosabatlarni ta'minlovchi qoidalarning ishlanish darajasi tushuniladi.

Til tizimi - o'zaro bog'langan va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo'lgan barqaror butunlik sistema sanalar ekan, til birliklari voqelanish xususiyatiga ko'ra ham, tuzilish (ontologik) tabiatiga ko'ra ham sistema sanaladi.

Tizim - o'zaro bog'langan va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo'lgan barqaror butunlik tizim (sistema)dir. Sistemani hosil qilgan, unga birlashgan unsurlar sistemaning elementlari sanaladi. Sistemani hosil qiluvchi unsurlarning xarakteri-xususiyatiga ko'ra ikki xil sistema ko'rinishi mavjud: 1. Material sistema. 2. Ideal sistema.

Trening - Тренинг - Trening – tahsil oluvchi faoliyatiga mo'ljallangan Ta'lim shakli bo'lib, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. U Ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o'rganishni ko'zda tutadi.

Trop – Троп - Tropos – grekcha “burilish”, ya'ni so'z yoki ifodalarni ko'chma ma'noda qo'llash.

Unlilar cho'ziqligi - долгота гласных - length of vowels – unlilarning boshqa tovush ta'sirida va uning ta'sirisiz cho'zilishi.

Uzus - biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo'lgan imkoniyatlarning foydalanib kelinayotgan qismi uzus deyiladi. Uzus bir tilni boshqasidan ajratib turadigan shartlarni ham, tilning ichki normalarini ham o'z ichiga oladi.

Varvarizmlar – o'zbek adabiy tiliga o'zlashmagan xorijiy so'zlardir. Nutqda o'zbek tilida muqobili bo'la turib o'zlashmagan xorijiy so'zlarni, ya'ni varvarizmlarni qo'llash nutqning tozaligini, sofligini buzadi. Amaliyotdagi yuristlarning aksariyati nutqida bu holatni kuzatish mumkin.

Voiz – diniy mazmunda va'z kiluvchi, va'z aytuvchi, va'zxon. Voizlik san'ati rivoji jarayonida bu san'atning d a b i r l i k, x a t i b l i k, m u z a k k i r l i k kabi tarmoqlari yuzaga kelgan.

Vulgarizmlar – (lot. Vulgaris-oddiy, sodda) ~ dag'al so'z, dag'al ibora. qo'pol, haqorat mazmunidagi so'zlar. Vulgarizmlardan badiiy asarlarda salbiy qahramonlarning dag'alligi, qo'polligi va madaniyatsizligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Lekin bunday so'zlarning nutqda qo'llanilishi salbiy hodisadir.

